



ISLOM KARIMOV

**JAHON INQIROZINING
OQIBATLARINI YENGISH,
MAMLAKATIMIZNI
MODERNIZATSIIYA QILISH VA
TARAQQIY TOPGAN DAVLATLAR
DARAJASIGA KO'TARILISH SARI**

18

ISBN 978-9943-01-577-7

Toshkent
«O'zbekiston»
2010

“SHARQ TARONALARI” YETTINCHI XALQARO MUSIQA FESTIVALINING OCHILISHIGA BAG’ISHLANGAN MAROSIMDAGI TABRIK SO’ZI

Qadrli festival qatnashchilari!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Bugun mana shu qadimiy va betakror Samarqand zaminiga uzoq-yaqin o’lkalardan tashrif buyurgan siz aziz mehmonlarimiz bilan, dunyoda nom qozongan “Sharq taronalari” festivalining ishtirokchilari, barcha do’stu birodarlarimiz va men uchun qadrdon bo’lgan Samarqand ahli bilan diydor ko’rishib turganimidan benihoya xursand bo’lganimni bildirib, barchangizga o’zimning ezgu tilaklarimni izhor etishdan baxtiyorman.

Shu go’zal va shukuhli oqshomda muhtasham Registon maydonida sizlar bilan birga nufuzli YUNESKO xalqaro tashkiloti, Xalqaro xalq ijodiyoti kengashi vakillari, xorijiy davlatlarning elchilari ham hozir bo’lganini biz, avvalo, o’zbek xalqiga, bugungi ajoyib anjumanga hurmat belgisi sifatida qabul qilamiz va buning uchun barchangizga minnatdorlik bildiramiz.

Bugun mana shu yuksak minbardan turib, o’z zimmamga olgan sharaflı burchimni bajarib, dunyoning turli qit’ा va mintaqalaridan kelgan siz aziz mehmonlarni butun xalqimiz nomidan samimiyl qutlab, “Xush kelibsiz azim Samarqand shahriga, xush kelibsiz O’zbekistonga!” deb o’z hurmat-ehtiromimni bildirishga ruxsat bergaysiz.

Qadrli do’stlar, muhtaram mehmonlar!

Barchamizga ma'lumki, dunyoda juda ko‘p va turli-tuman san’at va musiqa festivallari o’tkaziladi. Albatta, ularni har birining o’z oldiga qo’ygan maqsad va vazifalari, o’ziga xosligi, qadr-qimmati, o’z mavzu va g’oyalari, obro’-e’tibori bor.

Shular qatorida biz bundan 12 yil oldin tashkil qilgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalining aynan sharqona ma’no-mazmuni, betakror ruhi va qiyofasi borligini, o’laymanki, hech kim inkor etolmaydi.

Avvalo, bu festival Sharq olamini va falsafasini, benazir go’zallik,

nazokat va nafosatni aks ettiradigan, inson qalbining eng nozik nuqtalariga yetib boradigan kuy va qo'shiqlarni, qadimiy tasvirlarni ifoda etgani bilan insonning butun vujudini qamrab olishi va o'ziga maftun etishi muqarrar.

Shu bilan birga, bu festival biz yashayotgan bugungi notinch va o'ta murakkab zamonda elu elatlari o'rtasida hamkorlik rishtalarini mustahkamlash, hayotbaxsh musiqa ohanglari orqali odamlar qalbida ezgu insoniy tuyg'ularni uyg'otish, mushtarak tomirlarni bir-biriga payvand etish kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishi bilan alohida e'tiborga sazovor.

Chunki tili, millati, dini va urf-odatidan qat'i nazar, yer yuzidagi yuzlab millat va xalqlarni birlashtiradigan eng qudratli, eng ta'sirchan bir vosita borki, bu – musiqa, bu – ohang, bu – tarona.

Men bir narsaga aminman – bizning hayotimizga, avvalo, farzandlarimiz, bolalarimizning ongi va qalbiga hech qanday chegarani, hech qanday g'ov-to'siqni bilmaydigan musiqa sadolari, mumtoz kuy va qo'shiqlar qanchalik chuqur kirib borsa, bu o'z navbatida xalqlarni bir-biriga yaqin qilishga, hamkorlik va do'stlikka da'vat etadi va tom ma'noda yengilmas kuchga aylanib qoladi.

Butun dunyoda obro'-e'tibori tobora ortib borayotgan bu festivalning jahondagi eng ko'hna shaharlardan biri bo'lmish, har qadamda Sharq nafasi ufurib turadigan go'zal va afsonaviy Samarcand shahrida o'tkazilishi bu anjumanga beqiyos joziba va ma'no-mazmun bag'ishlaydi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Sharq olamining o'limas ruhini, uning qadimiy va hamisha navqiron qiyofasini, betakror me'moriy yodgorliklarni namoyon etadigan bu shahar va bu yerda yashayotgan, ko'p asrlar davomida turli millat va elatlarning eng olijanob fazilat va xususiyatlarini, tili va tabiatini o'zida mujassam etgan, mehmondo'st va mehribon xalq bu festivalning uzviy, ajoyib bir qismiga aylanib, unga yangicha fayzu tarovat baxsh etadi, desam, barcha-barcha shu maydonda o'tirganlar bu fikrga qo'shiladi.

Shu buyuk shaharda tug'ilib, unib-o'sgan inson sifatida men Samarcand xalqiga qaratib, uni ta'riflab, o'zimning mehrim, farzandlik muhabbatim haqida takror va takror gapirishdan hech qachon charchamayman. Va bu tabarruk tuproq oldida o'zimni hamisha qarzdor deb bilaman.

Aziz do'starim, birodarlarim!

Bugun ochilayotgan yettinchi festival haqida so'z yuritar ekanmiz, bu

festival o‘z qatnashchilarining soni va ishtirokchi davlatlar jug‘rofiyasi bilan, turli xalqlarning bebaho ma’naviy boyligini keng tarannum etishi, unga yangi-yangi iste’dodlar va dunyoga mashhur san’atkirlarning tashrif buyurgani, musiqiy olamining rang-barangligi bilan “Sharq taronalari” musiqa anjumanlari tarixida alohida o‘rin egallaydi.

Buni birgina misol, ya’ni festivalimizning dastlabki anjumanida 31 ta mamlakat vakillari ishtirok etgan bo‘lsa, bu yilgi musiqa bayramida 47 ta davlatdan kelgan 260 dan ziyod mohir sozanda va xonandalar qatnashayotgani ham yaqqol tasdiqlaydi.

Biz mamlakatimizda “Sharq taronalari” festivalini yuksak saviyada o‘tkazish, uning dong‘ini dunyoga taratish uchun har tomonlama puxta tayyorgarlik ko‘ramiz.

San’atni, musiqani butun qalbi bilan sevadigan, ijod ahlini munosib qadrlaydigan o‘zbek xalqi “Sharq taronalari” festivalining har bir anjumanini katta bayramdek orziqib kutadi, barcha ishtirokchilarning san’atiga yuksak hurmat bilan qarab, ularning chiqishini samimiyat bilan qarshi olib, o‘z xursandchiligi va minnatdorligini bildiradi.

Ishonaman, bugun o‘z ishini boshlayotgan navbatdagi festival “Sharq taronalari” musiqa anjumanining jahon san’at olamida qozongan obro‘siga obro‘ qo’shib, uning betakrorligi va go‘zalligini yanada oshiradi, bu nufuzli madaniy forum o‘zida mujassam etgan yuksak insoniy, gumanistik g‘oya va maqsadlarni, uning o‘ziga xos an’analarini davom ettirishda yorqin sahifa bo‘lib qoladi.

Sizlarni bugungi san’at va nafosat bayrami bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, anjuman ishiga esa muvaffaqiyat tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

2009-yil, 26-avgust

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 18 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK SO'ZI

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Barchangizni Vatanimiz tarixidagi buyuk sana – O'zbekiston mustaqilligining 18 yillik bayrami bilan chin qalbimdan samimi tabriklab, sizlarga, sizlar orqali butun xalqimizga o'zimning yuksak hurmat-ehtiromim va mehr-muhabbatimni bildirishdan baxtiyorman.

Aziz do'stlar!

Bugun hech kimga sir emaski, ozodlik va erkinlikka, o'z taqdirini o'z qo'liga olishga intilgan dunyodagi biron ta xalq mustaqillik degan ulug' va beba ho ne'matni, siyosiy va iqtisodiy tobelik va qaramlik zanjirlaridan ozod bo'lishni hech qachon osonlik bilan qo'lga kiritgani yo'q.

Bu azaliy haqiqatni biz o'z tariximizda angladik, boshimizdan o'tkazdik.

Biz bundan 18 yil oldin xalqimiz asrlar bo'yli orziqib kutgan milliy istiqlolimizni e'lon qilib, o'tgan davr mobaynida ezgu orzu-umidlarimizga erishish yo'lida el-yurtimiz qancha-qancha uzelish va azob-uqubatlarni, qancha-qancha yetishmovchiliklarni, bir so'z bilan aytganda, qanday og'ir va mashaqqatli sinovlarni boshidan kechirganini bugungi va kelajak avlodlar hech qachon yodidan chiqarmasligi muqarrar.

Bugun mana shunday ulug' va hammamiz uchun haqiqatan ham aziz ayyom arafasida bosib o'tgan yo'limizni sarhisob qilar ekanmiz, avvalo, o'z kuch-qudratimiz va salohiyatimizga suyanib, o'zimizga xos va o'zimizga mos taraqqiyot yo'lini tanlab olganimiz, shu unutilmas yillarda mardlik va matonat, chidamlilik va bag'rikenglik ko'rsatib kelayotgan xalqimizning fidokorona mehnati bilan jahon ahli e'tirof etayotgan yutuq va marralarga erishayotganimiz barchamizga g'urur va mammuniyat yetkazadi, albatta.

Yurtimizda yangi jamiyat barpo etishda biz tanlagan va bosqichma-bosqich, izchil amalga oshirayotgan islohotlar modeli ayni shu kunlarda,

ya’ni butun dunyo boshidan kechirayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida amalda naqadar to‘g‘ri ekanini va xalqimizning manfaatlariiga to‘liq javob berayotganini hayotning o‘zi tasdiqlab bermoqda.

Buning yaqqol isboti oxirgi yillarda va shu yilning o‘zida iqtisodiyotimizning barqaror sur’atlar bilan o‘sib, yangi marralarga ko‘tarilib, yurtimizning qiyofasi tobora o‘zgarib, yanada obod bo‘layotganida, aholimizning hayot darajasi, oylik va daromadlari uzlusiz yuksalib borayotganida yorqin namoyon bo‘lmoqda.

Hayotimizning ma’no-mazmuni, maqsadlari o‘zgarishi bilan xalqimizning, avvalo, yoshlarimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi, fikrashi, siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligi yuksalib borayotganini va bunday ijobiy o‘zgarishlar bugungi va ertangi yutuqlarimizga mustahkam zamin tug‘dirayotganini katta mammuniyat bilan ta‘kidlaymiz.

O‘tgan davr mobaynida ko‘pni ko‘rgan, mehnatkash va bag‘rikeng xalqimiz haqiqiy mustaqillikka erishish, istiqlolimizni har qanday xuruj va g‘arazli, yovuz harakatlardan himoyalash yo‘lidagi mashaqqatli kurashlarda toblandi.

Yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotning qadr-qimmatini, mintaqamizda millatlar va dinlararo totuvlikni asrash va mustahkamlash naqadar muhim ekanini chuqur anglab yetdi.

Muxtasar qilib aytganda, o‘tgan davr mobaynida boshimizdan kechirgan qiyinchilik va sinovlar qanchalik og‘ir bo‘lmasin, biz ularning barchasiga mardona bardosh berib, o‘z tanlagan yo‘limizdan qaytmadik.

Va o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish, shu muqaddas zaminimizda yashayotgan barcha insonlar uchun hech kimdan kam bo‘lmaydigan erkin, obod va farovon hayot qurish yo‘lidan hech qachon qaytmaymiz.

Aziz yurtdoshlar!

Bugun mana shu yuksak minbarda turib, 18 yil davomida bizga xayrixoh bo‘lib, bizni qo‘llab-quvvatlab, yordam va madad berib kelayotgan do‘sru birodarlarimizga, biz bilan samarali hamkorlik qilayotgan mamlakatlar va xalqlarga minnatdorlik bildirib, qizg‘in salomlarimizni yo‘llashga, ularga baxt va ravnaq tilashga ruxsat bergaysiz.

Bizning bugungi tantanamizda quvonchimizga sherik bo‘layotgan yurtimizdagি xorijiy davlatlarning elchilari va xalqaro tashkilotlarning

vakillariga, barcha aziz mehmonlarimizga yurakdan chiqqan olqishlarimiz bilan o‘z hurmat-ehtiromimizni izhor etsak, ayni muddao bo‘ladi.

Mana shunday yorug‘ kunlarga yetib kelishda o‘zini ayamasdan, fidokorona mehnat qilgan, O‘zbekistonning og‘ir yukini o‘z yelkasida ko‘tarib kelayotgan barcha-barcha yurtdoshlarimizga, mo‘tabar keksalarimizga o‘z nomimidan, xalqimiz nomidan tashakkur bildirishni ham qarz, ham farz, deb bilaman.

Ayni paytda doimo latofat va go‘zallik, vafo va sadoqat timsoli bo‘lgan, hayotimizni ezgulik va mehr nuri bilan charog‘on etib kelayotgan munis ayollarimiz, opa-singillarimizni samimiyl qutlab, ularning barchasiga sihat-salomatlilik, baxtu saodat, xonadonlariga fayzu baraka tilayman.

Bugun mana shu keng maydonni to‘ldirib, o‘zining navqiron azmu shijoatini namoyon etib o‘tirgan o‘g‘il-qizlarimizni, haqiqatan ham ertangi hayotimizning hal qiluvchi kuchiga aylanib borayotgan butun mamlakatimiz yoshlariini, ularga ta’lim berayotgan ustoz-murabbiylarni chin qalbimdan muborakbod etaman.

Yurt uchun, el uchun, bizning ertangi buyuk kelajagimiz uchun hech qachon, hech qayerda bo‘sh kelmang, aziz farzandlarim!

Barchangizni Vatanimiz mustaqilligining 18 yillik qutlug‘ bayrami bilan yana bir bor tabriklayman.

Yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo‘lsin!

Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin!

2009-yil, 31-avgust

TARIXI BOY, BUGUNI GO'ZAL, KELAJAGI BUYUK SHAHAR

*Prezident Islom Karimovning Toshkent shahrining 2200 yilligiga
bag'ishlangan tantanali majlisdagi nutqi*

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, siz azizlarni, sizlarning timsolingizda poytaxtimiz ahli, butun xalqimizni Vatanimizning oltin ostonasi bo'lmish Toshkent shahrining 2200 yillik qutlug' to'yi, ulug' bayrami bilan chin qalbimdan muborakbod etib, barchangizga o'zimning samimiy hurmat-ehtiromim va ezgu tilaklarimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Hammamizga ma'lumki, xalqimizda azal-azaldan to'yga to'yna bilan kelishdek ajoyib bir odat bor.

Shu ma'noda, azim Toshkentimizning aynan bugungi to'yiga atab barpo etilgan, "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyi deb nom olgan mana shunday muhtasham va betakror koshonada poytaxtimizning buyuk sanasini o'tkazar ekanmiz, barchamizning bayramona kayfiyatimizga quvonch va shukronalik tuyg'ulari qo'shilib ketayotgani tabiiy bir hol, desam, o'ylaymanki, ko'pchilikning fikrini ifoda qilgan bo'laman.

Qadimiy va hamisha navqiron Toshkent shahrining 2200 yilligini munosib o'tkazish maqsadida nufuzli xalqaro tashkilot bo'lmish YUNESKO qarori asosida ushbu yubileyni yurtimizda keng nishonlash to'g'risida maxsus qaror va dastur qabul qilganimizdan sizlar albatta xabardorsiz.

O'tgan davr mobaynida bu sanani Toshkent shahrining mamlakatimiz hayotidagi beqiyos o'rni va mavqeiga mos ravishda, yuksak saviyada nishonlash, poytaxtimizni yanada obod qilish uchun katta tayyorgarlik ishlari olib borildi.

Bugun to'la ishonch bilan aytish mumkinki, bunday ulkan, haqiqatan ham tarixiy ishlarni amalga oshirishda Toshkentda biron-bir tuman,

mavze-mahalla, mehnat jamoasi yoki birorta odam yo'qki, bevosita o'z hissasini qo'shmagan, hech bo'limganda, o'zining fikri, maslahati bilan ishtirok etmagan bo'lsa.

Bir so'z bilan aytganda, mana shu davr mobaynida bu go'zal maskanda, ona diyorimizda yashayotgan, keksayu yosh barcha-barcha insonlar uchun Toshkentimiz naqadar sevimli va qadrli ekani yana bir bor amalda namoyon bo'ldi, desam, hech qanday xato bo'lmaydi.

Fursatdan foydalanimizda, azim Toshkent shahrining muborak to'yini o'tkazishga munosib hissa qo'shgan siz azizlarga, sizlar orqali butun poytaxt ahliga o'z nomimidan, xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildirishni o'zimning burchim deb bilaman.

Bugun bizni o'z bag'rige olgan mana shu bino, chindan ham, milliy me'morlik san'atimizning ajoyib namunasi bo'lib, uning g'oyasi va loyihasi, muhandislik yechimlari, har qaysi ustuni, har qaysi g'ishti, ichki va tashqi bezaklari – bularning barchasi o'z kuchimiz, o'zimizning mohir usta, quruvchi va payvandchilarimiz, yetuk mutaxassislarimizning mehnati bilan bunyod etilgani hammamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Ayni mana shunday hashamatli va betakror binoni Toshkentning qoq markazida barpo etishga erishganimizni bugungi kunda mamlakatimizning intellektual salohiyati, kuch va imkoniyatlari, jumladan, qurilish va bunyodkorlik, zamonaviy shaharsozlik sohasida ham tobora yuksalib borayotganining yaqqol isboti sifatida qabul qilish o'rinali bo'ladi, deb o'layman.

Muhtaram do'stlar!

Shu zalda o'tirgan siz, azizlarning, barchamizning nomimizdan bir ezgu tilakni bildirib, aytmoqchiman: hech shubhasiz, milliy binokorlik san'ati va mahoratining benazir namoyishi bo'lmish mana shu salobatli saroy azim va go'zal Toshkentimiz kabi dunyo turguncha tursin, bugungi tantana singari yurtimizning eng quvonchli va shodiyona kunlariga, ilohim, xizmat qilsin.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Bugun biz Toshkent shahrining mana shu buyuk sanasini nishonlar ekanmiz, bu ayyom Vatanimiz mustaqilligining 18 yillik bayrami bilan uzviy bog'lanib ketganini chuqur anglaymiz.

Aytish kerakki, bu holning o'ziga xos muhim siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy ahamiyati, ma'nosi bor, albatta. Nega deganda, Toshkentning tarixi va bugungi hayotini O'zbekistonning tarixi va bugungi hayotidan,

O'zbekistonning kelgusi taraqqiyotini Toshkentning istiqbolidan ajratib, ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi.

Shu kunlarda diyorimizning uzoq-yaqin barcha qishloq va shaharlarida xalqimiz eng ulug' va eng aziz ayyom bo'l mish Mustaqillik kunini katta xursandchilik bilan bayram qilayotgan ekan, yurtimizda yashayotgan, o'z taqdirini O'zbekistonning taqdiri va kelajagi bilan chambarchas bog'lagan har qaysi odam o'z fikri va zikri bilan bir haqiqatga yana va yana bir bor ishonch hosil qiladi. Ya'ni, u o'zining hayoti, oilasi, yoru birodarlari misolida O'zbekistonimiz shu o'tgan qisqa davrda bosib o'tgan yo'lni, amalga oshirilayotgan mislsiz o'zgarish va yangilanishlarni, mamlakatimizning kuch-qudrati ortib, uning qiyofasi yanada chiroy ochayotgani, xalqaro maydonda obro'-e'tibori yuksalib borayotganini beixtiyor o'ziga tasavvur qilishi tabiiyidir.

Haqiqatan ham, shu bayram kunlarida mustaqillik biz uchun o'zligimizni anglash, yer osti, yer usti boyliklarimizga egalik qilish, mehnatkash xalqimizning va bugun kuchga to'lib, hayotga kirib borayotgan yoshlariimizning beqiyos salohiyati va orzu-tilishlarini ro'yobga chiqarish, shu muqaddas zaminda demokratik, erkin va farovon hayot barpo etish, bir so'z bilan aytganda, ertangi yorug' kunimizni qurish uchun qanday ulkan imkoniyatlarni oshib bergenini yana bir karra shukronalik bilan ko'z o'ngimizdan o'tkazishimiz – buyam tabiiy hol desam, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Shu ma'noda, biz ko'zlagan yuksak marralarga erishish yo'lida o'tgan davr mobaynida qo'lga kiritgan natijalar haqida gapirganda, faqatgina oxirgi besh yil davomida iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishini namoyon etadigan ba'zi bir raqamlarni olib kelish o'rinni bo'ladi, deb o'layman.

Birgina misolning o'zi, ya'ni keyingi, 2004-2008 yillar davomida mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmining dollar hisobida 2,6 barobar o'sgani, ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot hajmi esa aholi jon boshiga 2 barobardan ziyod oshgani, hech shubhasiz, iqtisodiyotimizdag'i tub o'zgarishlar o'zining amaliy samarasini berayotganini yaqqol isbotlab turibdi.

E'tiborlisi shundaki, iqtisodiy o'sish sur'atlarini izchil ta'minlash va narx-navoning oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ko'rilgan choratadbirlar, o'z navbatida, xuddi shu davrda aholi real daromadlarini 4 barobar oshirish imkonini berdi.

Sizlarga yaxshi ma'lumki, bugungi kunda jahon miqyosida tobora kuchayib borayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz oqibatida dunyoning juda ko'p mamlakatlarida iqtisodiy o'sishning pasayishi kuzatilmoxda. Minglab korxonalar, banklar va kompaniyalar bankrotlikka uchrab, ishsiz qolganlar soni ko'payib, aholining turmush darajasi pasayib bormoqda.

Albatta, ana shu inqiroz ta'sirida juda katta zarar va talafot ko'rayotgan davlatlarning iqtisodiyotini kuzatar ekanmiz, tabiiy bir savol tug'ilishi mumkin – bu inqirozning O'zbekiston uchun ta'sirini yumshatishga, avvalo, iqtisodiyotimizning o'sish sur'atlari va eng muhim, aholimizning hayot darajasi pasayishining oldini olishga biz nimaning hisobidan va qanday qilib erishmoqdamizq

Shuni aytish kerakki, jamoatchiligimiz, xalqimiz vakillari, avvalambor, oddiy insonlar bu masalaning mag'ziga yetib borib, o'zining kundalik hayoti va tajribasi asosida bu savolga javob topmoqda. Yurtimizning turli hudud va mintaqalarida bo'lib, odamlar bilan uchrashganda, muloqot qilganda bunga ishonch hosil qilish mumkin.

Bugun biz erishayotgan yutuq va marralarning asosiy sababini avvalo o'zgalarga o'xshab, bir kunlik maqsad va manfaatni ko'zlamasdan, aksincha, uzoqni ko'zlab, mamlakatimiz va xalqimiz taqdirini atroficha va chuqur o'ylagan holda qabul qilingan siyosiy qarorlar va shu asosda qat'iyatlik bilan amalga oshirilayotgan dasturlarimizda ko'rish zarur.

Biz qo'lga kiritayotgan ulkan natijalarning yana bir muhim omili – O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin biz hech kimdan nusxa olmasdan, jahonda o'zini oqlagan tajribani inkor etmasdan turib, "o'zbek modeli" deb nom olgan va mashhur besh prinsipga asoslangan o'zimizga xos, o'zimizga mos tadrijiy taraqqiyot yo'lini hayotimizda joriy etib kelayotganimiz va ayni shu model bugungi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham o'zining to'g'riligini va hayotbaxsh kuchini isbotlab berayotganida, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Shu borada biz eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan yangi – bozor tizimiga o'tish, islohotlarni hayotga tatbiq etish jarayonida "Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun" va shu bilan birga, "Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang" degan hayotiy tamoyillarga asoslangan holda ish olib bordik.

Chetdan turib bizga turli xil tagi puch tavsiyalarni o'tkazishga qaratilgan har qanday urinishlardan voz kechib, o'z aql-zakovatimizni

ishlatib, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanlaganimiz bunda ayni muddao bo'ldi.

Ya'ni, boshqacha qilib aytganda, sirti yaltiroq, ichi qaltiroq, "shok terapeyasi"ga o'xshagan, bizga noma'qul bo'lgan usullarga berilmasdan, chetdan maslahatchilarni olib kelmasdan, oqibatini o'ylab, yangi jamiyat, yangi iqtisodiyotni qurishda vazminlik bilan, shoshilmasdan siyosat olib bordik.

Yana bir muhim xulosa chiqarishga da'vat etadigan masalaga e'tiboringizni tortmoqchiman.

Davlatimiz va iqtisodiyotimizning uzoq davomli kelajagini va manfaatlarini ko'zlab, strategik va ustuvor dasturlarni amalga oshirishda, boshimizdan kechirgan og'ir va keskin vaziyatlardan chiqishda, bugun ko'pchilik qatorida moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ta'sirini bartaraf qilishda davlat boshqaruva tizimi va usullariga suyanish va ularning rolini kengaytirish va kuchaytirish o'zini to'la oqlab bergenini hayotimizning o'zi tasdiqlab berdi va bermoqda.

Bunday yondashuv, bunday qarash va tajribalarni qo'llash ayni muddao ekanini bugungi tobora keskinlashib borayotgan jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi sharoitida ko'pgina eng yirik va taraqqiy topgan davlatlar shunday yo'lni qo'llab-quvvatlayotganida kuzatish qiyin emas.

Yurtimizni har qanday siyosiy va iqtisodiy qaramlikdan saqlash, kimgadir tobe bo'lmaslik uchun, lo'nda qilib aytganda, qarz botqog'iga botib, bo'ynimizga bo'yinturuq ilinib qolmasligi uchun biz xalqaro moliyaviy tashkilotlarning mablag'lari va chet el investitsiyalaridan foydalanishda ham o'ta sezgirlik va hushyorlik bilan ish tutganimiz naqadar to'g'ri bo'lganini, o'ylaymanki, bugun barchamiz tushunib, anglab olmoqdamiz.

Shu borada ota-bobolarimizdan qolgan, "bir joyga kirishdan oldin chiqishni o'ylash kerak", degan o'gitlar ham bu masalada bizni asrashga xizmat qilganini aytish joiz.

Bunday fikrlarni davom ettiradigan bo'lsak, yana bir holatni alohida ta'kidlash lozim. Biz xalqimizning boyligi, shu bilan birga, kelajak avlodimizning rizq-nasibasi bo'lgan tabiiy zaxiralarimiz, strategik resurslarimizni o'ta og'ir paytlarda ham hech qachon garovga qo'yganimiz yo'q.

Ayniqsa, chetdan taklif qilinadigan qisqa muddatli spekulativ kreditlardan voz kechib, oladigan sarmoyalarni iqtisodiyotimizni, avvalo,

ishlab chiqarish sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash uchun ishlatganimiz hozirgi vaqtida mamlakatimizning salohiyatini, ertangi kunimizning kafolatini mustahkamlash imkonini yaratib bermoqda.

Muxtasar qilib aytganda, avvalo o'z kuchimizga ishonib, puxta o'yangan taraqqiyot modelini tanlab, kelajagimizni qurishga kirishganimiz, keyingi yillarda esa iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida chuqur o'yangan siyosatni amalga oshirayotganimiz yurtimizni har qanday iqtisodiy xavf-xatardan himoya qiladigan kuchli to'siq, ta'bir joiz bo'lsa, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi.

Lekin butun jahon miqyosida tobora chuqurlashib borayotgan inqirozning salbiy oqibatlarini his etmaslik, bu inqiroz bizni chetlab o'tadi, degan fikr va xomxayolda yurish, o'ylaymanki, kechirib bo'lmaydigan xato bo'ladi.

Chunki bugungi kunda O'zbekiston xalqaro hamjamiyat va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi sifatida rivojlanib borayotgani va bu jarayon tobora kuchayib borishini yaxshi anglab olish darkor.

Shundan kelib chiqqan holda, biz inqirozning dastlabki belgilalomatlari paydo bo'la boshlashi bilan sergak bo'lib, iqtisodiyotimizdagи real ahvol va sharoitlarni hisobga olib, bu masala bo'yicha zarur tayyorgarlik ko'rganimiz, o'z vaqtida ehtiyojkorlik bilan ish tutib, keng ko'lamli dasturlarni qabul qilganimizdan barchangiz xabardorsiz.

Shu borada ko'rileyotgan chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishlari va maqsadlari haqida gapirganda, avvalo, iqtisodiyotimizning real sektorining yukini osonlashtirish, soliqlarini kamaytirish va davlat tomonidan yordam berish, ishlab chiqarish sohasini ichki bozorning talab va ehtiyojlarini qondirish uchun qaratish, iste'mol tovarlarini tayyorlaydigan tarmoqlarga, kichik biznes va tadbirkorlik, fermerlik harakatiga keng yo'l ochish va qo'shimcha imtiyozlar berish, ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasini, qishloq taraqqiyotini mamlakatimiz rivojining yetakchi kuchi sifatida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Eksportga yo'naltirilgan korxonalarini har tomonlama rag'batlantirish, ularning soliq yukini keskin kamaytirish, mahsulotini realizatsiya qilish uchun bozorlarni yanada kengaytirish shular qatorida muhim o'rinni tutadi.

Inqirozga qarshi choralarning eng asosiy jihatlaridan biri – bu transport yo'llari va kommunikatsiyalar, avvalambor, sotsial infratuzilmani, jumladan, toza ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr energiyasi tarmoqlarini, xizmat sohalarini rivojlantirish, qishloq joylarda yangi qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish va shularning hisobidan biz uchun o'ta dolzarb vazifa bo'l mish yangi ish o'rinnarini barpo etish masalalari e'tiborimiz markazida turganini ta'kidlash kerak.

Joriy etilayotgan dasturdan eng katta o'rinn olgan asosiy maqsadlarimizdan biri mamlakatimizning moliya-bank, kredit tizimini yanada mustahkamlash, ularning real sektorga ijobiy ta'sirini kengaytirish, xorijiy investitsiyalarini, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarini yurtimizga olib kelish uchun kerakli sharoit tug'dirib berish va rag'batlantirish masalalaridir, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Bizning inqirozga qarshi ko'rayotgan ana shunday choralarimiz hozirning o'zida dastlabki, ammo ishonchli natijalarni bermoqda.

Bu haqda ko'p gapirmasdan, faqat 2009 yilning birinchi yarmi yakunlarini oladigan bo'lsak, shu davrda O'zbekiston iqtisodiyotining izchil va mutanosib rivojlanib, barqaror o'sish sur'atlariga erishganimizni qayd etish lozim.

Shu vaqt mobaynida yalpi ichki mahsulot 8,2 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9,1 foizga, tovarlar eksporti hajmi 13,4 foizga o'sgani, shu bilan birga, inflyatsiya darajasi 3,5 foizdan ortmagani, amalga oshirilgan tadbirlar hisobidan mamlakatimizda 530 mingdan ko'proq yangi ish o'rni yaratilgani, aholining real pul daromadlari 26,0 foizga o'sgani buni yaqqol ko'rsatib turibdi.

Iqtisodiyotimizni rivojlantirish, uni modernizatsiya qilish va texnik-texnologik qayta jihozlash maqsadida jalb etilgan investitsiyalar hajmi shu yilning olti oyi mobaynida 32,7 foizga o'sgani, shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2,6 barobar ko'payganini qayd etish lozim.

O'tgan 2008 yilda va 2009 yilning birinchi yarmida davlat byudjeti profitsit bilan bajarilgani tufayli joriy yilning 1 avgustidan mehnatchilarimizning ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori 25 foizga oshirilgani va inshoollo, yilning oxiriga qadar yana oshirish

imkoniyati mayjudligini inobatga olgan holda, aholimizning bu yilgi daromadlari o'tgan yilidan kam bo'lmaydi, deb ishonch bilan aytishga to'liq asoslarimiz bor.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat, jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi tashkilotlar, nufuzli xalqaro ekspert va tahlilchilar O'zbekistonda olib borilayotgan chuqur va keng ko'lamli islohotlarning amaliy samarasini munosib baholab, xolisona tan olmoqda.

Shu yil may oyida Toshkentda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralariga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro konferensiya ham shundan dalolat beradi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi boshqaruvchi direktori Dominik Stross-Kan janoblari yurtimizda islohotlarning borishi bilan yaqindan tanishib, joriy yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishi dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan birini tashkil etishini rasman ma'lum qilgani ana shunday e'tirofning yana bir tasdig'i bo'ldi.

Shuni aytish kerakki, biz hozirgi vaqtida nafaqat inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish ustida bosh qotiryapmiz, shu bilan birga, inqiroz tugagandan keyin O'zbekiston iqtisodiyotining yanada kuchli, barqaror va mutanosib rivojlangan holda maydonga chiqishi, jahon bozorida o'zimizning mustahkam o'rnimizni egallash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini oshirish bo'yicha jiddiy ish olib bormoqdamiz.

Bu to'g'rida uzoq gapirmsandan, faqat bitta misolni olib kelmoqchiman.

Biz shu yilning boshida "2009-2014 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha muhim loyihalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar dasturi"ni qabul qilganimizdan xabaringiz bor, deb o'layman.

Bu dasturga binoan umumiyligi qiymati 41,4 milliard dollarga teng bo'lgan to'rt yuzdan ziyod investitsiya loyihasini amalga oshirish ko'zda tutilganining o'zi bizning rejalarimiz naqadar ulkan va jiddiy ekanining dalili desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Aziz do'stlar, birodarlar, bugun mana shunday hal qiluvchi damlarni boshimizdan kechirayotgan ekanmiz, ertangi kunimiz yanada obod bo'lishi, O'zbekistonimizning rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi uchun puxta o'ylangan dasturlarni qabul qilayotgan ekanmiz, hech qachon qo'lga kiritgan yutuqlardan boshimiz aylanib, oyog'imiz yerdan

uzilmasligi kerakligini, bu yo'lida har bir qadamni haqiqatan ham yetti o'lchab bir kesgan holda qo'yish lozimligini unutmasligimiz zarur.

Bugun jahonda, yaqin va uzoq atrofimizda bo'layotgan keskinlashuv holatlari, umuman, butun dunyoda saqlanayotgan xavf-xatar va qaramaqarshiliklar, shular qatorida avvalo xalqaro maydonda davom etayotgan moliyaviy inqirozning o'zi bizni yanada sezgir, hushyor va ogoh bo'lishga va o'z vaqtida tegishli xulosalarni chiqarishga da'vat etadi.

Biz tarixan qisqa davrda xalqimizning fidokorona mehnati, mardligi va matonati bilan tom ma'noda asriy o'zgarishlarga erishganimizni bugun hech kim – bizga xayrixoh bo'lgan insonlar ham, bizga qandaydir bepisand qaraydiganlar ham inkor etolmaydi.

Biz o'tgan davr mobaynida qanday murakkab va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan bo'lsak, el-yurtimiz ana shu og'ir sinov va qiyinchiliklarda har tomonlama chiniqib, toblanib, irodasi baquvvat bo'lib bormoqda.

Eng muhimi, bugun bizning ongu tafakkurimiz, dunyoqarashimiz tubdan o'zarmoqda. Biz bugun o'z taqdirini o'z qo'liga olgan ozod xalq, erkin millat bo'lib, hech kimdan kam bo'lmasdan, ma'rifiy dunyo bilan birga hamqadam bo'lib bormoqdamiz.

Endi biz o'tgan asrning 90-yillaridagi odamlar emasmiz. Yurtdoshlarimizda o'z yeri, o'z mulki uchun egalik hissiyoti, yon-atrofida va dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlarga daxldorlik va mas'uliyat tuyg'usi tobora kuchayib bormoqda.

O'zligini chuqur anglab, qanday buyuk zotlarning avlodi, qanday aziz va muqaddas Vatanning farzandi ekanidan doimo g'ururlanib yashaydigan bunday bunyodkor va bag'rikeng xalq bilan har qanday yuksak cho'qqilarni zabit etish mumkin. Menda bunga hech qanday shubha yo'q.

Bugun bir fikrni to'la ishonch bilan aytishga barcha asoslarimiz bor – yo'limizda qanday og'ir, mashaqqatli sinov va qiyinchiliklar bo'lmasin, biz hech qachon bo'sh kelmaganimiz va bundan keyin ham hech qachon bo'sh kelmaymiz!

Muhtaram yurtdoshlar!

Bugun Toshkent haqida, bu buyuk shaharning nafaqat O'zbekistonimiz, balki butun Sharq olamidagi o'rni va ahamiyati, uning o'ziga xos xususiyat va alomatlari haqida gapirar ekanmiz, men ham ko'pchilik qatori, ruxsatingiz bilan, Vatanimizning gavhari bo'l mish bu shaharga o'z mehrimni bildirib, qalbimda, yuragimda bo'lgan o'y-

fikrlarim, ezgu hissiyotlarimni izhor etishni o'zimning burchim, deb bilaman.

Toshkentning mayin havosi, go'zal tabiat, qut-baraka yog'iladigan fusunkor bog'lari, zilol va shifobaxsh suvlari haqida qanday go'zal ta'riflar bitilmagan. Xususan, XVI asrda yashab o'tgan tarixchi alloma Zayniddin Vosifiy Toshkentni ulug'lab, bu diyorni bir bor ko'rgan odam bamisoli jannat bog'larini kezgandek bo'ladi, deb yozganida ayni haqiqatni ifoda etgan edi.

Yigirma ikki asr avval barpo etilgan, Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan, o'zining muhim jug'rofiy va geosiyosi o'rni, dunyo sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi bilan haqli ravishda "Sharq darvozasi" deb nom olgan Vatanimiz poytaxti – azim Toshkent serquyosh O'zbekistonimizning boy tarixi va betakror ko'rku tarovatini o'zida yaqqol namoyon etadi.

Toshkent bugungi kunda nafaqat mamlakatimiz, balki butun mintaqamizning yuksak taraqqiy etgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-moliyaviy va ma'naviy-ma'rifiy markazidir. U – qudratli sanoat va transport-kommunikatsiya tarmoqlari, zamonaviy ijtimoiy infratuzilmalarni o'zida mujassam etgan yirik megapolisdir.

Bu go'zal maskan sharqona qiyofa, an'anaviy va zamonaviy arxitektura hamda islom madaniyati qadriyatlarini noyob bir tarzda o'zar uyg'unlashtirgan beqiyos shahardir. Betakror Toshkent – ko'pmillatli xalqimizning faxri va g'ururi, tinchlik-osoyishtalik va barqarorlik timsolidir.

Bu ko'hna shahar o'z tarixida ne-ne bosqin va sinovlarni ko'rmadi, necha bor vayron bo'lib, goh Qanqa, goh Binkat, goh Mingo'rik, goho Choch va Shosh kabi nomlar bilan shu tuproqda yashagan ajdodlarimizning mashaqqatli mehnati, matonati va jasorati tufayli har safar qayta tiklandi.

Toshkent haqida o'ylaganda, beixtiyor bu shahar nima uchun aynan shu yerda, shu zaminda paydo bo'lgan, degan savol tug'iladi.

Bizgacha yetib kelgan ilmiy ma'lumotlarni qiyoslab, umumlashtirgan holda fikr yuritadigan bo'lsak, Toshkentning shahar sifatida vujudga kelishi va shakllanishi ob'ektiv tarixiy zarurat natijasi bo'lganini ta'kidlash lozim.

Milodning dastlabki asrlariga oid xitoy manbalarida Shi, ya’ni “tosh shahar” deb tilga olingen bu o’lka tarixchi olimlarning fikrlariga ko’ra, mintaqamizdagi eng qadimiy odamzot manzilgohlaridan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, qadim zamonlarda shaharlarning paydo bo’lishida avvalo himoya va ta’minot masalasi hal qiluvchi o’rin tutgan. Shu ma’noda, Toshkentning Chotqol va Qurama tog’ tizmalari bilan o’ralgan hududda, azim Sirdaryo va Chirchiq daryolarining sersuv sohillarida, oltin va kumush, mis va qo’rg’oshin, rangli metall konlari, keng dala va yaylovlar, boy tabiat va hayvonot olamiga ega bo’lgan vohada paydo bo’lgani albatta bejiz emas.

Ana shunday beqiyos imkoniyatlar hisobidan bu yerda qadimdan dehqonchilik va chorvachilik, metall qazib olish, to’qimachilik, kulolchilik va shishasozlik singari kasbu hunarlar keng rivoj topgan. Buni ko’hna Toshkentda mavjud bo’lgan Temirchi, Misgarlik, Degrezlik, O’qchi, Egarchi, Taqachi, Mahsido’zlik, Ko’nchilik, Parchabof kabi ko’cha va mahallalar, guzarlarning tarixiy nomlari ham yaqqol isbotlab turibdi.

Ayniqsa, toshkentlik mohir ustalar tomonidan tayyorlangan jangovar qurollar, jumladan, Shosh kamonlari va o’q-yoylar, egar-jabduq va qalqonlar dunyoda mashhur bo’lganini ham turli manbalar tasdiqlaydi.

Toshkentning “non shahri” deb yetti iqlimda shuhrat qozonishida, albatta, bu shaharning qut-barakali, unumdor tuprog’i, eng muhimi, shu maskanda tup qo’yib, palak yozgan ota-bobolarimizning mehr-oqibati va qalb saxovati asos bo’lganini, o’ylaymanki, tushunish, anglash qiyin emas.

Poytaxtimiz nomiga, shoniga, tarixiga singib ketgan bunday xususiyatlar haqida ko’p gapirish mumkin.

Lekin, eng muhimi, har qanday hayotiy sinovlar, tabiiy ofatlarga qaramasdan, o’z o’rnida doimo muqim bo’lib kelayotgan Toshkentning bugungi yuksak taraqqiyotini ko’rgan inson, bu shahar uchun aynan shu joy tanlangani tarix davomida har tomonlama o’zini oqlaganiga takror va takror ishonch hosil qiladi.

Sodda qilib aytganda, bugun, oradan shuncha vaqt o’tishi bilan Toshkentning aynan shu makonda hanuz barqaror bo’lib kelayotgani odamni nafaqat hayratga soladi, shu bilan birga, uzoqni o’ylab ish tutgan, bu shaharga asos solgan olis ajdodlarimizning aqlu zakovatiga tan berishga, ta’zim qilishga undaydi.

Aziz do’stlar, bir holatni o’zimizga tasavvur qilib ko’raylik. Agarki, oradan asrlar, ming yillar o’tganidan keyin, bugungi kunda zamonaviy

bilim va tajriba, sivilizatsiya yutuqlariga suyanib, Toshkentdek azim shahar uchun boshqatdan joy tanlash zarurati tug'iladigan bo'lsa, hech ikkilanmasdan aytish mumkin, yana aynan shu joyni tanlashga to'g'ri kelgan bo'lur edi.

Har bir g'ishti, har bir qarich yerida ulug' ajdodlarimizning izlari qolgan bu xosiyatlari zamindan nomlari butun islom olamida ma'lumu mashhur bo'lgan Imom Qaffol Shoshiy va Shayx Xovandi Tohur, Xo'ja Ahror Valiy, Hofiz Ko'ykiy va Shayx Zayniddin bobo, Ibrohim ota va Qo'yliq ota singari aziz-avliyolar, "Shoshiy", "Toshkandiy" taxallusi bilan ilmu ma'rifat, dinu diyonat, madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan yuzlab alloma va mutafakkir zotlar yetishib chiqqan.

Toshkent haqida so'z yuritar ekanmiz, hech shubhasiz, bu shahar tarixiga yorqin sahifalar bitgan Amir Temur bobomizning muborak nomini esga olishimiz albatta tabiiydir.

Sohibqiron hazratlari Turkiston o'lkasida buyuk va qudratli davlat barpo etishda Toshkentning qanday hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini yaxshi tushunar edi. Shuning uchun ham Toshkent haqli ravishda temuriylar davlatining mustahkam qo'rg'oniga, saltanat tayanchiga aylandi.

Toshkent hamma zamonlarda ham mehmondo'st, bag'rikeng shahar bo'lganini uning mashhur 12 darvozasi orqali sharqu g'arb, janubu shimoldan, dunyoning hamma mintaqalaridan savdo karvonlari bu maskanga kirib kelgani, o'z navbatida, Toshkentdan ham jahonning turli o'lkkalariga qarab karvonlar yo'l olgani, shu tariqa bu zaminda sivilizatsiya va madaniyatlarning ajib bir tarzda o'zaro uyg'unlashib ketganini ko'p-ko'p misollarda ko'rish mumkin.

Azal-azaldan Toshkenti azimda barcha millat va elatlarning vakillari rizq-nasiba topib, bir-biri bilan ahil va hamjihat bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib yashab kelganiga ko'hna tarix guvohlik beradi. Bu fikrni Toshkent tuprog'ida qadimdan mavjud bo'lgan Qashqar, Turk ariq, Eron, No'g'oy tepa, Qozoq bozor, Qirg'iz ko'prik, Tojik mahalla kabi mahalla va mavzelarning nomlari ham tasdiqlaydi.

Toshkentning Toshkent deb, ya'ni toshdek mustahkam shahar deb dovruq taratishida bu yerda yashagan aholining asrlar davomida yovlarga qarshi – bu mo'g'ul bosqini yoki arab istilosini bo'ladimi, boshqa mustamlakachi kuchlar bo'ladimi – ularning barchasiga qarshi ko'rsatgan mardona jasorati muhim rol o'ynagani shubhasiz, albatta.

Ayniqsa, keyingi bir yarim asr davomida yurtimiz hayotida qanday ulkan va hal qiluvchi, shu bilan birga, qanday og'ir va iztirobli voqealar yuz bergen bo'lsa, Toshkent hamisha ularning markazida bo'lib kelmoqda.

Bu haqda gapirganda, XIX asrning ikkinchi yarmida chor Rossiysi tomonidan O'rta Osiyoni zabt etishga qaratilgan harakatlarning dastlabki zarbasiga aynan Toshkent duch kelgani va shahar ahli o'z yurtini himoya qilishga butun kuch-quvvatini safarbar qilgani tarix sahifalarida muhrlanib qolganini eslash joiz.

XX asrda butun mamlakatimiz qatori boshiga qanday og'ir musibat va sinovlar tushmasin – bu sho'rolar tuzumining o'rnatilishi bo'ladimi, 20-30-yillardagi dahshatli ocharchilik va qatag'onlar bo'ladimi, urush davrining qiyinchiliklari bo'ladimi, 1966 yildagi kuchli zilzila talafotlari bo'ladimi – bularning barchasini Toshkent sabr-toqat va matonat bilan yengib o'tganini alohida ta'kidlash lozim.

Ayniqsa, Ikkinci jahon urushi yillarida Toshkentning ming-minglab o'g'il-qizlari fashizmga qarshi janglarda mardona ishtirok etdi. Ayni paytda u front hududlaridan ko'chirib keltirilgan necha o'n minglab insonlarni, ota-onasiz qolgan bolalarni “Sen yetim emassan!” deb bag'riga oldi, bir burda nonini ular bilan baham ko'rdi. Toshkent ahli, el-yurtimiz tomonidan ko'rsatilgan insonparvarlik va mehribonlik fazilatlarining yorqin namunasi bo'l mish bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

So'nggi paytda bu muazzam shaharga mansub go'zal ta'riflar qatoriga “Toshkent – islom madaniyati poytaxti” degan yuksak nomning qo'shilgani har qanday murakkab zamonlarda ham o'zining milliy-diniy qadriyatlarini saqlab qolishga erishgan poytaxtimiz, butun xalqimizga berilgan yana bir munosib baho bo'ldi.

Qadrli do'stlar!

Toshkent haqida so'z borganda, shu azim maskanda tug'ilib voyaga yetgan, oila qurib, baxt topganlar bo'ladimi, uzoq-yaqindan kelib, Toshkent bag'rida ta'lim-tarbiya olgan insonlar bo'ladimi, bir so'z bilan, o'zbekona qilib aytganda, kimki Toshkentning suvini ichib, tuzini totgan bo'lsa, barchamizning qalbimizda, tasavvurimizda bu shahar bilan bog'liq voqealar, yorug' kechinmalar, shirin xotiralar jonlanadi. Shu ma'noda, Toshkent yagona Vatanning ifodasi, ajralmas qismi sifatida yurtimizda yashaydigan har qaysi insonning yuragidan umrbod joy olishi shubhasizdir.

Lo'nda qilib aytganda, har birimizning o'z Toshkentimiz bor, desak, buyam har tomonlama to'g'ri bo'ladi.

Albatta, bugungi kunda Toshkent tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketdi. Qadimiylar dahalar, tangu tor, eski ko'chalar o'rnini zamonaviy binolar, go'zal maydon va xiyobonlar, ravon yo'l va ko'priklar, ko'rkar fayvoralar egalladi. Lekin poytaxtimiz qanday o'zgarmas, odam baribir bolaligi, yoshligi, ilk muhabbat kechgan joylarni beixtiyor eslaydi.

Toshkentning fayzli manzaralarini, o'zi uchratgan, mehridan bahramand bo'lgan mahalliy xalq vakillarini, saxovatli, dilkash va donishmand insonlarni, ularning diydorini, suhbatini qo'msaydi, sog'inadi.

Birov Beshyog'och maydonini, kimdir Arpapoya ko'chasini, yana kimdir Ko'kcha dahasini yodga oladi. Yana kimdir talaba do'stlari bilan Anhor sohillarida kechgan beg'ubor damlarini xayolidan o'tkazadi.

Bu shaharda tug'ilib kamol topgan Abdulla Avloniy, Munavvar qori, Abdulla Qodiriy, Oybek, Fafur Fulom, Zulfiya, Mirkarim Osim, Said Ahmad, Obid Sodiqov, Sobir Yunusov, Yahyo Fulomov, Yunus Rajabiy, Shukur Burhonov, O'lmas Umarbekov singari – bu ro'yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin – o'nlab buyuk ilm-fan va madaniyat namoyandalari xalqimizning ijtimoiy tafakkuri, ma'naviy olamini yuksaltirishga beباو hissa qo'shganini barchamiz hamisha minnatdorlik bilan eslaymiz.

Shular qatorida Toshkentda ildiz otib, uning bag'rida o'z iste'dodi va salohiyatini ro'yogga chiqarishga erishgan ming-minglab mashhur vatandoshlarimiz va uzoq-yaqin o'lkalardan kelgan insonlarning hayoti va faoliyati ham bu shahar tarixining uzviy bir qismiga aylanib ketganini yaxshi bilamiz.

Men ham boshqalar qatori ko'hna Toshkentni, uning eski tolzor ko'chalarini, paxsa devorli uylarini, rayhon hidi, tandirdan uzilgan non isi ufurib turadigan fayzli hovlilarni, tramvaylar qo'ng'iroq'i, ularning gulduragan tovushini hali-beri yaxshi eslayman. Eski Jo'va, Chorsu, Xadra maydonlari, Navoiy ko'chasi, sobiq Falaba parki, zilziladan oldingi Chilonzor bog'lari hozir ham ko'z o'ngimda turadi.

Ishonchim komilki, bunday hissiyot va kechinmalar juda ko'p odamlarga xos bo'lib, yurtni sevish, uni jondan aziz ko'rish aynan mana shunday misollar orqali yaqqol namoyon bo'ladi.

Aytish kerakki, Toshkent xalqining hech kimga o'xshamaydigan tabiat, istarasi issiq chehrasi, o'ziga xos betakror shevasi yuragimdan

chuqur joy olgan bo'lib, men bu elning insoniy fazilatlarini yuksak qadrlayman, doimo ularga munosib bo'lishni istayman.

Bugungi kunda Toshkentimizning hayoti butun mamlakatimiz hayoti bilan shunday uzviy bog'lanib ketganki, buning ta'sirini sezmaslik, anglamaslik mumkin emas.

Vatanimizning bepoyon hududini Toshkentda turib, xuddiki tog' cho'qqisidan qaragandek kuzatish, qiyoslash, tasavvur qilish mumkin. Ta'bir joiz bo'lsa, Xudoning o'zi bu muazzam shaharni shunday yuksakka ko'tarib, uning maqomini poytaxt bo'lishga har tomonlama munosib qilib yaratgan, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Toshkentning barcha jabhalarda, ayniqsa, bunyodkorlik va obodonchilik borasida yurtimizdag'i boshqa shaharlarga o'rnik bo'lib, haqiqatan ham, xalqimiz, millatimiz qiyofasini, uning moddiy va ma'naviy qudratini o'zida yorqin mujassam etib kelayotgani bilan har qancha g'ururlansak arziydi.

Avvalambor, Toshkentning markazi va yuragi bo'lган, butun xalqimiz uchun faxr va iftixor timsoliga, qutlug' qadamjoga aylangan Mustaqillik maydonini bir marta ko'rgan inson unga umrbod maftun bo'lib qolishi muqarrar.

Barchamiz qayerda bo'lmaylik, qaysi yurtlarni kezmaylik, doimo Toshkentni sog'inib, unga talpinib, suyanib yashaymiz. Toshkentning tarig'ini yegan chumchuq Makkadan ham qaytib keladi, degan naql bejiz aytilmagan.

Shaxsan men o'z hayotim, rahbarlik faoliyatim davomida jahondagi ko'plab uzoq-yaqin, katta-kichik mamlakatlarni ko'rdim. Mana, yaqinda dunyoning narigi chetida joylashgan, Braziliya deb nom olgan yirik davlatni ham borib ko'rish nasib etdi.

Men bir fikrni ilgari ham aytganman va uni bugun ham takrorlasam, to'g'ri tushunasizlar, deb o'layman. Qayerga bormayin, u o'lka qanday go'zal va betakror bo'lib tuyulmasin, men u yerda ikki-uch kundan ortiq turolmayman. Qandaydir buyuk, balki ilohiy bir kuch meni beixtiyor o'z yurtimizga, Toshkentga tortaveradi.

Bunday hissiyotni faqat men emas, balki juda ko'pchilik yurtdoshlarimiz ham boshidan kechiradi, desam, o'laymanki, adashmagan bo'laman.

Nafaqat yurtimizda, balki chet ellarda ham, men Toshkentda ta'lim olganman, uning suvini ichib, nonini yeganman, men Toshkent maktabini

ko'rganman, deb bu shaharga mehr va hurmat bilan yashayotgan ming-minglab odamlarni uchratganda, albatta, hammamiz iftixor tuyg'usini his etamiz.

Tabiiyki, bugungi yoshlarimizning ham o'z Toshkenti bor. Ular Toshkent deganda, avvalambor, mustaqil Vatanimiz poytaxtini, eng zamонавиј таablarga javob beradigan maktablar, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarini, sport, madaniyat va ma'naviyat maskanlarini tasavvur qiladi.

Toshkent bugungi kunda millionlab farzandlarimizning ezgu intilishlariga qanot beradigan, ularning parvozi uchun yangi-yangi ufqlar ochadigan, tom ma'noda yoshlarning orzusidagi shaharga aylanmoqda.

Bu gaplarning barchasini umumlashtirib, bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, biz Toshkent timsolida O'zbekistonni, O'zbekiston timsolida esa Toshkentni sevamiz va qadrlaymiz.

Barchamizga ayonki, poytaxt ahli, degan iborada juda katta ma'no, juda katta mas'uliyat bor. Mana shunday yuksak sharafni chuqur anglab, unga doimo o'zining amaliy ishlari bilan munosib bo'lib kelayotgan Toshkent xalqi har qanday hurmat-e'tiborga sazovordir.

Men shu yuksak minbarda turib, Toshkentni Toshkent qilgan, uning tuprog'ini ko'ziga to'tiyo etib yashayotgan, ko'pni ko'rgan, fidoyi, oqko'ngil va mehridaryo Toshkent ahliga bosh egib ta'zim qilaman.

Hurmatli yurtdoshlar!

Endi ruxsatingiz bilan menga yuklatilgan sharaflı va quvonchli bir vazifani ado etishga o'tsam.

Sizlarga yaxshi ma'lumki, yurtimizda milliy davlatchilikni shakllantirish, mustaqil huquqiy demokratik davlat barpo etish, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, davlatlararo hamkorlik, xalqlar o'rtasidagi do'stlik munosabatlarini rivojlantirishga qo'shgan katta hissasi, ezgu an'analarni saqlash, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizni yuksaltirish, yosh avlodimizni Vatanga muhabbat, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasidagi ulkan xizmatlari uchun hamda 2200 yillik yubileyi munosabati bilan Toshkent shahri "Mustaqillik" ordeni bilan mukofotlangan edi.

Endi katta mammuniyat bilan Toshkent shahriga ana shu yuksak mukofotni topshirishga ijozat bergaysiz.

Muhtaram Toshkent ahli, qadrdonlarim!

Mana shunday unutilmas lahzalarda sizlarni bugungi qutlug' bayram bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-osoyishtalik va qut-baraka tilab qolaman.

Fursatdan foydalanib, Toshkentning bugungi katta to'yini o'tkazishga munosib hissa qo'shgan nufuzli YUNESKO xalqaro tashkilotiga, bizning quvonchimizga sherik bo'layotgan xorijiy elchixonalar va vakolatxonalar vakillariga, uzoq-yaqindagi barcha do'stlarimiz va hamkorlarimizga chin qalbimdan minnatdorlik bildiraman.

Yurtimizning faxru iftixori bo'lmish azim Toshkent shahrining umri boqiy bo'lsin!

Toshkentdek buyuk shaharlarni yaratgan xalqimiz mangu yashasin, baxtu saodati yanada ziyoda bo'lsin!

Ollohning o'zi barcha ezgu ishlarimizda madadkor bo'lsin!

2009-yil, 1-sentabr

O'ZBEKİSTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

Muhtaram muallim va murabbiylar!

Qadrli ustozlar!

Avvalambor, sizlarni umumxalq bayrami – O'qituvchilar va murabbiylar kuni bilan chin qalbimdan muborakbod etib, barchangizga o'zimning chuqur hurmat va ehtiromimni bildirishdan baxtiyorman.

Bugun siz, azizlarning – ko'z nuri va qalb qo'rini, bor bilim va tajribasini yosh avlod tarbiyasiga bag'ishlab, ma'rifat ziyosini taratib kelayotgan fidoyi insonlarning sha'niga samimiy tilaklarimizni izhor etishni har birimiz uchun ham qarz, ham farz deb bilamiz.

Hurmatli vatandoshlar!

Shu oyning boshida butun xalqimiz barchamiz uchun eng ulug' va eng aziz bo'lgan milliy bayramimizni – Vatanimiz mustaqilligining 18 yilligini katta zavq, g'urur va iftixor bilan nishonladi.

Bundan 18 yil oldin xalqimiz o'z taqdirini o'z qo'liga olib, asrlar davomida orziqib kutgan erkinlik va ozodligini qo'lga kiritib, o'z oldiga hech kimdan kam bo'lmaydigan mustaqil demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish, yurtimizda tinch-osoyishta va farovon hayot barpo etish, xalqaro maydonda munosib o'rin egallash kabi ulug' va ezgu maqsadlarni qo'yib, o'zimizga xos va o'zimizga mos taraqqiyot yo'lini tanlab oldi.

O'tgan yillar mobaynida Vatanimiz erishgan yutuq va marralarni sarhisob qilar ekanmiz, tarixan qisqa bir davrda yurtimizning, shahar va qishloqlarimizning qiyofasi tobora o'zgarib, chehrasi obod bo'layotganini, iqtisodiyotimiz yangi bosqichga ko'tarilib, tez sur'atlar bilan rivojlanayotganini, turmushimiz, hayot tarzimiz yuksalib borayotganini kuzatib, diyorimizda yashayotgan har qaysi inson o'zi va oilasi misolida biz tanlab olgan yo'lning, qanday og'ir va mashaqqatli bo'lmasin, naqadar to'g'ri ekanini kundalik hayotida sezib, uning natijalaridan bahramand bo'lib bormoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, biz o'z maqsadlarimizga erishish uchun oson yo'lni qidirmadik. Turli xil yengil-yelpi maslahat va zug'umlarga berilmasdan, vazminlik va qat'iyat bilan eski tizimdan qolgan asoratlardan

voz kechib, chuqur o‘ylangan siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, biz uchun butunlay yangi jamiyatni buniyod etish yo‘lida astoydil, bir tanu bir jon bo‘lib mehnat qildik.

Avvalambor, o‘z kuchimiz va imkoniyatlarni suyanib, yer osti va yer usti boyliklarimiz, tabiiy zaxiralarimizni xalqimiz va kelajak avlodimiz manfaatlari yo‘lida oqilona ishlatdik. Jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganib, ularning texnika va texnologiyalarini olib kelib, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangitdan qurishga, davlat boshqaruvi, iqtisod va moliya tizimi sohasida hayotning o‘zi talab qilayotgan yangilanish va o‘zgarishlarni amalga oshirishga erishdik.

Muxtasar aytganda, qonunchilik tizimi bo‘ladimi, ijro va sud-huquq tizimining markaziy va hududiy bo‘g‘inlarini shakllantirish bo‘ladimi, yurtimizni himoyalash, sarhadlarimiz daxlsizligini saqlash, xalqimizning osuda hayotini mustahkamlash masalasida davlatni davlat, jamiyatni jamiyat qiladigan, zamonaviy taraqqiyot uchun suv bilan havodek zarur bo‘lgan barcha siyosiy-ijtimoiy tuzilmalarni yaratdik.

Shu borada muhim bir masalaga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Mamlakatimizda barpo etilgan ana shu tuzilmalarning to‘laqonli faoliyat yuritishi, milliy manfaatlarni xizmat qilishi uchun ularni yangicha fikrlaydigan, zamon talablariga javob beradigan yuksak malakali kadrlar bilan ta’minalash, O‘zbekistonning mustaqil davlat bo‘lib shakllanish davrida bizning oldimizda turgan eng og‘ir, eng murakkab, shu bilan birga, eng nozik masala bo‘lganini, o‘ylaymanki, tushunish qiyin emas.

Biz boshlagan ishlarning davomchisi bo‘lgan, jismoniy va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashdek o‘ta muhim va dolzarb vazifa aynan siz azizlarning – ming-minglab maktablarimizda, litsey va kollejlarimizda, oliy o‘quv yurtlarimizda faoliyat ko‘rsatayotgan fidoyi o‘qituvchi va domlalarning zimmasiga tushganini va sizlar bu vazifani butun borlig‘ingizni bag‘ishlab, katta mas’uliyat bilan ado etib kelayotganingizning ahamiyati va mohiyatini bugun vaqt o‘tishi bilan barchamiz tobora chuqur anglab yetmoqdamiz.

Biz istiqlolimizning dastlabki kunlaridanoq yosh avlod tarbiyasiga alohida e’tibor berib, bu masalani davlat siyosati darajasiga ko‘tarib, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy dasturini qabul qilganimiz va hozirgi vaqtda ularni yakuniga yetkazib, bu borada hech narsa bilan o‘lchab, qiyoslab bo‘lmaydigan

mislsiz ishlarni amalga oshirganimiz, hech shubhasiz, Vatanimiz tarixida albatta saqlanib qoladi.

Bu ishlarning miqyosi va ko‘lami, darajasi va mohiyatini o‘zimizga tasavvur qilish uchun ba’zi bir raqamlarni olib kelishni o‘rinli deb bilaman.

Birgina Maktab ta’limini rivojlantirish dasturi doirasida so‘nggi to‘rt yil mobaynida 8 ming 500 ta maktabda qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, yurtimizda 351 ta maktab binosi yangitdan barpo etildi, 2 ming 470 ta maktab binosi va ularning muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi kapital rekonstruksiya qilindi, 3 ming 607 ta maktab kapital, 2 ming 72 ta maktab esa joriy ta’mirdan chiqarildi.

Ayni paytda maktablarimizni zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va o‘quv-uslubiy vositalar bilan jihozlash masalasida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buni fizika, kimyo, biologiya fanlari bo‘yicha laboratoriya xonalarining soni 2004 yilga nisbatan uch barobardan ziyod, sport zallarining soni esa 1,5 barobardan ortiq ko‘paygani ham tasdiqlaydi.

Haqiqatan ham, nihoyatda ulkan, tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu Dasturning ijrosi bo‘yicha qariyb 1,5 trillion so‘m mablag‘ sarflanganini inobatga oladigan bo‘lsak, o‘tgan qisqa davr mobaynida biz bu sohada qanday katta qadam qo‘yanimiz yaqqol ayon bo‘ladi.

Ana shunday ishlarimiz qatorida o‘n ikki yillik uzlusiz ta’lim tizimini joriy etib, voyaga yetgan bolalarimizni hayotga tayyorlash, ularga kasb-hunar o‘rgatish maqsadida biz uchun mutlaqo yangi bo‘lgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar tizimini tashkil qilganimiz mamlakatimizda ushbu soha rivojida alohida yorqin sahifani tashkil etadi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan yurtimizda 1997 yildan boshlab hozirga qadar 2 trillion 368 milliard 730 million so‘m mablag‘ sarflab, 1364 ta kasb-hunar kolleji, 137 ta akademik litsey bunyod etganimiz barcha uzoq va yaqin qo‘shnilarimizning, jahon hamjamiyatining e’tibori va havasini o‘ziga tortayotgani albatta bejiz emas. Zamonaviy yuksak talablarga har tomonlama javob beradigan ana shunday ta’lim maskanlarini bitirib, bugungi kunda ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, boshqaruv, ijtimoiy sohalar va boshqa jabhalarda mehnat qilayotgan, ertangi kunga katta ishonch bilan qarab yashayotgan 1 million

446 ming nafar yoshlarimiz bugungi hayotimizda yuz berayotgan beqiyos o‘zgarishlarning yaqqol dalilidir.

Keyingi yillarda sohada xodimlar mehnatiga haq to‘lash tizimini takomillashtirish, o‘qituvchilar mehnatini munosib rag‘batlantirish maqsadida qabul qilgan qarorlarimiz avvalo pedagoglarning professional malakasini, ularning izlanish va tashabbuskorlik fazilatlarini yuksaltirishga, o‘quv-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Muhtaram do‘stlar!

Mana shunday bayram kunlarida biz mustaqillik yillarda har qanday og‘ir sinov va qiyinchiliklarga qaramasdan, boshlagan islohotlarimizni izchil davom ettirish, yurtimizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishiga erishish yo‘lida qilgan ishlarimizga xolisona baho berar ekanmiz, bir fikrni ta‘kidlab aytishni o‘rinli deb bilaman.

Biz amalga oshirayotgan barcha o‘zgarish va islohotlarning muvaffaqiyatini ta‘minlaydigan, ularga ulkan ta’sir o‘tkazadigan o‘ta muhim bir omil borki, u ham bo‘lsa, shu zaminda yashayotgan odamlarning dunyoqarashi, ongu tafakkuri, siyosiy, huquqiy va ma’naviy saviyasi, ijtimoiy faolligining yuksalishi bilan uzviy va chambarchas bog‘liqdir.

Butun jamiyatimiz hayotini tubdan yangilashning asosiy sharti va garovi bo‘lmish bu masalani o‘z navbatida ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib yechib bo‘lmasligini chuqur anglagan holda, biz hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan bu vazifani ado etish uchun bor kuchg‘ayratimiz, imkoniyat va salohiyatimizni safarbar etmoqdamiz va kelajakda ham bu masala doimiy e’tiborimiz markazida turishi shart.

Bu xulosaning yana bir tasdig‘ini bugun, dunyo miqyosida moliyaviy-iqtisodiy inqiroz chuqurlashib borayotgan bir paytda mamlakatimizda barqaror o‘sish sur‘atlarini saqlab qolishga erishayotganimiz negizida aynan ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirgan ishlarimiz mustahkam poydevor bo‘lib turganini ko‘rish, anglash qiyin emas.

Fursatdan foydalanib, ta’lim sohasining og‘ir, ayni paytda sharaflı yukini o‘z yelkasida ko‘tarib kelayotgan, mening eng yaqin maslakdosh va ko‘makchilarim bo‘lgan siz, aziz muallimlarga xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildirishni o‘z burchim deb hisoblayman.

Sizlarni qutlug‘ bayramingiz bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxtu saodat, xonadonlaringizga tinchlik va farovonlik tilayman.

Hech qachon kam bo‘lmang, umringizdan baraka toping, aziz ustozlar!

*Islom Karimov,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
2009-yil, 30-sentabr*

HAMDO‘STLIKKA A’ZO DAVLATLAR TEMIR YO‘L TRANSPORTI BO‘YICHA KENGASHINING 51-MAJLISI ISHTIROKCHILARIGA

Muhtaram majlis ishtirokchilari!

Qadrli mehmonlar!

Temir yo‘l transporti bo‘yicha Kengashning navbatdagi majlisi qatnashchilarini mehmondo‘st O‘zbekiston zaminida samimiy qutlashdan g‘oyat mammunman.

Buyuk ipak yo‘li o‘tgan mamlakatimiz qadim zamonlardan buyon bepoyon Markaziy Osiyo mintaqasida muhim geostrategik o‘rin egallab kelgan va hozir ham egallab kelmoqda. Bu yerdan azaldan asosiy savdo yo‘llari o‘tgan va kesishgan, turli sivilizatsiyalar o‘rtasida o‘zaro samarali hamkorlik qaror topgan. Sharq va G‘arbni, Janub va Shimolni magistral yo‘llar orqali tutashtirgan O‘zbekiston bugun ham ulkan transport-kommunikatsiya va tranzit salohiyatiga ega.

Hozirgi kunda dunyoda, ayniqsa, mintaqamizda ro‘y berayotgan chuqur va izchil siyosiy-iqtisodiy jarayonlar amaldagi transport yo‘lklaridan oqilonan foydalanish bilan birga, mavjud yirik xalqaro bozorlar va faol shakllanib borayotgan istiqbolli bozorlarni bog‘laydigan yangi, samarali yo‘nalishlarni ochish va o‘zlashtirishni taqozo etmoqda.

Bu uzoq muddatli umumiy manfaatlarimizga mos keladi, boy tabiiy zaxiralar va mineral-xomashyo resurslaridan keng foydalanishni ta’minlashga ko‘maklashadi, shuningdek, davlatlarimizni ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlantirishning kafolati bo‘lib xizmat qiladi va gumanitar hamkorlikni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

O‘zbekiston temir yo‘l tarmog‘ini modernizatsiya qilish bo‘yicha 2013 yilgacha mo‘ljallangan kompleks dastur ana shu vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu dastur poyezdlar parkini yangilash, yo‘llarni qayta tiklash, ixtisoslashtirilgan sanoat korxonalarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga doir birinchi galda bajarilishi lozim bo‘lgan choratadbirlarni o‘z ichiga olgan. Ushbu konsepsiya, shuningdek, biz uchun va butun mintaqqa uchun yangi bo‘lgan tezyurar yo‘lovchi poyezdlar

harakatini yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilgan. Bu temir yo‘l transporti va unga nisbatan odamlarning munosabatini tubdan o‘zgartiradi.

Ishonchim komilki, mamlakatimiz hududida murakkab tabiiy-iqlim sharoitida “Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on” zamonaviy temir yo‘l liniyasi buniyod etilgani, faoliyat ko‘rsatayogan “Navoiy” multimodal logistika markazining rivojlantirilishi, shuningdek, o‘zbekistonlik mutaxassislar tomonidan Transafg‘on transport yo‘lagining “Hayraton – Mozori Sharif” qismining barpo etilishi mintaqalarning transport-kommunikatsiya va tranzit imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Temir yo‘l transporti bo‘yicha Kengash majlisida muhokama qilinadigan masalalar ushbu tuzilmaga a’zo davlatlar vakillari uchun dolzarb bo‘lib, muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalalarning muvaffaqiyatlari hal etilishi, shubhasiz, temir yo‘l tizimini yanada takomillashtirish, davlatlarimiz hayotida muhim o‘rin tutadigan mazkur sohada integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish imkonini beradi.

Barchangizga mustahkam sihat-salomatlik va ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish yo‘lidagi faoliyatingizda muvaffaqiyatlar tilayman.

*Islom Karimov,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
2009-yil, 27-oktabr*

O'ZBEKISTON PAXTAKORLARI VA BARCHA MEHNATKASHLARIGA

Qadrli do'stlar!

Bugun butun yurtimiz, O'zbekistonimiz hayotidagi quvonchli bir voqeal bilan, ya'ni, mamlakatimiz paxtakorlari o'z zimmasiga olgan shartnomalarini muvaffaqiyatli ado etib, katta mehnat g'alabasini qo'lga kiritgani, 3 million 400 ming tonnadan ziyod yuksak xirmon bunyod etishga erishgani bilan barchangizni chin qalbimdan samimiy tabriklayman.

Hammamiz kutgan bu g'alaba avvalambor zahmatkash, ko'pni ko'rgan dehqon va fermerlarimizning, bu yutuqqa munosib hissa qo'shgan mutaxassis va mexanizatorlar, barcha qishloq mehnatkashlarining azmu shijoati va fidokorona mehnatining natijasidir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Albatta, doimo yer bilan tillashib, unga butun borlig'ini berib mehnat qiladigan dehqon uchun qishloq xo'jaligi sohasida oson yilning o'zi bo'lmaydi. Aytish kerakki, 2009 yil mavsumi ham biz uchun ko'p jihatdan murakkab bo'ldi. Avvalo bahor seryog'in kelib, iqlim injiqligi katta qiyinchilik tug'dirgani, sel va do'llar ko'paygani, quyosh haroratining yetishmasligi tufayli dalalarni tayyorlash, chigitni ekish va to'la undirib olish jarayoni, hammamizga ma'lum, qariyb bir oy orqaga surilib ketdi.

Bundan tashqari, namgarchilik yuqori bo'lgani uchun turli kasalliklar, hasharot va zararkunandalar ko'payib, dehqon va fermerlarimiz uchun yana bir jiddiy sinovga aylandi.

Bularning barchasi dehqonlarimizdan har tup g'o'za atrofida parvona bo'lib, ekinga qo'shimcha ishlov berish, agrotexnik tadbirlarni sifatli o'tkazish, bir so'z bilan aytganda, kunni – kun, tunni – tun demasdan, har qachongidan ko'ra ehtiyojkorlik bilan ish tutishni talab etganini tushunish, anglash qiyin emas.

Siz, mohir paxtakorlarimizning maqsad sari ana shunday tinimsiz intilish, har qanday og'ir sharoitda ham ishning ko'zini bilib mehnat qilish, eng muhimmi, o'z kuchingizga bo'lgan ishonch, mustahkam iroda hisobidan

barcha sinovlarni yengib, ulkan g‘alabaga erishganingiz yuksak tahnin va tasannolarga munosibdir.

Hech shubhasiz, bu yilgi mavsumda, mana shunday o‘ta murakkab sharoitda sizlar qo‘lga kiritgan bu yutuq mamlakatimiz paxtachiligi tarixiga alohida yorqin sahifa bo‘lib kiradi, albatta.

Bugungi katta g‘alabaga asos bo‘lgan omillar haqida gapirganda, buning zamirida avvalambor, istiqlol yillarida qishloq xo‘jaligi sohasida uzoqni ko‘zlab amalga oshirayotgan tub islohotlarimiz, otabobolarimizning boy dehqonchilik tajribasi va zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan birga, dehqon va fermerlarimizning mehnatsevarlik, izlanuvchanlik va omilkorlik fazilatlari mujassam ekanini ta’kidlash har tomonlama o‘rinli bo‘ladi, deb o‘yayman.

Eng muhimi, fermerlik harakatini rivojlantirishga, uning istiqbolini o‘ylab, qishloq xo‘jaligi sohasida hal qiluvchi kuchga aylanishi uchun mustahkam qonuniy va tashkiliy-amaliy zamin yaratganimiz, bu harakatning samarasini oshirish yo‘lida keng miqyosda imtiyoz va imkoniyatlar tug‘dirib berganimiz nafaqat bugungi g‘alabaga erishishda, balki qishloq hayotini yangi bosqichga ko‘tarishda g‘oyat muhim omil bo‘lganini, o‘ylaymanki, hech kim inkor etolmaydi.

Bu yilgi mavsum yakunlari haqida gapirar ekanmiz, Andijon, Surxondaryo, Toshkent, Namangan va Farg‘ona viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi mehnatkashlari ishni uyushqoqlik bilan tashkil etib, shartnomaviy majburiyatlarini 25-30 ish kunida ortig‘i bilan ado etishga erishganini mammuniyat bilan qayd etamiz.

Mamlakatimizning ulkan paxta xirmoniga o‘zining salmoqli ulushini qo‘shgan Paxtaobod, Oltinko‘l, Qumqo‘rg‘on, Sherobod, Kasbi, Qiziltepa, Do‘slik, Narpay, Namangan, Quva, Boyovut, Bo‘ka, Ellikqal‘a, Gurlan va Vobkent tumanlari paxtakorlari bu borada boshqalarga o‘rnak bo‘lgani alohida tahsinga sazovor.

Yurtimizdagagi minglab ilg‘or fermer xo‘jaliklari qatorida ayniqlsa Qo‘rg‘ontepa tumanidagi “Oqsuv”, Oltinko‘l tumanidagi “Namuna gulshani”, Bo‘ka tumanidagi “Sarkor”, Chinoz tumanidagi “Muqimiy”, Gurlan tumanidagi “Hayitmat ota”, Ellikqal‘a tumanidagi “Ro‘zimboy”, Navbahor tumanidagi “Muslim Madaminov”, Qamashi tumanidagi “Ashur bobo”, Pop tumanidagi “Ernazar”, Quva tumanidagi “Oltin diyor”, Qumqo‘rg‘on tumanidagi “Guliston” singari fermer xo‘jaliklari

hosildorlikni gektaridan 45-50 sentnerga yetkazgani fermerlik harakatining qanday katta imkoniyatlarga ega ekanini yana bir bor isbotlab bermoqda.

Bu sohada amalga oshirgan ulkan ishlarimiz qatorida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, dehqonlarimizning mashaqqatli mehnatini qadrlash va munosib rag'batlantirish, ularning yerga, mulkka, o'zi yetishtirgan mahsulotga egalik qilish, moddiy manfaatdorlik va mas'uliyat hissini mustahkamlash yo'lida olib borayotgan katta ishlarimiz ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotganini qayd etish zarur.

Ayniqsa, "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlar tufayli nafaqat qishloqlarimiz qiyofasi butunlay o'zgarayotgani, shu bilan birga, dehqonlarimiz, qishloq ahlining ongu tafakkuri, turmush madaniyati yuksalib, ularning ertangi kunga ishonchi, yon-atrofdagi voqeа-hodisalarga daxldorlik tuyg'usi, hayotga faol munosabati kuchayib borayotgani barchamizni quvontiradi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu yil paxtachilikda qo'lga kiritgan natija va marralarimiz o'zining yuksak ko'rsatkichlari, birinchi navbatda, hosildorlik darajasi, tola sifatining o'tgan yillarga qaraganda yuqoriligi bilan e'tiborni tortadi.

Shu sababli bugungi kunda o'zbek paxtasi xalqaro miqyosda tobora xaridorgir bo'lib, respublikamiz jahon paxta bozorining markazlaridan biriga aylanib bormoqda. Buning tasdig'ini besh yildan buyon Toshkent shahrida o'tkazilayotgan, ko'plab nufuzli xorijiy savdo kompaniyalari qatnashib kelayotgan xalqaro paxta yarmarkasida katta hajmdagi shartnomalar imzolanib, bu sohadagi hamkorlik aloqalari yanada kuchayib borayotganida ko'rish mumkin.

O'z-o'zidan ravshanki, iqtisodiyotimizda yetakchi o'rin tutadigan qishloq xo'jaligida yer unumdonligi va samaradorligini oshirish, xususan, katta mehnat, mas'uliyat va safarbarlikni talab qiladigan paxtachilik sohasiga ilg'or tajribalar, zamonaviy yangi texnologiyalarni keng joriy etish hisobidan dehqon va fermerlarimizning daromadlari va farovonligini yanada oshirish, ularni har tomonlama rag'batlantirish, qishloq aholisining hayot darajasi va sifatini yuksaltirish masalalari biz uchun bundan buyon ham ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Aziz do'stlarim, birodarlarim!

Sizlarni bugungi yuksak mehnat g‘alabangiz bilan yana bir bor qutlar ekanman, barchangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-osoyshtalik va fayzu baraka tilayman.

Doimo baxtingiz, omadingizni bersin!

Hech qachon kam bo‘lmang, qadrdonlarim!

*Islom Karimov,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
2009-yil, 31-oktabr*

O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI – BIZ UCHUN DEMOKRATIK TARAQQIYOT YO'LIDA VA FUQAROLIK JAMIYATINI BARPO ETISHDA MUSTAHKAM POYDEVORDIR

Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'rurasini.

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Hurmatli do'stlar!

Shu kunlarda xalqimiz davlatimiz va jamiyatimiz hayotida eng katta, alohida o'rin olgan qutlug' bayramlar qatorida mustaqilligimizning tamal toshini qo'ygan, erkin va obod kelajagimizning poydevorini belgilab bergen Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlamoqda.

Shu munosabat bilan siz, azizlarni, sizlar orqali butun xalqimizni shu buyuk ayyom bilan chin qalbimdan tabriklab, barchangizga o'zimning samimiy tilaklarimni izhor etishga ruxsat bergaysiz.

Muhtaram yurtdoshlar!

Haqiqatan ham, biz bundan 17 yil oldin, ya'ni 1992 yil 8 dekabr kuni mohiyati va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan, tom ma'noda tarixiy hujjatni – hayotimiz qomusi bo'lmish Konstitutsiyamizni qabul qilish bilan o'zini oqlamagan eski tuzumdan butunlay voz kechib, yangi davlat, yangi jamiyat qurish yo'li va imkoniyatlarini ochdik.

Aynan ana shu kundan boshlab yurtimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatni, erkin bozor munosabatlariiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun obod va farovon hayot barpo etish, xalqaro maydonda o'zimizga munosib o'rinni egallashda Asosiy qonunimiz mustahkam zamin bo'lib kelmoqda.

Bugun o'tgan davr mobaynida bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholar ekanmiz, avvalo Konstitutsiyamizning asosiy prinsiplari va qoidalari negizida qabul qilingan qonun va dasturlar bo'yicha davlat qurilishi, ijtimoiy-iqtisodiy qurilish borasida bosqichma-bosqich va

izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarini qayd etishimiz tabiiy, albatta.

Mamlakatimiz erishgan bunday ulkan marralarning barchasini butun dunyo tan olayotganini ko'rib, Asosiy qonunimiz belgilab bergen mustaqil taraqqiyot yo'li naqadar to'g'ri ekaniga takror va takror ishonch hosil qilmoqdamiz.

Hammamizga ma'lum, bu yil Konstitutsiyamiz bayramini nishonlash alohida ma'no-mazmun va ahamiyat kasb etmoqda. Buning sababi shundaki, shu yil 27 dekabr kuni mamlakatimizda parlamentga va joylardagi vakillik organlari bo'lgan mahalliy kengashlarga umumxalq saylovlari bo'lib o'tadi.

Yurtimiz hayotida katta siyosiy voqeа bo'lmish ana shu saylovlarни Konstitutsiyamiz va saylovlar haqidagi tegishli qonunlarimiz talablariga, xalqaro andoza va normalarga to'liq rioya qilgan holda, munosib tarzda o'tkazish maqsadida, mana, keyingi uch oy mobaynida Markaziy saylov komissiyasi rahbarligi va nazoratida keng ko'lami va katta ishlar olib borilmoqda.

Shu o'rinda aytish kerakki, mustaqillik yillarda mamlakatimizda umume'tirof etilgan standartlar va yuksak demokratik talablarga har tomonlama javob beradigan saylov tizimi shakllandi. Bu borada Konstitutsiyamiz va saylov qonunchiligidimizga asoslangan mustahkam huquqiy-me'yoriy zamin yaratildi.

Oxirgi yillarda, mana shu yilning boshida O'zbekiston Respublikasining saylov tizimiga zamон talablari va xalqaro andozalarga mos bo'lgan, avvalo, saylov qonunlarini yanada liberallashtirish va demokratlashtirish maqsadlariga qaratilgan o'zgartirish va yangi normalarning kiritilgani e'tiborga sazovordir.

Ayniqsa, siyosiy partiyalarning roli va ta'sirini kuchaytirish, ularning ishchonchli vakillari sonini ko'paytirish, saylov jarayonida ularga qo'shimcha huquq va vakolatlar berish, umuman, saylovchilarining huquqini kengaytirishni ko'zda tutadigan bu imkoniyatlar saylov tizimini yanada takomillashtirishga katta hissa bo'lib qo'shiladi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Saylov haqidagi qonunchilikka kiritilgan bir qancha o'zgarishlar qatorida bo'lajak saylovlarda fuqarolar ishtirokining ko'lами kengaytirish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining o'rirlari soni 120 tadan 150 taga ko'paytirildi. Va shuning

hisobidan, avvalo, atrof muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yangi tamoyil joriy etildi. Ya'ni, mamlakat parlamentidagi deputatlik o'rirlari soniga O'zbekiston Ekologik harakatidan saylanadigan deputatlar uchun 15 ta o'rinni ajratildi.

Eng muhimmi, saylov qonunchiligidagi Markaziy saylov komissiyasining huquq va vakolatlarini kuchaytirish masalasiga alohida ahamiyat berildi.

Bizning qonunlarimizda qayd etilganidek, saylovga tayyorgarlik va uni o'tkazish jarayoniga hech kimning, avvalambor, markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining aralashishga haqqi yo'q. Bunday holatlarga yo'l qo'yish qonunda qat'iyan man qilingan va bunga qo'l urgan shaxslarga nisbatan chora ko'rish, kerak bo'lsa, ularni tegishli javobgarlikka tortish ham belgilab qo'yilgan.

Ana shu fikrlarni umumlashtirib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda saylov tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan choratadbirlarning barchasi, **avvalambor, saylovlarni ochiqlik, erkinlik va haqqoniylig asosida o'tkazishga qaratilganini qayd etish lozim.**

Bir so'z bilan aytganda, shu yurtda g'urur va iftixor bilan yashayotgan har qaysi inson, o'ylaymanki, navbatdagi saylov barchamiz uchun muhim sinov, ta'bir joiz bo'lsa, jiddiy imtihon ekanini yaxshi tushunadi va anglaydi.

Bo'lg'usi saylovlarga aynan shu ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, bu imtihon birinchi navbatda quyidagi mezon va talablardan iborat bo'lishini o'zimizga tasavvur qilishimizni istardim:

avvalo, bu jarayon so'z erkinligi va tanlash erkinligining hayotimizdagi tasdig'ini sinash demakdir;

ikkinchidan, bu jarayon yurtimizning siyosiy hayotida ko'ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanib borayotganini, har qaysi partiya o'ziga xos, o'ziga mos maqsadlari va harakat dasturi bilan saylov maydoniga chiqishi va saylovchilarning ovozi uchun o'zaro kurash olib borishini anglatadi;

uchinchidan, qonun ustunligi va uning barchaga tengligining namoyishi bo'lib, saylovda qatnashayotgan siyosiy partiyalar va har qaysi nomzodning siyosiy qarashlari va e'tiqodidan qat'i nazar, ularning hammasiga teng imkoniyat va sharoit tug'dirib berishni bildiradi;

to'rtinchidan, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining saviyasi va yetuklik darajasini ko'rsatadi;

va nihoyat, **beshinchidan**, bu saylovlar aholimizning siyosiy-ijtimoiy saviyasi va madaniyati, fuqarolik ongini imtihondan o'tkazadi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Bir o'ylab ko'raylik, ana shunday murakkab va mas'uliyatlari siyosiy sinovdan o'tishga, bu saylov jarayonlarini rivojlangan demokratik davlatlarda amal qilayotgan saylov tizimi darajasida o'tkazishga biz qanchalik tayyormiz?

Nafaqat saylovnin tashkil etishga bevosita mas'ul bo'lgan Markaziy saylov komissiyasi va uning joylardagi tuzilmalari, siyosiy partiyalari faollari va ijtimoiy harakatlar, nodavlat tashkilotlar, keng jamoatchiligidimiz, balki bugun ovoz berishga tayyorgarlik ko'rayotgan har bir fuqaro, har bir saylovchi bu savolni o'ziga berishi albatta o'rinali va ayni muddao bo'lur edi.

Chunki, yuqorida tilga olingan va biz amalga oshirishimiz zarur bo'lgan o'ta muhim omillar demokratik asosda rivojlanib borayotgan har qanday jamiyatning yetuklik darajasini aks ettiradi.

Bu talablarga amal qilish – bu shunchaki bir maqsad emas, avvalambor erkin va ozod yashash, har tomonlama farovon hayat qurish dasturining o'zagini tashkil qilib, yuksak taraqqiyotga erishishning hal qiluvchi uzviy qismi va asosiy yo'li ekanini, o'ylaymanki, hammamiz tobora anglab bormoqdamiz.

Aytish kerakki, biz bu yo'lni kimgadir ko'z-ko'z qilish, kimningdir oldida namoyish etish uchun tanlaganimiz yo'q.

Bu yo'l qanday og'ir va murakkab bo'lmasin, takror-takror aytaman, bizning milliy manfaatlarimizga, asrlar davomida intilib kelgan orzu-niyatlarimizga to'la javob beradigan taraqqiyot yo'lidir.

Shu bilan birga, barchamiz yana bir haqiqatni chuqur tushunamiz – biz ko'zlagan marralarga erishish, ham siyosiy, ham iqtisodiy nuqtai nazardan o'zimiz istagan, taraqqiy topgan davlatlar qatoriga chiqish uchun hali qiladigan ishlarimiz juda ko'p.

Bu borada eng asosiy masala – amalga oshirgan ishlarimizga tanqidiy baho berish, manmanlikka berilmaslik, xalqaro tajriba va o'zgalarning yutuqlariga bepisand qaramaslik, hayatimizda bu yo'naliishda hali-beri uchraydigan g'ov va to'siqlarni bartaraf etishdan iborat. Bu o'tkir haqiqatni avvalo o'zimiz anglashimiz va amaliy xulosalar chiqarishimiz ijtimoiy-siyosiy hayatimizda g'oyat muhim o'rinni tutadi.

Shu fursatdan foydalanib, oldimizda turgan, mamlakatimiz hayotida, haqiqatan ham katta bir siyosiy voqeа bo‘lmish saylovlarni munosib o‘tkazish maqsadida ba’zi bir dolzarb masalalarga yana bir bor to‘xtalib o‘tishni joiz, deb bilaman.

Birinchidan, Konstitutsiyamiz va shu asosda qabul qilingan, Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga saylovlar haqidagi qonunlarga, shu bilan birga, Markaziy saylov komissiyasi va uning joylardagi tuzilmalari tomonidan belgilab berilgan qoida va normalarga rioya qilish, ularni so‘zsiz bajarish barchamizning, har qaysi saylovchining asosiy burchi bo‘lishini xohlardim.

Ayniqsa, ba’zi bir saylovchilarimizga mayda yoki ortiqcha bo‘lib tuyuladigan, umume’tirof etilgan saylov qoidalariga mos kelmaydigan ayrim holatlar bo‘yicha kuzatuvchilar tomonidan – bular xalqaro tashkilotlar yoki o‘zimizning ijtimoiy-nodavlat tashkilotlar vakillari bo‘ladimi – bildiriladigan e’tirozlarga hurmat bilan qarash, ularning fikrlariga e’tibor berish, qanday rasmiyatichilik bo‘lib ko‘rinmasin, bu talablarni albatta bajo keltirishimiz kerak.

Eng muhimi, chetdan turib saylov jarayonlariga aralashish, ularga ta’sir o‘tkazishga urinish kabi nojo‘ya harakatlar butunlay man etilishini barcha saylov ishtirokchilari, kim bo‘lishidan qat’i nazar, chuqur anglab olishlari darkor.

Ikkinchidan, yana bir bor aytib o‘tishga to‘g‘ri keladi – qonun barchaga teng. Binobarin, barcha partiyalar va ularning nomzodlari uchun saylovoldi jarayonlarida, matbuot, televide niye orqali va saylovchilar bilan bo‘ladigan muloqot va uchrashuvlarda, ular olib borayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlarida teng va bir xil sharoit tug‘dirib berish, ularning huquq va intilishlariga bir ko‘z bilan qarash, hech kimni ajratmaslik, aytish kerakki, ayni shu masalalar saylovni yuksak saviyada o‘tkazishda eng katta va muhim o‘rin tutadi.

Bu masalalar uchun mas’ul bo‘lgan tashkilotlar tomonidan hech qanday istisno yoki kimgadir alohida e’tibor berish holatlariga aslo yo‘l qo‘yilmasligi shart.

Uchinchidan, aslida saylov degani – bu avvalo o‘z huquqini anglagan holda, erkin tanlash va ongli ovoz berish demakdir.

Shu bilan birga, saylovda qatnashish har birimizdan nafaqat Konstitutsiyamiz kafolatlab bergen ovoz berish huquqini bajo keltirishni,

balki fuqarolik burchimizni chuqur anglash va bu masalaga katta mas'uliyat bilan qarashni ham talab qiladi.

Nega deganda, har bir fuqaro o'zi saylaydigan nomzod – u ertaga mahalliy kengashlarga yoki Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga a'zo bo'ladimi – deputatlik mandatiga ega bo'lganidan so'ng unga bildirilgan yuksak ishonchni oqlash maqsadida mamlakatimiz, yurtimiz ravnaqi uchun, xalqimizning hayoti yanada obod va farovon bo'lishi uchun qanday hissa qo'shishini har qaysi saylovchi o'ziga aniq tasavvur qilishi, ya'ni, ovoz berishda adashmasligi lozim.

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, bugun biz, haqiqatan ham, Vatanimizning ertangi kunini hal qiladigan, katta siyosiy jarayon arafasida turibmiz.

O'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsad-muddaolarimizga yetishda, hech shubhasiz, alohida muhim bosqich bo'ladigan bu jarayon yurtimizda yashayotgan barcha-barcha insonlarga bevosita daxldor bo'lib, hech kim undan chetda qolishi mumkin emas.

Bugun mana shu zalda o'tirgan siz, azizlarning yuzlaringizga qarab, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni o'zimga tasavvur qilib aytmoqchiman: biz navbatdagi saylovnı munosib darajada o'tkazib, xalqaro maydonda o'zimizning siyosiy yetukligimizni yana bir bor namoyon etishga albatta qodirmiz. Chunki bizning O'zbekistonimiz, bizning jamiyatimiz kechagi davlat, kechagi jamiyat emas – ta'bir joiz bo'lsa, ularning o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor.

Eng muhimi, bugun odamlarimizning dunyoqarashi, ongu shuuri va tafakkuri, hayotga va mehnatga munosabati, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik tuyg'usi, o'z Vatanidan g'urur va iftixori, kelajakka ishonchi kundan-kunga tobora oshib borayotganini **ko'rmaslik, sezmaslik, anglamaslik mumkin emas.**

Ishonchim komilki, ko'pni ko'rgan, el-yurt taqdiriga mas'uliyat bilan yondashadigan xalqimiz bu siyosiy jarayonning naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanini chuqur anglagan holda, saylovda avvalo faol ishtirok etadi va o'zining, oilasining ezgu orzu-maqsadlarini ro'yobga chiqarish, yurtimizning tinchligi, Vatanimizning taraqqiyoti uchun ovoz beradi.

Aziz do'stlar!

Ma'lumki, bundan bir yil muqaddam sizlar bilan maslahatlashib, 2009 yilga yurtimizda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" deb nom bergen edik. Va shu asosda mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab e'tiborimiz

markazida bo‘lib kelayotgan ustuvor masala, ya’ni qishloqlarimiz qiyofasini o‘zgartirish, agrosanoat majmuida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, qishloq aholisining hayot darajasi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy saviyasini oshirish maqsadida maxsus davlat dasturi qabul qilganimizdan ham xabaringiz bor.

“Qishloq taraqqiy topsa, yurtimiz obod, hayotimiz yanada farovon bo‘ladi” degan g‘oyani o‘zida mujassam etgan bu dasturning ma’no-mohiyati, eng muhim yo‘nalishlari va moliyaviy manbalari nafaqat 2009 yil uchun, balki o‘rta va uzoq muddatli istiqbol uchun belgilanib, uning ijrosi qat’iy nazoratga olindi.

Men ushbu dasturning o‘ta keng qamrovli miqyosini inobatga olgan holda, faqatgina uni amalga oshirish yo‘lida qo‘yilgan birinchi qadamlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Bu haqda gapirganda, avvalambor, qishloq ahlining manfaatlarini yanada to‘liq ta’minlash, ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor berilganini qayd etish lozim.

Qishloq hayotini obod etishda ularning qiyofasini o‘zgartirish, bugun qishloq joylarda yashayotgan odamlarning turmush sharoitini zamon talablariga moslashtirish, kerak bo‘lsa, uni shahar sharoitiga yaqinlashtirish g‘oyat muhim o‘rin tutadi, desam, o‘ylaymanki, yanglishmagan bo‘laman.

Shu maqsadda 2009 yil yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloqlarimizning zamonaviy arxitektura nuqtai nazaridan rejalshtirilishi, qishloq joylarda uy-joy va ijtimoiy obyektlar qurilishini loyihalashtirish va bunyod etish tizimini takomillashtirish, «Qishloqqurilishloyiha» institutini tashkil etish bo‘yicha qarorlari qabul qilindi.

Aytish kerakki, mazkur institut tomonidan hozirga qadar 2 xonadan 5 xonagacha bo‘lgan zamonaviy uy-joylar, maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlarining namunaviy loyihalari ishlab chiqildi.

Bu ishga respublikamizdagi ko‘zga ko‘ringan, yuqori malakali mutaxassislar jalb etilib, yakka tartibdagi uy-joylar qurilishi bo‘yicha 22 ta, ijtimoiy obyektlar bo‘yicha esa 16 ta namunaviy loyiha tasdiqlanib, qurilishga tavsiya qilindi.

Mazkur loyihalarni amalga oshirish bilan bog‘liq tayyorgarlik va qurilish ishlarini bajarish maqsadida tashkil etilgan “Qishloq qurilish

invest” injiniring kompaniyasi bugungi kunda markazda va joylarda faoliyat olib bormoqda.

Joriy yilning sentabr oyida poytaxtimizdagi «O’zekspomarkaz»da bo‘lib o‘tgan va hozirgi vaqtida viloyat markazlarida o‘tkazilayotgan ko‘rgazmalarda bu loyihalar keng jamoatchiligidan namoyish etilmoqda va xalqimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olinmoqda.

Bu loyihalarni amalga oshirish uchun katta miqdordagi zarur mablag‘larni jalb etish maqsadida alohida qaror bilan «Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik-tijorat banki tashkil etilib, ayni paytda ko‘pchilik mijozlar uning xizmatidan foydalanmoqda.

Shuni aytish kerakki, qishloq joylarda qurilish ishlarini olib borish uchun joriy yilning o‘zida mazkur bank orqali qariyb 60 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirildi.

Kelgusi yilda esa ana shu maqsadlar uchun qo‘sishimcha ravishda yana salkam 530 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, buning 256 milliard so‘mdan ziyodi davlat tomonidan beriladigan mablag‘dir.

Bunday keng ko‘lamli ishlarni bajarish uchun hozirga qadar mamlakatimizda 670 ta ixtisoslashtirilgan qurilish-ta’mirlash tashkiloti tuzildi va ular yuqori malaka va tajribaga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlar bilan ta’minlandi.

Ana shunday har tomonlama puxta o‘ylangan reja asosida joriy yilning o‘zida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda 42 ta yer massivi ajratilib, qishloq hududlarida eksperiment tariqasida 840 ta yakka tartibdagi uy-joy barpo etilmoqda va ularni 2010 yilning mart-aprel oylarida foydalanishga topshirish mo‘ljallanmoqda.

Ta’kidlash lozimki, bu uylar avvalo ishlab chiqilgan namunaviy loyihalarni amalda sinash, ertaga shu uylarda yashaydigan odamlarning taklif va istaklarini har tomonlama o‘rganish va bajo keltirish uchun tegishli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Bu qurilishlarda ana shu uy-joylarning bo‘lg‘usi egalari ham o‘z mablag‘lari bilan ishtiroy etmoqda. Eng muhim jihat shundaki, qurilish sarf-xarajatlarining aksariyat qismi aholiga “Qishloq qurilish bank” tomonidan beriladigan uzoq muddatli imtiyozli kredit hisobidan qoplanadi.

Ayni shu holat, ya’ni, bu uylar uchun sarflangan mablag‘ni birdaniga emas, balki 15 yil davomida asta-sekin, bosqichma-bosqich to‘lash tartibi xalqimizga katta imtiyoz va yengilliklar beradi.

Bu boradagi ishlarimiz 2010 yilda yanada keng ko‘lamda davom ettilib, mamlakatimizning 159 ta, ya’ni barcha qishloq tumanlarida 7 ming 630 ta yangi uy-joy barpo etiladi. Nasib etsa, ularni kelgusi yilning avgust-sentabr oylarida o‘z egalariga topshiramiz, albatta.

Alohiba diqqatga sazovor tomoni shundaki, bu boradagi rejalarimizda nafaqat shinam va obod uylar qurish, ayni paytda bolalar bog‘chalari, umumta’lim va musiqa maktablari, sport inshootlari, tibbiyot muassasalari, maishiy xizmat obyektlari, ravon yo‘llar, bir so‘z bilan aytganda, qishloq ahlining har tomonlama munosib va qulay hayot kechirishi uchun zarur barcha sharoitlarni o‘z ichiga oladigan zamonaviy turar-joy mavzelarini kompleks barpo etish aniq belgilab berilgan.

O‘tgan davr mobaynida bu yo‘nalishda eng muhim masalalardan biri bo‘lgan qurilish materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha ham ancha ishlar qilindi.

Bu haqda gapirganda, avvalo qurilish materiallari ishlab chiqaradigan 31 ta ishlab chiqarish quvvati, jumladan, 2 million kvadrat metr zamonaviy tom yopish materiallari ishlab chiqaradigan 6 ta korxona, shuningdek, gips, alebastr, gipsokarton kabi qurilish va pardozlash materiallari, yig‘ma konstruksiyalar tayyorlaydigan yangi korxonalar foydalanishga topshirilganini qayd etish lozim. Shular qatorida yiliga 81 million dona g‘isht ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan 12 ta yangi zavod ishga tushirildi.

Ta’kidlash kerakki, yangitdan barpo etilgan bu korxonalarda tayyorlanadigan qurilish materiallari, xususan, g‘isht narxini pasaytirish maqsadida ularga har tomonlama imtiyoz va sharoitlar tug‘dirib berilmoqda.

Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish haqida so‘z borganda, bu sohada eng dolzarb masalalardan biri bo‘lmish qishloq joylarda yangi yo‘llar qurish va mavjudlarini kengaytirish uchun qariyb 100 milliard so‘m mablag‘ sarflangani, transport qatnovini yaxshilash maqsadida ko‘plab yangi yo‘nalishlar ochilib, ular Samarqandda ishlab chiqarilgan zamonaviy avtobuslar bilan ta’minlanganini aytish lozim.

Ayni paytda qishloqlarimizni energetika resurslari bilan uzluksiz va kafolatli ta’minalash uchun yil davomida 16 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ hisobidan uzunligi 2 ming 700 kilometrdan ziyod elektr tarmoqlari, 300 kilometrdan ko‘proq tabiiy gaz quvurlari rekonstruksiya qilindi va kapital ta’mirlandi.

Aziz do'stlar!

Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish, sohaning moddiy- texnik bazasini mustahkamlash, eng muhimi, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini yuksaltirish, yurtimizni obod etish yo'lida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan fermerlik harakatining samarasini yanada oshirish maqsadida qilinayotgan ishlardan, o'ylaymanki, barchangiz xabardorsiz.

Bu haqda gapiргanda, "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" dasturi doirasida rizq-ro'zimiz manbai bo'lgan yer unumdorligini oshirish, uning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha ham salmoqli natijalarga erishilgani xususida to'xtalishimiz tabiiy, albatta.

Shular qatorida 81 milliard so'm mablag' sarflanib, 10 ming kilometrdan ortiq zovurlar, salkam 1000 kilometrlik drenaj tarmoqlarini ta'mirlash va tiklash ishlari bajarildi, ko'plab suv inshootlari rekonstruksiya qilindi, 50 kilometr uzunlikdagi yangi kanallar va boshqa obyektlar qurilishi yakuniga yetkazildi.

Bu raqamlar ortida qanday o'ta og'ir va mashaqqatli mehnat yotgani, ularning zamirida yuz minglab dehqon va mexanizatorlarimizning fidokorona xizmati borligini, eng muhimi, ana shunday mehnatlar evaziga hosilimizga qo'shimcha yana qancha hosil qo'shilayotganini inobatga oladigan, bularning barchasini o'zimizga tasavvur etadigan bo'lsak, takror aytaman, bunday g'oyat og'ir ishni bajargan mehnatchilarimizga har qancha tasannolar aystsak, arziydi, albatta.

Shuni minnatdorlik bilan ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda ushbu yo'nalishdagi ulkan loyihalarni amalga oshirishda Osiyo taraqqiyot banki va Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Koreya va bir qator arab mamlakatlarining moliya institutlari tomonidan ajratilgan sarmoyalar katta hissa bo'lib qo'shildi.

Yil davomida amalga oshirilgan ishlar haqida so'z yuritganda, qishloq joylarda tobora rivojlanib borayotgan xizmat ko'rsatish shoxobchalarini va muassasalarining faoliyati, servis xizmati xususida kengroq to'xtalib o'tmoqchiman.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda qishloqlarimizda an'anaviy maishiy xizmatlar bilan bir qatorda zamonaviy telekommunikatsiya tizimlari, xususan, internet, uyalı aloqa, ya'ni mobil telefon aloqasi, kompyuterda turli xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga oladigan yangi servis shoxobchalarini jadal rivojlanmoqda.

Bugungi kunda qishloq joylarda uyali aloqa xizmati abonentlari soni 5 millionga yetgani, bu esa mamlakatimiz bo'yicha umumiyo ko'rsatkichning 30 foizini tashkil etayotgani va ushbu raqam tez sur'atlar bilan o'sib borayotgani ham shundan dalolat beradi.

Shu bilan birga, qishloq hududlarida yangi texnologiyalar asosida kommunal xizmatlar uchun ekspress to'lovlarini qabul qiladigan 3 mingta shoxobcha tashkil etildi.

Ayniqsa, joriy yilda 4 ming 200 ta qishloq maktabi, takror aytaman, faqatgina qishloqda joylashgan maktablar internet tarmog'iga ulangani bu sohada amalga oshirgan jiddiy ishlarimiz qatoriga kiradi.

Aziz do'stlar, o'zimiz bir o'ylab ko'raylik, hozirgi kunda aynan mana shunday kommunikatsiya xizmatlaridan foydalanib, eng olis qishloqda yashayotgan odamlar ham – u fermer yoki tadbirkor bo'ladimi, hunarmand yoki o'qituvchi bo'ladimi – dunyoning istalgan chekkasi bilan bog'lanish, muloqot qilish, turli xizmatlardan foydalanish imkoniga ega bo'lishini bundan besh-olti yil oldin faraz qilish mumkinmidi?

Eng asosiysi, bunday xizmat turlari aholi ehtiyojini qondiribgina qolmasdan, ayni paytda qishloq joylardagi litsey va kollejlarni bitirgan minglab farzandlarimizni ish bilan ta'minlash, ularning mana shunday zamonaviy kasb egasi bo'lishiga imkon yaratayotgani, o'zingiz aytинг, bugun unib-o'sib, hayotga kirayotgan yoshlarimizning kelajagini, istiqbolini belgilab bermaydimi?

Birgina joriy yilning o'zida faqat qishloq joylarda 460 mingta, jumladan, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish hisobidan qariyb 380 mingta yangi ish o'rni ochilib, ularda asosan ana shunday o'g'il-qizlarimiz faoliyat ko'rsatayotgani barchamizni quvontiradi, albatta.

Qishloqda turmush madaniyati va sifatini oshirish haqida gapirganda, eng o'tkir va dolzarb yana bir masalaning yechimi to'g'risida doimo o'ylashimiz tabiiydir. U ham bo'lsa, biz uchun bebahoh boylik bo'lgan inson salomatligini asrash, onalik va bolalik muhofazasi, sog'lom avlod tarbiyasi, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, aholining tibbiy madaniyatini oshirish bilan bog'liq bo'lib, bu borada ham ancha ishlar qilindi.

Misol tariqasida barcha qishloq tumanlarining markaziy shifoxonalari umumiyo qiymati 12 million dollar bo'lgan tibbiy anjomlar, 44 ta "Uaz" sanitariya mashinasi, 280 ta «Damas-ambulans» tez yordam mashinasi bilan ta'minlangani, qishloq vrachlik punktlariga 1 million dollar

miqdorida tibbiy laboratoriya anjomlari yetkazib berilganini aytish o‘rinli bo‘ladi.

Eng muhimi, yil davomida 3 million 750 ming nafar qishloq aholisi malakali tibbiy ko‘rikdan, 22 ming nafardan ziyod homilador ayol maxsus skrining tekshiruvidan o‘tkazilgani, 400 ming nafar bemor shifoxonalarda davolanib, o‘z salomatligini mustahkamlaganini qayd etish kerak.

Qadrli do‘stlar!

Ijozatingiz bilan, “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturidan o‘rin olgan yana bir ustuvor yo‘nalish haqida atroflicha to‘xtalib o‘tishni zarur, deb bilaman.

Bugungi kunda hayotimizda tom ma’noda tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan, dunyo jamoatchiligi haqli ravishda e’tirof etayotgan ta’lim-tarbiya sohasidagi keng ko‘lamli islohotlarimiz qanday katta natijalar berayotgani haqida har qancha faxrlanib, g‘ururlanib gapirsak arziydi, albatta.

Haqiqatan ham, bundan 12 yil oldin boshlangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va 2004 yilda uning tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan Maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi ijtimoiy hayotimizda tub burilish yasadi.

Bu dasturlar doirasida yurtimizda ming-minglab litsey va kollejlar, maktablar qurish va ularni rekonstruksiya qilish, eng yuksak talablar asosida jihozlashdek keng ko‘lamli vazifani qo‘yganimizda, bu ishlarning qanday ulkan, aytish mumkinki, beqiyos maqsadlarni ko‘zda tutishini kamdan-kam odam o‘ziga tasavvur qilardi.

Bugun mammuniyat bilan ta’kidlash kerakki, biz qanday qiyin va og‘ir bo‘lmasisin, bu dasturlarni qat’iyat bilan amalga oshirib, bunday bilim maskanlarini nafaqat shaharlarimizda, balki olis qishloq va ovullarimizda ham yagona namunaviy loyiha va mezonlar asosida bunyod etishga erishdik.

Buning natijasida barcha yoshlарimiz qatori qishloq bolalarining zamonaviy bilim va kasb-hunarlargacha ega bo‘lishi, eng muhimi, ularning mamlakatimizdagi oliy o‘quv yurtlariga kirib ta’lim olishiga munosib sharoit tug‘dirib berish uchun ana shu ikkita dastur qanday mustahkam zamin yaratganini bugun vaqt o‘tib, barchamiz tushunib yetmoqdamiz.

O‘tgan davr mobaynida ana shu litsey va kollejlarni 1 million 446 mingdan ziyod farzandlarimiz, jumladan, 1 million 55 ming nafardan ortiq qishloq yoshlari bitirib, bugungi kunda ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, boshqaruv va ijtimoiy sohalarda, barcha jabhalarda mehnat

qilayotgani bizning shu yo'lda erishgan eng katta yutug'imiz bo'ldi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Bir o'ylab ko'raylik, bundan o'n-o'n besh yil oldin mакtablarimiz, umuman, ta'lim muassasalarimiz qay ahvolda edi?

O'sha paytda ularning bugungidek eng zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunlari, kompyuter texnikasi, darsliklar va o'quv-uslubiy vositalar bilan jihozlanishini, sport infratuzilmasiga ega bo'lishi, mакtab hayotiga internet tizimi keng kirib borishini kim faraz qila olar edi?

Ayniqsa, birgina joriy yilning o'zida shu boradagi ishlarimiz yangi bosqichga ko'tarilib, **yurtimiz bo'yicha jami 1 ming 957 ta maktab qurilgan** va rekonstruksiya qilingan bo'lsa, ularning 1 ming 622 tasi aynan qishloq joylarda ekani diqqatga sazovordir. Shular qatorida **2009 yilda barpo etilgan 214 ta akademik litsey va kasb-hunar kollejining 170 tasi qishloq tumanlarimizda bunyod etilgani** va **rekonstruksiya qilinganini ta'kidlash lozim.**

Aynan qishloq joylardagi ana shu bilim dargohlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlash uchun jami 895 milliard so'm mablag' sarflangani, aytish kerakki, mamlakatimiz tarixida ilgari hech qachon ko'rilmagan hodisadir.

Muhtaram do'stlar, men joylarda bo'lib, odamlar bilan, fermer va dehqonlar bilan uchrashganimda, qishloq hayotida bo'layotgan o'zgarishlar haqida, paxta, g'alla haqida gaplashamiz, bular albatta kerak. Lekin, e'tibor bergen bo'lsangiz, bunday muloqtlarda yoshu qari o'z qishlog'i yoki tumanida qurilayotgan mакtab, litsey va kollejlar qishloq hayotini tubdan o'zgartirib yuborgani haqida to'xtalib, gapni avvalambor shundan boshlaydi.

Men yurtdoshlarimizning bunday to'lqinlanib, quvonib gapirishini tabiiy deb o'layman. Chunki xalqimizning qonida, tabiatida bo'lган ezgu fazilatga ko'ra odamlarimiz ko'proq o'zini emas, balki farzandlarini, ularning kelajagini, baxtu saodatini o'ylab yashaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, biz tanlagan taraqqiyot yo'lining tarkibiy qismiga, aniqroq aytadigan bo'lsak, kelajagimizning mustahкам poydevoriga aylanib borayotgan **ta'lim sohasidagi buyuk dasturlarimizni o'z vaqtida, uzoqni ko'zlab ishlab chiqqanimiz va amalga oshirganimiz naqadar to'g'ri bo'lganini bugun mamlakatimiz erishgan yuksak marra va natijalar yaqqol namoyon etmoqda.**

Shular haqida gapirar ekanmiz, joriy yilda o‘zining amaliy yo‘lini boshlagan “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” dasturi ham teran ma’no-mazmuni va maqsadlariga ko‘ra yuqorida tilga olingan dasturlar bilan chambarchas va uzviy bog‘lanib ketganini ta’kidlash lozim.

Eng muhimmi, bu dasturlar bir-birini to‘ldirib, bir-biriga zamin tug‘dirib berayotgan, bir-birining mantiqiy davomi bo‘lib, davlatimiz va jamiyatimiz rivojiga beqiyos hissa qo‘shayotgan hujjatlar, desak, yanglismagan bo‘lamiz.

Shu ma’noda, “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” dasturi o‘z ko‘lami, ahamiyati va mohiyati bilan bugungi kunimiz va ertangi kelajagimizning nafaqat moddiy tomonlarini, ayni paytda, madaniy va ma’naviy saviyamizni oshirish, muxtasar aytganda, butun hayotimizni yuksaltirishga qaratilgan bo‘lib, hech shubhasiz, mamlakatimiz tarixida munosib o‘rin egallashi muqarrar.

Buning tasdig‘i va isboti sifatida – shunga alohida e’tibor berish zarur – faqatgina shu yilning o‘zida bu dasturni amalga oshirish uchun barcha manbalar hisobidan 2 trillion 612 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ sarflanganining o‘zi, o‘ylaymanki, ko‘p narsadan dalolat beradi.

Ishonamanki, kirib kelayotgan 2010 yilda bu maqsadlarga sarflanadigan mablag‘lar o‘tgan yilga nisbatan kam bo‘lmaydi, inshoollo.

Shu fursatdan foydalanib, mana shunday ulug‘, qiyosi va o‘lchovi bo‘limgan olidianob ishlarga o‘z hissasini qo‘shayotgan yurtimizdag‘i davlat va nodavlat tashkilotlarga, fermerlik va tadbirkorlik subyektlariga, xorijiy davlatlar va jamg‘armalar, xalqaro tuzilmalarga, mana shu zalda o‘tirgan chet mamlakatlarning elchi va vakillariga, shu yo‘lda xolis xizmat qilgan barcha-barcha insonlarga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan samimiyy tashakkur bildirishga ijozat bergaysiz.

Qadrli vatandoshlar!

Endi, siz, azizlar bilan kirib kelayotgan yangi 2010 yil haqida, unga qanday nom berish, boshqacha aytganda, el-yurtimizning ezgu intilishlariga javob beradigan ustuvor maqsadlar xususida fikr almashib, ularni o‘zimiz uchun aniq belgilab olsak, ayni muddao bo‘lardi.

Shu haqda o‘ylaganda, biz birinchi navbatda davlatimiz va jamiyatimiz taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, keng qamrovli maqsadlarni amalga oshirishda hal qiluvchi o‘rin tutadigan reja va vazifalarni hisobga olishimiz zarur.

Yangi yilga oldimizda turgan eng dolzARB maqsadlarni ko‘zlab nom berishning yana bir boisi shundan iboratki, shu tariqa biz yurtimizdagI barcha davlat va nodavlat tashkilotlar, xo‘jalik va korxonalar, tijorat tuzilmalarining kuch va imkoniyatlarini qo‘yilgan vazifani bajarish yo‘lida safarbar etishni nazarda tutamiz.

O‘ylaymanki, agar bu masalaning tub mohiyatini, xalqimizning orzu niyatlariga hamohang bo‘lgan ahamiyatini o‘zimizga tasavvur qiladigan bo‘lsak, uning naqadar muhim va shu bilan birga, naqadar murakkab ekani ayon bo‘ladi.

Bu masala ustida juda ko‘p o‘ylab, fikrlashib, ko‘pchilikning taklif va mulohazalarini inobatga olib, men kirib kelayotgan 2010 yilga yurtimizda **“Barkamol avlod yili” deb nom berishni taklif etmoqchiman.**

Yangi yilga aynan shunday nom berishning sabablarini isbotlab berish, o‘ylaymanki, qiyin emas.

Avvalo, biz, ya’ni xalqimiz va davlatimiz, har qaysi inson nimaniki o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan bo‘lmaylik, qanday buyuk ishlarni amalga oshirishga intilmaylik, barcha oljanob harakatlarimizning negizida nima turadi?

Bu savolga hammamiz, tabiiyki, barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan sog‘lom qilib o‘stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko‘rish, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi, deb javob beramiz.

Haqiqatan ham, hayotimizning ma’no-mazmuni shunda emasmi?

Aynan mana shunday har tomonlama yetuk avlodgina bugun hayot oldimizga qo‘yayotgan o‘ta murakkab, og‘ir sinov va qiyinchiliklarni yengish, biz ko‘zlagan yuksak marralarni egallashning eng asosiy sharti ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz, albatta.

Kelinglar, shu masala ustida atroficha bir fikr yuritib ko‘raylik.

Agar biz o‘z vaqtida uzoqni ko‘zlab ertaga hayotga kirib kelayotgan yoshlarimizning chuqr bilim va kasb-hunar egallashi uchun zamin yaratmasak, ularni zamon talab qiladigan mutaxassis kadrlar etib tayyorlamasak, bugungi kunda butun dunyoni qamrab olgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida yurtimizda tinchlikni saqlab, iqtisodiy optimizning barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlashga, ayni shunday og‘ir sharoitda xalqimiz hayotining tobora yuksalishiga erisha olarmidik?

Yo‘q, albatta.

Hammamizga teran bir haqiqat ayon bo‘lishi kerak – biz yurtimizning ertangi rivoji yo‘lida qanday chuqur o‘ylangan dasturlarni tuzmaylik, bu rejalarни bajarish uchun qanday moddiy baza va imkoniyatlarni yaratmaylik, buning uchun qancha ko‘p sarmoya safarbar etmaylik, ularning barchasini amalga oshiradigan, ro‘yobga chiqaradigan qudratli bir omil borki, u ham bo‘lsa, yuqori malakali ish kuchi va **yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan yetuk mutaxassis yoshlarimiz, desak, o‘ylaymanki, hech qanday xato bo‘lmaydi.**

Shuning uchun ham bu o‘ta muhim masalani doimo davlatimiz, jamiyatimizning asosiy vazifasi sifatida ko‘rishimiz darkor.

Albatta, o‘tgan yillar tajribasini inobatga olgan holda, biz 2010 yilga “Barkamol avlod yili” deb nom berishimiz munosabati bilan maxsus davlat dasturini tayyorlashimiz va uning ijrosini ta’minlashimiz zarur.

Bu dasturni ishlab chiqishda manfaatdor idoralar, davlat va nodavlat tashkilotlar, mahalliy hokimliklar, tegishli mutaxassislar, qisqacha aytganda, keng jamoatchiligimiz jalb qilinishi tabiiy, albatta.

Men, shu fursatdan foydalanib, bu dastur o‘ziga qamrab oladigan yo‘nalishlar, amalga oshirilishi zarur bo‘lgan asosiy chora-tadbirlar qatorida eng muhim masalalar va vazifalar haqida to‘xtalib o‘tishni joiz, deb bilaman.

Eng avvalo, bu borada mavjud huquqiy va yuridik bazani tanqidiy ko‘z bilan qarab, ularga bugun zamon talab qiladigan tegishli o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish, kerak bo‘lsa, oldimizga qo‘ygan maqsadlarga javob beradigan yangi huquqiy normalarni ishlab chiqish va Oliy Majlisimiz tomonidan qabul qilish katta ahamiyatga ega.

Tabiiyki, sog‘lom avlod deganda, barchamiz birinchi navbatda sog‘lom naslni tushunamiz. Shu borada o‘tgan yillar davomida “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” g‘oyasini o‘zida mujassam etgan dastur asosida keng ko‘lamli chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga joriy etildi. Xususan, zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlangan diagnostika, skrining va perinatal markazlari, yangi tug‘ruqxonalar barpo etish, bir so‘z bilan aytganda, onalar va bolalar salomatligini himoyalash maqsadida markazda va joylarda ancha ishlar qilinganidan barchamiz xabardormiz.

Bu ishlarni e’tirof etgan holda, turli xil sabablar tufayli inson sog‘ligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan xavf-xatarlarning oldini olish, meditsina xizmatining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, shu

sohaga posbon bo‘lgan shifokorlarning mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha bugun oldimizda yangi-yangi vazifalar paydo bo‘layotganini ham biz o‘zimizga yaxshi tasavvur etamiz.

Ana shunday keng qamrovli vazifalarni hisobga olib, biz 2010 yilda davlat budjetida sog‘liqni saqlash sohasidagi xarajatlarimizni 1 trillion 700 milliard so‘m atrofida belgilab, ya’ni, bu yilga nisbatan 30 foizga ko‘paytirishni ko‘zda tutmoqdamiz.

O‘rnı kelganda aytish kerakki, yangi 2010 yilda davlat budjetining 50 foizdan ko‘prog‘i mamlakatimizda faqat ta’lim-tarbiya va sog‘liqni saqlash sohalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Barkamol avlod haqida so‘z borganda, o‘tgan yillar davomida katta kuch va mablag‘ hisobidan ta’lim sohasida barpo etilgan moddiy-texnik bazadan oqilona va samarali foydalanish masalasi qanchalik muhim ekani barchamizga ayon bo‘lishi kerak, deb o‘ylayman.

Shular qatorida davlat ta’lim standartlarini, o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlarini takomillashtirish, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish zarur.

Shuningdek, o‘quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatadigan o‘qituvchi va domlalarga e’tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta’lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko‘tarish diqqatimiz markazida bo‘lishi darkor.

Takror aytishga to‘g‘ri keladi – ta’lim sohasida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalarning zamonaviy usullarini o‘zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilg‘or yutuqlar nafaqat maktab, litsey va kollejlar, oliy o‘quv yurtlariga, balki har qaysi oila hayotiga keng kirib borishi uchun zamin tug‘dirishning ahamiyatini chuqr anglab olishimiz lozim.

Qabul qilinadigan dasturda jismoniy tarbiya va sport sohasida boshlagan katta ishlarmizni hech susaytirmsandan davom ettirish, ayniqsa, bolalar sportini yanada rivojlantirish, har qaysi shahar va qishloqda davr talabiga javob beradigan sport majmualari va stadionlar bunyod etish, ularni zamonaviy sport anjomlari, yuqori malakali sport ustozlari va murabbiylar bilan ta’minalash masalalari keng o‘rin olishi kerak.

Ayni paytda kasb-hunar kollejlari va olivy o‘quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yoshlarimiz egallayotgan eng zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni amalda joriy etishi uchun **ularni kichik biznes va tadbirkorlik sohasiga keng jalb qilish masalasiga prinsipial ahamiyat berilishi va bu vazifa dasturda o‘zining munosib o‘rnini topishi darkor.**

Bu borada shuni e’tiborga olishimiz kerakki, hozirgi vaqtida mamlakatimizdagi ijtimoiy faol aholining 70 foizdan ortig‘i aynan kichik biznes va tadbirkorlik sohasida band. Shunday ekan, bu sohan ni yanada rivojlantirmasdan turib, biz iqtisodiyotimizning kelgusi taraqqiyotini o‘zimizga tasavvur qila olmaymiz.

Nega deganda, mehnat faoliyatining aynan shu yo‘nalishi bugungi kunda aholimizning katta qismi uchun nafaqat asosiy daromad manbai, balki dunyoning barcha rivojlangan davlatlarida bo‘lgani kabi, **O‘zbekistonda ham shakllanib kelayotgan o‘rtta sinf bo‘lmish mulkdorlar sinfining muhim tarkibiy qismi, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining tayanchi va suyanchi hisoblanadi.**

Shunday o‘ta muhim omillarni inobatga olgan holda, qabul qilinadigan dasturda kichik biznes va tadbirkorlik sohasi oldida hali-beri mavjud bo‘lgan muammolarni yechish, bu yo‘ldagi to‘siqlarni bartaraf etish, barcha hudud va mintaqalarda, avvalo, qishloq joylarda bu sohaga yoshlarni jalb etish uchun yetarli sharoit va imtiyozlar yaratib berish masalasi katta o‘rin egallashi zarurligini hammamiz, birinchi navbatda mahalliy rahbarlar yaxshi anglab olishimiz darkor.

Oldimizda turgan yana bir muhim masalaga diqqatingizni qaratishni lozim deb bilaman. Hammamiz yaxshi tushunamizki, bugungi kunda taraqqiyot haqida so‘z borganda, ilm-fanning o‘rni va ahamiyati haqida ortiqcha gapirishga hojat yo‘q, albatta.

Biz mamlakatimizning kelajagini ko‘zda tutgan holda, bugungi kunda taraqqiy topgan davlatlar ilmiy jamoatchiligining e’tibor markazida turgan, eng ilg‘or, istiqbolli ilmiy izlanish va tadqiqot ishlarini yurtimizda rivojlantirish maqsadida Fanlar akademiyasi va olivy o‘quv yurtlari tarkibida yangi laboratoriyalarni tashkil qilish, ularning rivojlangan mamlakatlardagi ilm-fan markazlari bilan samarali hamkorlik aloqalari o‘rnatishtiga erishishimiz kerak.

Bu masalani hozirgi vaqtida oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri sifatida ko‘rishni bugun zamonning o‘zi talab qilmoqda.

Bu yo‘nalishdagi ishlarga yangi turtki berish, xorijiy davlatlardan zamonaviy ilmiy jihoz va uskunalarni olib kelish, eng iqtidorli, talantli yoshlarimizni bu ishga safarbar qilish va rag‘batlantirish maqsadida Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi qoshida alohida **fond tuzish va uni yetarli darajada valuta mablag‘lari bilan ta’minlash ezgu orzu-niyatlarimizga javob beradigan bir ish bo‘lur edi.**

O‘ylaymanki, bu fikrni mana shu zalda o‘tirganlar qo‘llab-quvvatlaydi.

Sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashda jamiyatimizning eng muhim, men aytgan bo‘lardimki, hal qiluvchi bo‘g‘ini bo‘lmish oilaga alohida e’tibor berish va uni har tomonlama asrab-avaylash tadbirlarini bo‘lajak dasturning uzviy qismi sifatida ko‘rishimiz zarur.

Xalqimizda “Qush o‘z uyasida ko‘rganini qiladi”, degan ibora bejiz aytilmagan, bunda chuqur ma’no-mazmun bor.

O‘g‘il-qizlarimizni el-yurtimizga munosib farzand, ertaga Vatanimizning haqiqiy fuqarosi bo‘ladigan insonlar etib tarbiyalash avvalo oila bag‘rida, oilaning sog‘lom iqlimi, ota-onaning bir-biriga mehri va hurmati sharoitida chuqur ildiz otishini, o‘ylaymanki, hammamiz yaxshi anglaysiz.

Bundan xulosa shuki, **sog‘lom va mustahkam oila, birinchi navbatda, yangi qurilayotgan yosh oilalar masalasini davlatimiz va jamiyatimiz, mahallalarimizning doimiy e’tiborida turadigan ustuvor vazifa deb bilishimiz darkor.**

Ma’lumki, bugungi kunda farzandlarimizning ma’naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Ayniqsa, hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy o‘zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo‘lgan turli xil xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g‘arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni yanada hushyor va ogoh bo‘lishga da’vat etishi tabiiydir.

Shu sababli yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, chetdan kirib kelayotgan har xil zararli ta’sirlardan, “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi tahdid va xatarlardan asrash masalalari bir zum ham e’tiborimizdan chetda qolmasligi darkor. Bu masalalar dasturda albatta o‘z ifodasini topishi zarur.

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Bugun hech kimga sir emaski, **biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr.**

Kimki bu haqiqatni o‘z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa – bunday davlat jahon taraqqiyoti yo‘lidan chetda qolib ketishi muqarrar.

Buni chuqur anglab olgan davlat, bunday xulosani chiqargan, xalqaro hamjamiyat va taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga ko‘tarilish uchun harakat qilayotgan jamiyat, birinchi navbatda, **bugun unib-o‘sib kelayotgan farzandlarining har tomonlama barkamol avlod bo‘lib hayotga kirib borishini o‘zi uchun eng ulug‘, kerak bo‘lsa, eng muqaddas maqsad, deb biladi.**

Bugun bizning demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, zamonaviy iqtisodiyot tizimini barpo etish, dunyoda o‘zimizga munosib o‘rin egallash yo‘lida erishayotgan yutuqlarimizni va barqaror natijalarimizni jahon jamoatchiligi tan olayotgan ekan, buning boisi nimada, degan tabiiy savol tug‘iladi.

Buning boisi – avvalo, el-yurtimizning qanday boy tarix va madaniyma’naviy merosga ega ekanida, uning intellektual salohiyati va ildizlari naqadar chuqur ekanida, xalqimizning o‘z oldiga qo‘ygan yuksak maqsadlarga erishish yo‘lida qanday buyuk ishlarga qodir ekanidadir.

Buning boisi – biz hech qachon hech kimdan kam bo‘lmaganmiz va ezgu maqsad-muddaomiz bo‘lmish erkin, ozod va obod hayot bunyod etishda ham hech kimdan kam bo‘lmaymiz, inshoollo.

Shu yuksak minbardan turib, mana shu muhtasham zalda o‘tirgan siz, azizlarga, sizlarning timsolingizda butun xalqimizga yana bir bor chuqur hurmat va ehtiromimni, eng ezgu tilaklarimni bildirishdan baxtiyorman.

2009-yil, 5-dekabr

O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI

Muhtaram vatandoshlar!

Qadrli otaxon va onaxonlar, opa-singillar, aziz o'g'il-qizlarim, bolalarim!

Yangi yil kirib kelishiga sanoqli daqiqalar qolgan mana shu fayzli va shukuhli damlarda sizlarni qizg'in muborakbod etishdan, barchangizga samimiy mehr va hurmatimni bildirib, ezgu tilaklarimni izhor qilishdan baxtiyorman.

Ayni mana shunday unutilmas, go'zal oqshomda bayram dasturxonи atrofida jamuljam bo'lib o'tirgan siz, aziz yurtdoshlarimga yangi yilda oilalaringizga shodu xurramlik, sihat-salomatlik, baxtu saodat, yangi omadlar yor bo'lishini, keksayu yosh, har qaysi inson qalbining to'rida bo'lgan eng yorug' orzu-niyatlar ushalishini chin yurakdan tilayman.

Hurmatli do'stlar!

Yakuniga yetib borayotgan 2009 yilni kuzatar ekanmiz, yil mobaynida el-yurtimiz boshidan kechirgan qancha-qancha sinov, qiyinchilik va muammolarni yengib o'tganimizni beixtiyor eslashimiz, bir so'z bilan aytganda, bu yil mamlakatimiz uchun oson kelmaganini ta'kidlashimiz tabiiydir.

Bu haqda gapirganda, avvalambor, butun jahon miqyosida hali-beri davom etayotgan, o'zi bilan o'ta og'ir salbiy oqibatlarni olib kelayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning O'zbekistonga ta'sirini yumshatish, bu xavfning oldini olish biz uchun yil davomida g'oyat murakkab vazifa bo'lib turgani haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo'q.

Bugun barcha mamlakatlar va xalqlarning boshiga tushgan ana shu savdo, ya'ni iqtisodiy o'sish sur'atlari va ishlab chiqarishning keskin qisqarishi, minglab korxonalar kasodga uchrashi natijasida ishsizlikning ko'payishi, odamlarning daromadi va turmush darajasining tobora pasayib borishidan – bunday og'ir qismatdan O'zbekistonimizni, xalqimizni saqlab qolish va bu sinovdan yorug' yuz bilan chiqish 2009 yilda biz uchun eng asosiy va dolzarb vazifaga aylandi.

Bizning bu boradagi harakatlarimiz yurtimizda mustaqillik yillarda amalga oshirgan islohotlar va mamlakatimizni yangilash siyosatining, biz

tanlagan o'zimizga xos, o'zimizga mos milliy taraqqiyot yo'lining, inqirozga qarshi o'z vaqtida ko'rgan chora-tadbirlarimizning naqadar to'g'ri ekanini yana bir bor tasdiqlab bermoqda.

Bu yil ob-havoning g'oyat noqulay kelib, bahordagi uzluksiz yog'ingarchilik tufayli ekish mavsumining bir oyga kechikib ketgani va boshqa ko'plab qiyinchiliklar hosil taqdirini xavf ostiga qo'yib, qishloq xo'jaligi uchun jiddiy tashvish va muammolar tug'dirganidan ham hammamiz xabardormiz.

Faqat ko'pni ko'rgan, hayot sinovlarida toblangan dehqon va fermerlar, mutaxassislarimizning mehnat jasorati, sohaga berilayotgan doimiy katta e'tibor hisobidan barcha qiyinchiliklarni yengib, g'alla, paxta va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha belgilangan marralarga erishganimiz bu yilgi eng katta g'alabalarimiz qatoriga kiradi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

O'tib borayotgan yilga yurtimizda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" deb nom berganimiz va shu munosabat bilan maxsus davlat dasturini amalga oshirganimiz qishloq hayotini obod etish, qishloq ahlining turmush madaniyatini yuksaltirish, ularning yashash sharoitini shahar darajasiga yaqinlashtirish kabi g'oyat muhim maqsadlarga erishish yo'lida qo'yilgan salmoqli qadamlar bo'ldi.

Shu borada boshlagan ezgu ishlarimizning mohiyati va ko'lамини, davlatimizning bu masalaga qanday ulkan ahamiyat berayotganini ushbu dasturni bajarish uchun barcha manbalar hisobidan shu yilning o'zida 2 trillion 600 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflangani ham ko'rsatib turibdi.

O'ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz, qishloq taraqqiyoti va obodonchiligiga qaratilgan bunday ulkan xarajatlarimiz mamlakatimiz miqyosida, uning turli soha va tarmoqlarida – bu sanoat va qurilish, transport va kommunikatsiya bo'ladimi, ta'lim-tarbiya, tibbiyot va madaniyat sohalari bo'ladimi – butun iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish va yangilash bo'yicha amalga oshirayotgan dasturlarimizning uzviy bir qismidir.

Bugun o'z salbiy ta'sirini o'tkazayotgan inqirozga qaramasdan, 2009 yilning o'zida yalpi ichki mahsulotimiz 8,1 foizga, iqtisodiyotimizga jalg etilgan investitsiyalar hajmi 33,0 foizga o'sgani, aholining real daromadlari esa 26,5 foizga, oylik ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar o'rtacha

40,0 foizga oshgani buning yaqqol dalili va isboti desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Shuni ham katta mammuniyat bilan qayd etmoqchimanki, kirib kelayotgan 2010 yilda oylik ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini kamida 30 foizga ko'paytirish ko'zda tutilayotgani, hech shubhasiz, xalqimizning yangi yil oldi kayfiyatiga albatta yangi quvonch bag'ishlaydi.

Yurtimizni tobora obod etib, uning qiyofasini butunlay o'zgartirayotgan, Vatanimizning ildam rivojlanib borishini ta'minlayotgan, o'zgalarning havasini tortayotgan bunday yutuqlarning boisi, avvalambor, mamlakatimizda tinchlik, siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, millatlar va fuqarolararo totuvlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat hukm surayotganidadir.

Eng muhimi, xalqimizning mehnatsevarligi va fidoiyligi, uning hayotga, o'z mehnatiga munosabati tobora o'zgarib, ongu tafakkuri o'sib borayotgani biz qo'lga kiritayotgan marralarning hal qiluvchi omili va sababi, desam, o'yaymanki, barchamizning fikrimizni ifoda etgan bo'laman.

Kuni kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga bo'lib o'tgan saylovlar bu haqiqatni yaqqol tasdiqlab, mamlakatimiz milliy manfaatlаримизга javob beradigan demokratik jamiyat qurish yo'lidan izchil rivojlanib borayotganini, xalqimizning o'z tanlagan yo'liga, ertangi kuniga, o'z kelajagiga bo'lgan mustahkam ishonchini yana bir bor amalda namoyon etdi.

Muhtaram vatandoshlar!

Kirib kelayotgan yangi – 2010 yilga mamlakatimizda “Barkamol avlod yili” deb nom berganimiz bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarimizning uzviy va mantiqiy davomi bo'ldi.

Bizning o'z oldimizga qo'ygan eng ulug' maqsadimiz bo'l mish kelajagi buyuk davlat va erkin jamiyat qurish jarayoni, lo'nda qilib aytganda, taraqqiy topgan va farovon yashayotgan davlatlar qatoriga chiqish vazifasi, tabiiyki, yillar, balki o'n yillarni talab qiladi. Va bu maqsad yo'lida barchamizni belimizni qattiq bog'lab, qat'iyat va fidoiylik bilan, astoydil mehnat qilishga undaydi.

Ayni paytda barchamiz yaxshi anglaymizki, bunday ezgu orzuniyatlarimizni amalga oshirish ko'p jihatdan bugun unib-o'sib kelayotgan,

bizning davomchimiz, suyanchimiz va tayanchimiz bo'lgan yosh avlodning zimmasi va mas'uliyatiga tushadi.

Shu bois barchamiz o'zimizning muqaddas ota-onalik burchimizni jondan aziz farzandlarimizni nafaqat ham jismonan, ham ma'nani sog'lom qilib o'stirish, shu bilan birga, ularni har tomonlama barkamol avlod bo'lib, eng zamonaviy, biz yashayotgan XXI asr talab qilayotgan intellektual bilim va boylikka ega bo'lgan insonlar bo'lib hayotga kirib borishini ta'minlashda ko'rishimiz ham qarz, ham farzdir.

Bugun biz tuzayotgan va qabul qilayotgan uzoq muddatli dasturlarimiz aynan mana shunday o'ta muhim va ustuvor maqsad va muddaolarimizga javob bergen holdagina biz mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga ko'tarish, dunyoda yakkayu yagona bo'lgan Vatanimizning xalqaro maydondag'i obro'-e'tiborini munosib darajaga yuksaltirishga erishamiz.

Ayni shu maqsadga qaratilgan, uzoq va davomli kelajagimizni ko'zlayotgan, bugun amalga oshirayotgan ulkan dasturlarimizda mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish tarmoqlarimizni zamonaviy texnika va texnologiya bilan qurollantirish masalalari bilan birga, eng zamonaviy va kuchli sotsial infratuzilmani barpo etish borasida oldin boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish, aholimizni ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash siyosati doimo e'tibor markazida turishi darkor.

2010 yilning davlat byudjeti xarajatlarining 59 foizdan ortig'ini aynan sotsial xarajatlar tashkil etishi, faqatgina sog'liqni saqlash va ta'lim-tarbiya sohasiga davlat xarajatlarining 50 foizdan ziyodi yo'naltirilganining o'zi buning yaqqol tasdig'idir. Birgina tibbiyot sohasi rivoji uchun 1 trillion 700 milliard so'm mablag' ajratilgan bo'lib, bu 2009 yilga nisbatan 30 foizga ko'p demakdir.

Aytish mumkinki, sotsial soha rivojiga bunday e'tibor dunyoda kamdan-kam davlatlar tajribasida uchraydi.

Aziz do'stlarim, qadrdonlarim!

Barchangizni bag'rimga bosib, kirib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklayman.

Yangi – 2010 yilning qadami qutlug' va xosiyatli kelsin!

Xonardonlarimizdan fayzu baraka arimasin!

Yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo'lsin, Yaratganimiz o'z panohida saqlasin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

*Islom Karimov,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
2009-yil, 31-dekabr*

VATANGA QASAMYOD, MARDLIK VA JASORAT MADHIYASI

Prezident Islom Karimovning Toshkent shahrida barpo etilgan “Vatanga qasamyod” haykalining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdag'i so‘zi.

Assalomu alaykum, aziz yurtdoshlar!

Hurmatali Vatan himoyachilar!

Muhtaram faxriylar!

Shu kunlarda xalqimiz, jamoatchiligimiz mamlakatimiz hayotidagi eng qadrli, eng qutlug‘ bayramlar qatoridan o‘rin olgan Vatan himoyachilar kunini keng nishonlamoqda.

Shu munosabat bilan xalqimiz o‘z hayotini Vatan himoyasiga, uning chegaralari daxlsizligini ta’minlashga bag‘ishlagan, el-yurt tinchligi va osoyishtaligining posboni bo‘lmish jasur o‘g‘lonlariga o‘zining chuqur hurmati va samimiyligi mehr-muhabbatini yana va yana izhor etmoqda.

Aziz do‘sstar!

Bugun Vatanimizning mustaqilligini, yurtimiz barqarorligi va xavfsizligini himoyalash, aholimizning tinch va osuda hayotiga qarshi qaratilgan har qanday tajovuz va g‘arazli urinishlarning oldini olish va bartaraf etishda – bunday o‘ta muhim va mas’uliyatlari vazifalarni ado etishda milliy Qurolli Kuchlarimizning o‘rni va ahamiyati, hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan hissasi haqida ko‘p gapirish mumkin.

Haqiqatan ham, o‘tgan qisqa davr mobaynida O‘zbekistonda bugungi kun talablariga javob beradigan tezkor va ixcham, zamонавији qуол-яроғ‘ va texnika bilan ta’minlangan, jangovar qobiliyat va tayyoragarlikka ega bo‘lgan, bir so‘z bilan aytganda, har qanday yovuz kuchga munosib zarba berishga qodir bo‘lgan armiyani barpo etganimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Shu borada amalga oshirgan ulkan ishlarimizni tan olgan holda, bugun zamоннинг о‘зи oldimizga qo‘yayotgan talablarni inobatga olib, Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyati va harakatchanligini kuchaytirish, uni zamонавији qуол-asлаha bilan ta’minlash, harbiyalarimizning professional

malakasi va tayyorgarligini oshirish, ularni va ularning oila a'zolarining sotsial ehtiyojlarini munosib qondirish, harbiy xizmatni amalda shon-sharaf ishiga aylantirish, muxtasar aytganda, armiyamizning qiyofasini tubdan o'zgartirish albatta bizdan hali katta e'tibor va kuch-imkoniyatlarni safarbar etishni talab qiladi.

Mana shunday hech kechiktirib bo'lmaydigan va doimiy e'tiborimizda turishi shart bo'lgan vazifalarimiz qatorida men bir masalaga alohida urg'u berib, uning ahamiyati va ma'nosи haqida to'xtalib o'tishni o'rinli deb bilaman.

O'ylaymanki, bugun hammamizga ayon bo'lishi kerak – armiyamizning kuchiga kuch qo'shadigan, vaqt kelganda, hal qiluvchi omilga aylanadigan qudratli bir vosita borki, uning nomi – harbiylarimizning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligi, ularning baquvvat iroda, faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishi, eng muhimmi, kim uchun va nima uchun harbiy burchini ado etayotganini chuqur anglashi va tushunishi demakdir.

Darhaqiqat, Sohibqiron Amir Temur bobomiz aytganidek, "Bilagi zo'r – birni yiqar, bilimi zo'r, ongi baland – mingni".

Shu buyuk hikmatga tayangan holda, ona yurtga, ona zaminga sadoqat bilan, kimning avlodni ekanini xayolidan chiqarmasdan, hayotda aniq maqsad va e'tiqod bilan yashaydigan harbiy inson Qurolli Kuchlarimizning eng ishonchli tayanchi va suyanchi, eng katta boyligi desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Chindan ham, o'zining mustahkam irodasi, Vatanga sadoqati bilan haqiqiy qahramonlikka tayyor bo'lgan xarbiy o'g'lonlarni men o'z farzandlarim, o'z bolalarim, deb bilaman va ular uchun butun borlig'imni berishga tayyorman.

Bugun biz Vatan himoyachilari bayrami arafasida ham tarixiy, ham ma'naviy, ham siyosiy nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega bo'lgan muhim bir voqeа – ya'ni, Qurolli Kuchlarimiz sharafiga bunyod etilgan muhtasham haykalning ochilish marosimiga to'planib turibmiz.

Aytish kerakki, yosh avlodimizni milliy g'oya ruhida, mardlik va matonat ruhida tarbiyalashda ular uchun ma'naviy ibrat bo'lib xizmat qiladigan bunday ta'sirchan badiiy timsollarning o'rni va ahamiyati beqiyos, albatta.

Lekin, shuni ochiq tan olishimiz darkor, Qurolli Kuchlarimizda xizmat qilayotgan harbiylarimiz, avvalo, armiya safida mashaqqatli sinov va

tarbiya maktabini o‘tayotgan yoshlarimizning ma’naviy olamini yuksaltiradigan va ruhan toblantiradigan bunday timsollarni yaratish masalasiga yetarlicha e’tibor bermayapmiz.

Agarki bugun ko‘z o‘ngimizda qad rostlagan mana shu muazzam monumentni uzoq yillar uning o‘rnida turgan, eski tizim mafkurasini ifoda etadigan, qiyofasi sovuq haykal bilan qiyoslaydigan bo‘lsak, o‘ylaymanki, ortiqcha gapishtiga hojat qolmaydi.

Bugun ochilayotgan, chuqur ichki ma’noga ega, ko‘zimizga qadrdon bo‘lib ko‘rinadigan bu salobatli haykalning siy whole signum of the letter 'n' is missing in the original text. It is likely a misspelling or a placeholder for a signature. I will replace it with a standard 'n'. The original text continues with 'nazar tashlar ekanmiz, avvalo, el-yurtimizning sodiq farzandi, yoshlarimizning ham ma’nan, ham jismonan yetuk va mard timsolini yaqqol ko‘rishimiz, yurak-yurakdan his qilishimiz tabiiyidir.'

Ma’lumki, oriyatni, g‘urur va sadoqatni hamma narsadan ustun qo‘yadigan bizning xalqimiz uchun harbiy qasamyod – bu shunchaki rasmiy tadbir emas, balki yigitlik sha’ni, oru nomusini o‘rtaga qo‘yib, o‘z zimmasidagi mas’uliyatlari va sharafli burchni ado etishga bel bog‘lab, ahdu paymon qilish marosimidir.

E’tibor bersangiz, bu muhtasham badiiy majmuada tasvirlangan xalqimizning munosib o‘g‘loni davlatimizning betakror timsoli bo‘lmish bayrog‘imizni ko‘ziga to‘tiyo qilib, Vatan himoyasi uchun, otabobolarimiz xoki yotgan qutlug‘ zaminning har qarich tuprog‘ini asrash uchun tayyorman, deb tiz cho‘kib qasamyod qilmoqda.

Ana shu mard va jasur farzandga oq sut bergen, bag‘rida ko‘tarib voyaga yetkazgan, Vatan timsoli bo‘lgan munis va mo‘tabar ona bamisoli o‘z qo‘rg‘oni oldida turib, harbiy xizmatga otlangan jondan aziz bolasiga oq fotiha berib, unga oq yo‘l tilamoqda.

Ushbu haykal siy whole signum of the letter 'n' is missing in the original text. It is likely a misspelling or a placeholder for a signature. The original text continues with 'Qurolli Kuchlarimiz safiga kirishga tayyorgarlik ko‘rayotgan ming-minglab azmu shijoatli yoshlarimizning ham yuksak orzu-intilishlari o‘z aksini topgani ayniqsa e’tiborlidir.'

Bu bahodir er yigitning qaddi-qomati, mardona qiyofasiga qarab, farzandlarimizning yuragida, qalbida “Men ham shu jasur akam singari harbiy bo‘lamon, o‘z uyimni, o‘z yurtimni, ota-onam, o‘z qadrdonlarimni himoya qilaman” degan qat‘iy qaror paydo bo‘lishi shubhasizdir.

Ishonchim komilki, mana shunday har tomonlama hayotiy asosga, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan bu muhtasham haykal shu yurda unib-o‘sigan, uning bugungi va ertangi kunini o‘ylab yashayotgan har qaysi insonni albatta befarrq qoldirmaydi.

Bu betakror majmuani bir ko‘rgan odam, o‘ylaymanki, yuragi jizillab, uning ma’nosini tushunib, anglab, bu haykalni avvalambor Vatanga sadoqat, mardlik va jasorat madhiyasi, el-yurt himoyachisi bo‘lgan fidoyi insonlarga qo‘yilgan go‘zal badiiy obida sifatida qabul qiladi.

O‘zida chuqur hayotiy falsafani, teran ma’no-mazmunni mujassam va ifoda etgan bu muazzam haykalga “Vatanga qasamyod” deb nom bersak, o‘ylaymanki, har tomonlama adolatli va to‘g‘ri bo‘ladi.

Bu majmuaning g‘oyasi haqida, aynan mana shu timsolni tanlab olganimizning sababi haqida ko‘p gapirish mumkin. Shaxsan men ushbu badiiy majmuani xayolimdan o‘tkazar ekanman, o‘zimni bamisoli Vatanimga, el-yurtimga qasamyod qilayotgandek his qildim. O‘ylaymanki, bugun mana shu maydonda turgan va ertaga bu yerga ziyoratga keladigan barcha insonlar ham shunday fikr, shunday xayol bilan bu haykal poyida tiz cho‘kib ta’zim qiladi.

Bu haykal azim poytaxtimiz Toshkent shahrida betakror badiiy timsol sifatida abadiy saqlanib qoladi, deb ishonaman.

Aziz do‘stlar!

Fursatdan foydalanib, bu ulug‘vor majmuani bunyod etgan haykaltarosh va ijod ahliga, mana shu maydonni har tomonlama obod qilishga munosib hissa qo‘sghan quruvchi va mutaxassislarga, barcha insonlarga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan minnatdorchilik bildirishga ijozat bergaysiz.

Barchangizga sihat-salomatlik, baxtu saodat, yangi yilda yangi omadlar tilayman.

2010-yil, 12-yanvar

VATAN HIMOYACHILARIGA BAYRAM TABRIGI

Qadrli Vatan himoyachilari – askar va serjantlar, ofitser va generallar, Qurolli Kuchlarimiz faxriylari!

Sizlarni, Vatan himoyachisi degan olijanob ishga o‘zini bag‘ishlagan barcha yurtdoshlarimizni mamlakatimiz hayotidagi qutlug‘ sana – Vatan himoyachilari kuni va Qurolli Kuchlarimizning o‘n sakkiz yilligi bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etish menga katta mammuniyat bag‘ishlaydi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda zamonaviy talab va standartlarga javob beradigan, yurtimiz mustaqilligi, uning xavfsizligi va hududiy yaxlitligining ishonchli kafolati bo‘lgan Qurolli Kuchlarni barpo etish va milliy armiyamizni shakllantirish borasida o‘zining mohiyati va ko‘lamiga ko‘ra tom ma’noda ulkan ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimiz xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan va kelib chiqayotgan xavf-xatarlarni har tomonlama tahlil etish asosida armiyamizni isloh qilishning uzoq muddatli dasturi ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda.

Ushbu dasturga muvofiq, Mudofaa vazirligining bo‘linma va qismlarini, chegara qo‘shinlarini, boshqa vazirlik va idoralarning harbiy tuzilmalarini yagona qudratli tizimga birlashtirgan Qurolli Kuchlarimiz qismlarining tarkibi va joylashuvi qayta ko‘rib chiqildi.

Qurolli Kuchlarimiz va ularning asosiy jangovar bo‘linmalarining prinsipial jihatdan mutlaqo yangi tashkiliy-tarkibiy tuzilmasi joriy etildi, boshqaruv va tuzilmalarining bir-birini takrorlaydigan, kam samarali bo‘g‘inlari tugatildi. Bu o‘z navbatida mazkur boshqaruv va tuzilmalarining harakatchanligi, tezkorligi va jangovar qobiliyatini oshirish imkonini berdi.

Mamlakatimiz hududiga suqilib kiradigan har qanday tajovuzkor bosqinchiga qarshi qat’iy zarba berishga qodir bo‘lgan Maxsus operatsiyalarni amalga oshiradigan kuchlar, Terrorchilikka qarshi kurashish korpusi bo‘linmalari va boshqa zamonaviy jangovar bo‘linmalar tashkil etildi va ularning faoliyatini kuchaytirish davom ettirilmoqda.

Muddatli harbiy xizmatning bir yil etib belgilangani, muddatli harbiy xizmatga chaqiruvning bir yilda bir marta tashkil etilayotgani, qo'shinlarda shartnoma asosida xizmat qilayotgan serjantlar tarkibining sezilarli darajada kengaygani, safarbarlik-chaqiruv rezerv xizmatining joriy etilgani armiyamizning qiyofasini, uning mazmun-mohiyati va jangovar imkoniyatlarini, harbiy jamoalardagi ma'naviy-axloqiy muhitni prinsipial jihatdan tubdan o'zgartirdi.

Shu yillar mobaynida harbiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish, qo'shnirlarni zamonaviy quroq-yarog' turlari bilan qurollantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta'minlash, ularga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, pul ta'minotini oshirish, shuningdek, muddatli harbiy xizmatni o'tagan shaxslarni rag'batlantrishga qaratilgan aniq maqsadli, kompleks dasturlarning izchil ijro etilishi harbiy xizmatchilar va ularni oila a'zolarining moddiy, ijtimoiy-maishiy sharoitlarini sezilarli ravishda yaxshilash imkonini berdi.

Shu davr ichida amalga oshirilgan ishlarni baholar ekanmiz, bugungi kunda O'zbekiston amalda o'zining zamonaviy, ixcham va harakatchan, yaxshi qurollangan, mamlakatimiz barqarorligi va xavfsizligini, sarhadlarimiz daxlsizligini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan milliy armiyasiga ega, deb aytish uchun barcha asoslarimiz bor.

Shu bilan birga, mintaqamiz va butun jahondagi murakkab, tez o'zgarayotgan harbiy-siyosiy vaziyat, bиринчи navbatda, Afg'onistondagi tobora keskinlashib borayotgan ahvol bilan bog'liq tarzda xavfsizlikka qarshi real va ehtimol tutilayotgan xavf-xatarlarning kuchayib, narkoagressiya, xalqaro terrorizm, ekstremizm va boshqa tahdidlarning miqyosi kengayib borayotgani Qurolli Kuchlarimizning jangovar tayyorgarligini har tomonlama mustahkamlash, davlat chegaralarimizni himoya qilish va qo'riqlash choralarini yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Qurolli Kuchlarimiz oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish masalasi bizdan Vatanimizning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan va tobora kuchayib borayotgan ana shunday talablarni hisobga olgan holda, armiyamizni modernizatsiya va isloh qilish, uning salohiyati va jangovar tayyorgarligini mustahkamlash bo'yicha qabul qilingan strategiya hamda ustuvor yo'nalishlarni bajarish yuzasidan boshlagan ishlarimizni yanada chuqurlashtirishni taqozo etadi.

Shu maqsadda quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur, deb hisoblayman:

Birinchi. Qurolli Kuchlarimiz qismlarining safarbarlikka doimiy ravishda tayyorligi va harakatchanligini, ularning yuz berishi mumkin bo‘lgan turli tahdid va xavf-xatarlarni, chegaralarimiz daxlsizligi, fuqarolarimizning tinch-osoyishta mehnati va hayotini buzishga qaratilgan har qanday yovuz urinishlarni o‘z vaqtida va samarali bartaraf etish qobiliyatini ta’minlash darkor.

Ikkinchi. Qurolli Kuchlarimizning qism va bo‘linmalarini eng yangi qurol-yarog‘ va jangovar texnika bilan qayta jihozlash, zamonaviy vositalar bilan ta’minlash bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish muhim prinsipial ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan xorijiy hamkor davlatlar bilan xalqaro harbiy-texnik hamkorlikni yangi pog‘onaga ko‘tarish va ko‘lamini kengaytirish, 2010-2015 yillarga mo‘ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturini tayyorlash va amalga oshirish zarur.

Qo‘sishnlarning vzvod-batalyondan tortib harbiy okruglargacha bo‘lgan yuksak darajadagi jangovar qobiliyatini ta’minlashga qaratilgan o‘quv-jangovar tayyorgarlik ishlarini tubdan yaxshilashga alohida e’tibor qaratish zarur. Jangovar operatsiyalarni amalga oshirishning taktikasi va usullari muntazam ravishda o‘zgarib, eng yangi qurol-yarog‘ va harbiy texnika tobora murakkablashib borayotgan hozirgi sharoitda shaxsiy tarkibning individual va guruh shaklidagi jangovar tayyorgarligi va harbiy malakani egallashi bo‘yicha prinsipial jihatdan yangi dasturlarni jadal ishlab chiqish va joriy etishni, qo‘mondonlik-shtab va tezkor-taktik o‘quv mashqlari o‘tkazishni tubdan qayta ko‘rib chiqish talab etiladi.

Harbiy san’atni o‘rganish va yana bir bor o‘rganish – bugungi kunda bu talab armiyamizni modernizatsiya qilish borasidagi barcha ishlarimizning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib qolmoqda.

Uchinchi. Harbiy boshqaruv tizimini takomillashtirish, ehtimol tutilgan jangovar harakatlar maydonining o‘ziga xos sharoitida butun mudofaa tizimida barcha qo‘sish turlariga qarashli qism va bo‘linmalar, vazirlilik va idoralarning harbiy tuzilmalari faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirish, ularning aniq va bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishini ta’minlash bo‘yicha boshlagan ishlarimizni davom ettirish va chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega. Armiyamizning davlat chegaralarimizni ishonchli qo‘riqlashga qodir bo‘lgan, mamlakat mudofaa tizimidagi zaif nuqtalarni

o‘z vaqtida aniqlab, ularning bartaraf etilishini ta’minlaydigan, har tomonlama puxta tashkil etilgan mexanizm, bir so‘z bilan aytganda, barcha tarkibiy qismlari o‘zaro uzviy bog‘langan yagona jangovar kompleks sifatida to‘laqonli faoliyat yuritishiga erishish g‘oyat muhim ahamiyatga egadir.

To‘rtinchi. Ofitser va serjant kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, intellektual jihaddan yetuk, strategik fikrlay oladigan ofitser kadrlar, shuningdek, qo‘l ostidagi bo‘linmalarni samarali boshqarishga, ularda sog‘lom axloqiy-ruhiy vaziyatni saqlashga qodir professional serjantlarni tayyorlaydigan harbiy bilim yurtlari va serjantlar mакtablari faoliyatini zamon talablari va standartlarini e’tiborga olgan holda tubdan yaxshilash asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Qurol-yarog‘ va texnikaning zamonaviy turlari, qo‘sishlarni boshqarish metodlari, jangovar operatsiyalarni amalga oshirishning taktik usullari, jangovar tayyorgarlik va tarbiyaviy ishlar dasturlarini tajriba va sinovdan o‘tkazishda asosiy baza vazifasini bajaradigan harbiy bilim yurtlari Qurolli Kuchlarimizning yetakchi, bosh harbiy-ilmiy markazlariga aylanishi darkor.

Shu maqsadda harbiy ta’lim muassasalarini zarur harbiy texnika va trenajyorlar bilan jihozlashga, o‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, modellashtirish va simulyatsiya usullaridan foydalanish masalalariga o‘ta jiddiy e’tibor qaratish zarur.

Beshinchи. Yurtimizda 2010 yilning Barkamol avlod yili deb e’lon qilinishi armiyamizning o‘zagini tashkil etadigan yosh ofitserlar, serjantlar va askarlar o‘rtasida tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining qo‘mondonlik va boshliqlar tarkibi zimmasiga yangi, yanada mas’uliyatli vazifalar yuklaydi.

Shu munosabat bilan askar, serjant va ofitserlar tarkibining xizmatni o‘tash va yashash joylaridagi ijtimoiy-maishiy sharoitlarini izchil va tizimli ravishda yaxshilash, harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta’minalash, harbiy shaharchalarni qurish va rekonstruksiya qilish, ularda eng zamonaviy talab va standartlarga javob beradigan barcha qulayliklarni yaratish bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturlarining to‘liq bajarilishiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Qurolli Kuchlarimizning oldiga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish Mudofaa vazirligi, Birlashgan shtab, butun qo‘mondonlik tarkibidan

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondonining mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 18 yilligi munosabati bilan qabul qilingan Direktivasida belgilab berilgan qoida va ko‘rsatmalarni so‘zsiz bajarishni talab qiladi.

Aziz do‘sstar!

Bugungi qutlug‘ bayram kunida Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmatni munosib tarzda o‘tayotgan va zaxiradagi harbiylarga, barcha Vatan himoyachilariga murojaat qilar ekanman, armiyamiz Vatanimizning muqaddas sarhadlari, xalqimizning tinch va osuda hayoti, musaffo osmonimizning ishonchli himoyasini ta’minlashga qodir, deb qat’iy ishonch bildiraman.

Sizlarni yana bir bor Vatan himoyachilarini kuni bilan chin qalbimdan tabriklayman!

Barchangizga sihat-salomatlilik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman!

*Islom Karimov,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni*

2010-yil, 14-yanvar

MAMLAKATIMIZNI MODERNIZATSİYA QILISH VA KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATI BARPO ETISH – USTUVOR MAQSADIMIZDIR

*Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi.*

Assalomu alaykum, hurmatli deputatlar!

Hurmatli senatorlar!

Qadrli do‘stlar!

Avvalambor, barchangizni bo‘lib o‘tgan saylovlarda erishgan munosib g‘alabangiz bilan, Sizlarga saylovchilar, mamlakatimiz aholisi tomonidan ko‘rsatilgan yuksak ishonch bilan tabriklab, Siz, xalq vakillariga o‘zimning chuqur hurmat-ehtiromimni bildirishdan xursandman.

Aminmanki, haqli ravishda Sizlarga ko‘rsatilgan bu ishonch – birinchi navbatda barchangizning shaxsiyattingizga, bilim, tajribangiz, fidokorona mehnatingizga, eng avvalo, mamlakatimizning obro‘-e’tibori va ravnaqi, el-yurtimiz farovonligini yanada yuksaltirish yo‘lida qo‘sheyotgan munosib hissangizga xalqimiz tomonidan bildirilgan hurmat ifodasidir.

Ayni vaqtida bu ishonch umumxalq saylovlarida sizlar vakili bo‘lib ishtirok etgan siyosiy partiyaga, ijtimoiy harakatga bildirilgan ishonch belgisidir.

Shu borada, o‘ylaymanki, shu zalda o‘tirgan barcha deputatlar yaxshi anglamoqda, bularni, ya’ni, xalqimiz tomonidan bildirilgan katta umidni, har qaysingiz o‘zingizning halol amaliy mehnatingiz bilan oqlashingiz zarur bo‘lgan avans – nasiya, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Sizlarning e’tiboringizni yana bir o‘ta muhim holatga jalg etmoqchiman. Sizlarning obro‘yingiz – bu Qonunchilik palatasi va Senatning obro‘si, respublikamiz parlamentining obro‘si, mohiyat e’tiboriga ko‘ra, mamlakatimizning obro‘si ekanini hech qachon unutmasligingizni istardim.

Hurmatli do‘stlar!

Bugun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida 2009 yil 27 dekabr kuni Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va mahalliy kengashlarga bo'lib o'tgan saylovlar haqida va shuningdek, 2010 yilning 10 yanvar kuni ana shu idoralarga o'tkazilgan takroriy saylovlar xususida ortiqcha gapirishning hojati yo'q, deb o'ylayman.

Ushbu saylovlar haqida mamlakatimizdagi tegishli vakolatga ega bo'lган tuzilmalar kuzatuvchilari va jamoatchiligimiz tomonidan, O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan xorijiy tashkilot va kuzatuvchilar tomonidan ham atroflicha, yetarli va xolis baholar berildi.

Barcha-barcha berilgan baho va tafsilotlarda avvalo saylovchilarimizning ovoz berish paytida umumiy faollik, ochiqlik va oshkoraliq, milliy va xalqaro qonunchilik me'yorlari va talablariga rioya qilish muhitini yaqqol namoyon bo'lgani ta'kidlandi.

Bu o'z navbatida jamiyatimizning o'tgan davr mobaynida demokratik o'zgarishlar, har qaysi fuqaroning tanlash erkinligini ta'minlash va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida tom ma'noda qanday ulkan qadamlar qo'yanini yana bir bor tasdiqladi.

Qonunchilik palatasiga 30 foizga yaqin, mahalliy kengashlarga esa taxminan 20 foizdan ko'proq deputatlar saylovlarning takroriy bosqichidan – ikkinchi turdan o'tishga majbur bo'lganlarining o'zi – ushbu saylovlarimiz naqadar demokratik asosda bo'lib o'tganining, hech shubhasiz, yaqqol isboti, desak, to'g'ri bo'ladi.

Bo'lib o'tgan saylovlar aholimizning yuksak ijtimoiy-siyosiy madaniyatini, uning siyosiy va fuqarolik ong darajasi tobora o'sib borayotganini, saylovchilar mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilish jarayonlarini chuqurlashtirish yo'lidan izchil ilgarilab borayotganimizni keng qo'llab-quvvatlayotganini namoyish etdi.

Eng muhim, mazkur saylovlar davlatimiz hayotida yuz berayotgan barcha tub o'zgarish va yangilanishlar jarayoni orqaga qaytarib bo'lmaydigan qonuniy tus olganini yana bir bor ko'rsatdi.

Eng muhim xulosa shundan iboratki, bu saylovlar bugungi kunda hayotimizni demokratlashtirish va liberallashtirishga qaratilgan o'zgarishlar jarayonini, haqiqatdan ham, hech qanday kuch orqaga qaytara olmasligining amaliy ifodasi bo'lganini takror va takror ta'kidlashni o'rinni deb bilaman.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, biz o'z vaqtida shu borada muhim qarorlar, xususan, "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunni qabul qilgan edik.

Shuningdek, siyosiy partiyalarning saylovlarda qatnashib, o'zining nimalarga qodir ekanini isbotlashga, amalda bu partiyalarni O'zbekistonda bo'lib o'tayotgan chuqur o'zgarishlarning hal qiluvchi kuchiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, joriy etilganidan ham xabardorsiz.

Bo'lib o'tgan saylovlardan biz chiqarishimiz kerak bo'lgan yana bir o'ta muhim xulosa shundan iboratki, bu saylovlar o'z vaqtida qabul qilingan ana shu qarorlarning naqadar to'g'ri va samarali ekanini ko'rsatdi.

Aynan ana shu xususiyat – ya'ni, siyosiy partiyalarning hal qiluvchi kuch sifatida maydonga chiqishi mazkur saylovlarning mohiyati va asosiy ma'no-mazmunini tashkil etdi, desam, yanglishmagan bo'lamon.

O'yaymanki, o'tgan saylovlarning ayni shunday alomatlari mamlakatimiz parlament tizimining samaradorligini oshirishga albatta sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Shu fursatdan foydalaniib, yorug' kelajagimizni qurish yo'lida mamlakatimiz bu murakkab siyosiy imtihondan muvaffaqiyatlil o'tgani uchun barcha fuqarolarimizni yana bir bor tabriklab, butun xalqimizga chuqr minnatdorligimni va hurmatimni bildirishni o'zimning burchim, deb bilaman.

Muhtaram majlis ishtirokchilari!

Qonunchilik palatasi va Senatning yangitdan saylangan tarkibining bo'lg'usi faoliyati bilan bog'liq masalalarga o'tishdan oldin Oliy Majlisning o'z vakolatlarini tugatgan har ikkala palatasi a'zolariga, ularning sidqidildan qilgan mehnati, Vatanimiz qudratini mustahkamlash, xalqimiz farovonligini oshirishga qo'shgan katta hissasi uchun samimiyl tashakkur bildirishga ruxsat bergaysiz.

Ma'lumki, birinchi bor 2004 yilda saylangan ikki palatali parlamentimizning faoliyati hayotimizning muhim bir davriga – mamlakatimizda chuqr o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bir davrga to'g'ri keldi.

O‘zbekistonning oldida turgan ushbu ustuvor vazifalarning barchasini hal qilishda parlamentning avvalgi tarkibi mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish ishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan 250 dan ziyod qonunni qabul qilib, muhim hissa qo‘shti.

Bugun shu borada amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilar ekanmiz, aytish mumkinki, parlamentning professional organi sifatida doimiy faoliyat olib boradigan, qonunlarni ishlab chiqadigan va qabul qiladigan quyi palatasi va hududiy vakillik organi sifatida mintaqalarimizning manfaatlarini to‘liq aks ettiradigan yuqori palata bo‘lmish Senatni shakllantirish bo‘yicha asosiy vazifalar, umuman olganda, muvaffaqiyatli hal qilindi.

Qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining sifati va asoslanishi tubdan yaxshilandi. Umum davlat va mintaqaviy manfaatlar o‘rtasidagi mutanosiblik va uyg‘unlik yanada samarali ta’mil qilinmoqda.

Siyosiy partiyalarning mamlakatimiz oliy qonunchilik organi, joylardagi hokimiyat vakillik organlari faoliyatidagi roli va ta’siri sezilarli darajada oshdi.

Qonunchilik palatasida birinchi marta parlamentdagi ko‘pchilik – Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va shuningdek, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyalarini birlashtirgan Demokratik blok shakllandi. Ayni vaqtida O‘zbekiston xalq demokratik partiyasi fraksiyasi timsolida parlamentdagi muxolifat tashkil topdi.

Oliy Majlisning qonun ijodkorligi faoliyatida mamlakatimizda iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlarni, qulay investitsion muhitni shakllantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash, bank-moliya tizimini rivojlantirishni normativ-huquqiy jihatdan ta’mil masalalari alohida o‘rin egalladi.

Bu davrda xususiy mulkni huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish, mamlakatimizda har tomonlama baquvvat mulk egalari sinfini shakllantirish, fermerlik harakatini mustahkamlash, iqtisodiyotni yanada liberallashtirishni ta’mil qilish, tadbirkorlik, avvalo kichik biznes faoliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, keng tarmoqli bozor infratuzilmasini barpo etishni ko‘zda tutadigan qonun hujjatlarining butun bir majmuasi qabul qilindi.

Aholi daromadlari va xalq farovonligini uzlusiz oshirib borish, keng miqyosdagi ijtimoiy dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish masalalari parlamentning e'tibor markazida bo'ldi.

Iqtisodiy islohotlarni qonuniy jihatdan ta'minlashga yo'naltirilgan bunday va boshqa bir qator tadbirlar 2009-2012 yillarga mo'ljallangan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini imkon qadar kamaytirishga qaratilgan Inqirozga qarshi choralar dasturini samarali amalga oshirishni huquqiy ta'minlash, dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida O'zbekistonga iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolish va aholining real daromadlarini oshirish imkonini berdi.

Bu xulosalarni tasdiqlaydigan raqamlar haqida gapiradigan bo'lsak, og'ir kelgan 2009 yilda mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti 8,1 foizga o'sgani, sanoat sohasi 9 foizga, iqtisodiyotimizga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 26 foizga, shu jumladan, tashqi investitsiyalar 68 foizga oshgani, tashqi savdoning ijobiy saldosi 2,3 milliard dollardan ko'proqni tashkil etgani, o'rtacha oylik darajasining o'sishi 40 foizga, aholi daromadlari esa 26,5 foizga ko'payganini ta'kidlash lozim. Mana shu misollarning o'ziyoq biz erishgan ko'pgina yutuqlarning yaqqol dalili bo'la oladi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, parlamentimiz sud-huquq tizimini chuqur isloh qilish va liberallashtirish, sud hokimiyatining amaldagi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan keng miqyosli ishlarga ham salmoqli hissa qo'shdi. O'tgan besh yil mobaynida qabul qilingan 58 ta qonunga muvofiq, sud-huquq tizimidagi islohotlar yanada chuqurlashtirildi.

Shu davrda jinoiy jazo tizimini liberallashtirish, amalda sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash jarayonlariga katta e'tibor berildi. Advokatura instituti isloh etildi. Sud qarorlarini ijro etish tizimi, prokuratura faoliyati takomillashtirildi, butun sud-huquq tizimini bosqichma-bosqich demokratlashtirishga qaratilgan boshqa bir qator chora-tadbirlar amaliyotga tatbiq etildi.

Mamlakatimizda 2008 yil 1 yanvardan boshlab o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida, shuningdek, fuqarolarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini prokuraturadan sudlarga o'tkazish to'g'risida 2007 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonunlari butun dunyoda ulkan qiziqish va e'tibor uyg'otdi. Mazkur chora-tadbirlarning joriy etilishi bilan

O‘zbekistonda dunyodagi eng insonparvar, liberal jinoiy jazo tizimlaridan biri yaratildi.

Demokratik islohotlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan fuqarolik jamiyatni institutlarini mustahkamlash va rivojlantirish, mustaqil ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish bo‘yicha ham ko‘p ishlar amalga oshirildi.

Keyingi yillarda ommaviy axborot vositalarini yanada demokratlashtirish va liberallashtirish, olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy islohotlarning ochiqligi va oshkoraligini ta’minlashda ularning faolligini oshirish, media makonga ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bevosita joriy etishga qaratilgan qariyb 10 ta qonun hujjati qabul qilindi.

2008 yilning iyul oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi har ikki palatasi kengashlarining “Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori qabul qilindi.

Bu hujjat nodavlat notijorat tashkilotlarning, fuqarolik jamiyatni institutlarining mustaqil rivojlanishini bosqichma-bosqich ta’minlash, mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida ularning roli va ahamiyatini kuchaytirish yo‘lida yana bir muhim qadam bo‘ldi.

Mazkur qo‘shma qarorga binoan nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishning mustaqil, demokratik prinsiplarga asoslangan tizimi yaratildi.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

Erishilgan yutuqlarni qayd etar ekanmiz, shu bilan birga, avvalgi parlamentimiz faoliyatidagi kamchilik va nuqsonlar, foydalanilmasdan qolgan imkoniyatlar haqida ham aytib o‘tishni zarur, deb bilaman. Bugun, Oliy Majlisning kelgusi besh yildagi faoliyatining asosiy vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari belgilab olinayotgan bir paytda bu ayniqsa muhimdir.

Birinchidan, shuni tan olish kerakki, Qonunchilik palatasi faoliyatidagi eng katta kamchiliklardan biri uning qonun ijodkorligi ishlari bo‘yicha chuqur va har tomonlama puxta ishlab chiqilgan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar jarayonining talablari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, uzoq istiqbolga mo‘ljallangan o‘z dasturiga ega emasligida ko‘rinadi.

Bu ko‘pincha qonunlarning aniq bir tizimga rioya qilmagan holda, ularning qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo‘lgan subyektlar tomonidan kiritilishiga qarab qabul qilinishiga olib kelayotgan sabablardan biridir.

Ikkinchidan, iqtisodiy, siyosiy, gumanitar sohalarda jadal rivojlanayotgan islohotlarni amalga oshirish uchun hayotiy zarur bo‘lgan qonunlarni kiritish tashabbusi bilan chiqishda va ularning qabul qilinishini tezlashtirishda deputatlar korpusining sustkashligi, bu borada yetarlich faollik ko‘rsatmayotgani jiddiy kamchilik hisoblanadi. Keyingi besh yil mobaynida Qonunchilik palatasiga taqdim etilgan 297 ta qonun loyihasidan atigi 44 tasi deputatlar tashabbusi bilan kiritilgan.

Ayni paytda, 42 ta qonun loyihasi bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etilgan, 160 tadan ziyod qonun loyihasi esa mamlakatimiz hukumati tomonidan kiritilgan bo‘lib, ularning aksariyat qismi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlarining ijrosini ta’minlash munosabati bilan taqdim etilgan.

Uchinchidan, qabul qilinayotgan qonunlarning sifatini tubdan yaxshilash talab etiladi. Ularning ko‘pchiligi amaldagi qonun hujjatlariga o‘zgartish, tuzatish va qo‘srimchalar kiritishga qaratilgan bo‘lib, kodifikatsiyalashish xarakteriga, ya’ni, muayyan darajada tizimlashuv mazmuniga ega emas.

Qabul qilinadigan qonun loyihalari amaldagi qonun hujjatlaridan farq qiladigan tafovutlarga, takrorlarga yo‘l qo‘ylganini, boshqa hujjatlarga havola qilish holatlari ko‘pligini qayd etish lozim.

Va eng asosiy kamchilik qabul qilinadigan qonunlarda aksariyat o‘rinlarda ana shu qonun hujjatlarining hayotga tatbiq etilishini ta’minlaydigan protsessual mexanizmlarning mavjud emasligida ko‘zga tashlanadi. Bu esa o‘z-o‘zidan ushbu hujjatlarning qo‘llanishini sezilarli darajada qiyinlashtiradi, qonunlarning ijro etilmasligiga, huquqiy nigelizmga, ya’ni har qanday huquqiy normaning inkor qilinishiga, huquqni qo‘llash amaliyoti samaradorligining pasayishiga olib keladi.

To‘rtinchidan, qonunda ko‘zda tutilgan deputatlik nazorati va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga ta’sir ko‘rsatish shakllaridan sust foydalanilmoqda.

Quyi palata faoliyat yuritgan butun davr mobaynida atigi bir nechta, xususan, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, kimyo sanoati korxonalari qurilishini jadallashtirish va yangi turdag'i

mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha parlament so‘rovi amalga oshirilganini albatta yetarli deb bo‘lmaydi.

Beshinchidan, parlament deputatlarining o‘z saylov okrugidagi tizimli faoliyatini sezilarli darajada yaxshilash talab etiladi.

Aynan ana shunday faoliyat qabul qilingan qonunlar qanday ishlayotganini, xo‘jalik yuritish amaliyoti bugungi kunda qanday qonunlarga muhtoj ekanini, saylovchilar qanday muammolarga duch kelayotgani va ularni hal etish bo‘yicha nimalar qilish zarurligini aniqlash uchun deputatga imkon bergen bo‘lardi.

Bu haqda ko‘p gapirmasdan, bиргина misolni keltirish mumkin. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи Qonunchilik palatasi deputatining saylov okrugidagi faoliyatini tashkil etish tartibi” palata tomonidan 2008 yilning may oyiga kelib, ya’ni parlament faoliyatining to‘rtinchi yilidagina ishlab chiqilgani va qabul qilinganini aytib o‘tishning o‘zi kifoya, deb o‘layman.

Afsuski, deputatlarning saylov okrugidagi faoliyati asosan shunchaki uchrashuvlar tashkil qilishdan iborat bo‘lib qolgan, tahlillarning ko‘rsatishicha, ular ham ko‘pincha nomigagina o‘tkazilib, faqat shikoyat va savollarga javob qaytarish bilan cheklanilgan.

Oltinchidan, quyi va yuqori palatalar amaliy faoliyatining ayniqsa dastlabki davrida aksariyat hollarda har ikki tomonning o‘z ambitionsiyalarini namoyon etishi bilan bog‘liq bo‘lgan jiddiy muammolar ham kuzatildi, bunday ziddiyatlar qonun hujjatlarini qabul qilish muddati va sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Muxtasar aytganda, O‘zbekistondagi oliy qonun chiqaruvchi organ bo‘lmish Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladigan qonun ijodkorligi jarayonining mustaqil va muqarrar tarkibiy qismi bo‘lgan har qaysi palata faoliyatini ta’minalash jarayoni qiyinchilik bilan yo‘lga qo‘yildi.

Albatta, har qaysi palata tomonidan o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifa va vakolatlarni ado etish asnosida ularning o‘rtasida turli kelishmovchilik va qarama-qarshiliklar vujudga kelishi har tomonlama tabiiy va qonuniy holdir.

Shu fursatdan foydalanib, Senat, uning a’zolari qonunchilik tashabbusi huquqiga ega emasligini ta’kidlab o‘tishni istardim.

Senat – bu vakillik organi va uning ko‘pchilik qismi xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining deputatlari sifatida mamlakatimiz oliy qonun chiqaruvchi organida ana shu mahalliy

Kengashlarning vakolatli vakillari hisoblanadi va ularga hisob beradi. Va shu sababli ham senatorlarning o‘z faoliyatida, qonunlarni muhokama etish va qarorlar qabul qilishda, bиринчи navbatda, umum davlat manfaatlаридан kelib chiqqan holda, bu qonunlarni o‘zlari vakili bo‘lgan hudud va mintaqalar manfaatlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishlari to‘liq qonuniy asosga egadir.

Shuning uchun ham Senat tomonidan biron-bir qonun qaytarilgan vaziyatda taqdim etilgan loyihalarning mohiyati va ma’no-mazmuni bo‘yicha quyi va yuqori palatalar kelishuv komissiyalari doirasida vujudga keladigan babs-munozaralarni biz demokratik parlament ishining tabiiy va sog‘lom shakli sifatida ko‘rishimiz darkor.

Hurmatli deputat va senatorlar!

Oliy Majlisning o‘tgan davrdagi faoliyatini talabchanlik ruhida, tanqidiy baholar ekanmiz, parlament ishida yo‘l qo‘yilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etmasdan, sustkashlik va o‘zibo‘larchilik holatlariga barham bermasdan turib, deputat va senatorlar o‘z oldida turgan vazifalarni samarali hal etishga, saylov paytida saylovcilariga bergen yuksak va‘dalarining ustidan chiqishga erisha olmasligini yaqqol anglab, tushunib olishimiz kerak.

Ayniqsa, yangitdan saylangan parlament sifat jihatidan yangicha siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda faoliyat yuritishi zarurligi barchamizga aniq-ravshan ayon bo‘lishi lozim.

Bugungi kunda davlat va jamiyat qurilishi sohasida mamlakatimiz oldida o‘zining miqyosi va qamroviga ko‘ra ulkan vazifalar turibdi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hali-beri davom etayotgan og‘ir bir sharoitda iqtisodiy optimizning yanada barqaror rivojlanishini ta‘minlash, uni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash borasidagi ishlarni izchil davom ettirishimiz zarur.

Mintaqamizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta‘minlash, shu muqaddas zaminimizda hukm surayotgan tinch-osoyishta hayotni saqlash kabi biri-biridan mas’uliyatli va keng ko‘lamli bir qator vazifalar borki, yurtimizning, jondan aziz farzandlarimizning bugungi va ertangi kuni ana shu masalalarni qanchalik muvaffaqiyat bilan hal etishimizga bog‘liqdir.

Mana, yon qo‘srimiz Afg'onistonda 30 yildan buyon davom etayotgan qurolli mojaroning hali-beri oxiri ko‘rinmayapti. Xalqimizda

“Qo‘shning tinch – sen tinch” degan maqol bejiz aytilmagan. Qo‘shni mamlakat hududida mana shunday keskinlik saqlanib turar ekan, albatta, mintaqamizda tinchlik-barqarorlikka nisbatan tahdid ham saqlanib qolaveradi.

Afg‘onistondagi murakkab vaziyatni hal etish bo‘yicha O‘zbekiston eng nufuzli xalqaro minbarlardan muhim amaliy tashabbuslarni doimiy ravishda bayon qilib kelmoqda. Ayniqsa, NATO/SEAP tashkilotining 2008 yil aprel oyida bo‘lib o‘tgan Buxarest sammitida O‘zbekiston Prezidenti tomonidan afg‘on muammosini faqat harbiy yo‘l bilan yechib bo‘lmasligi haqidagi fikr birinchi bo‘lib o‘rtaga qo‘yilgan va bu mojaroni siyosiy yo‘l bilan hal etish maqsadida “6+2” muloqot guruhini “6+3” guruhiga aylantirish haqidagi taklif ilgari surilgan edi. Bu guruhga Afg‘oniston bilan qo‘shni bo‘lgan davlatlar, AQSH va Rossiya hamda NATO tashkilotining vakolatli vakillari kirishi nazarda tutiladi. O‘zbekistonning bu taklifi dunyo siyosiy jamoatchiligidagi katta qiziqish uyg‘otgani sizlarga yaxshi ma’lum, deb o‘layman.

Afg‘on mojarosini hal qilish uchun 30 yil davomida milliard-milliard dollar mablag‘ sarflandi. Lekin, ahvol ijobjiy tomonqa o‘zgarish o‘rniga, aksincha, mamlakatdagisi keskinlik kuchayib bormoqda.

Avvalo, mahalliy xalq, qaysi millat va elatga mansubligidan qat‘i nazar, bir-biri bilan kelishishi kerak, buning uchun ularga yordam, birinchi navbatda iqtisodiy yordam berish lozim.

Eng muhimi, afg‘on xalqining milliy urf-odatlari va madaniyatini, diniy qadriyatlarini hurmat qilish zarur. Boshqacha aytganda, avvalo xalqni hurmat qilish, keyin unga aql o‘rgatish kerak.

Shu kunlarda Afg‘oniston masalasi bo‘yicha Londonda bo‘lib o‘tadigan xalqaro anjumanda ana shunday yondashuv asosida umumiyligi qaror qabul qilinishi haqida fikrlar bildirilmoqda. Ya’ni, dunyodagi ko‘pgina davlatlar afg‘on muammosini faqat harbiy yo‘l bilan hal qilish mumkin emasligini har tomonlama anglab, amaliy xulosalarga kelmoqda. Bu, o‘z navbatida, Buxarest sammitida O‘zbekiston ilgari surgan tashabbusning naqadar to‘g‘ri ekanini yana bir bor ko‘rsatmoqda.

Qisqacha aytganda, jafokash afg‘on zaminida tezroq tinchlik qaror topishi uchun jahon hamjamiyati, avvalambor iqtisodiy-moliyaviy, ijtimoiy-gumanitar yordam ko‘rsatishi va bu ishlarning barchasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahnamoligida amalga oshirilishi zarur.

Bugungi kunda dunyodagi ko‘pgina davlatlar tomonidan Afg‘onistonga ana shunday yordam ko‘rsatilmoqda. Albatta, bu mamlakatda tinchlik va barqarorlik o‘rnatishdan avvalo unga qo‘shni bo‘lgan davlatlar manfaatdordir.

O‘zbekiston hozirgi vaqtida yaqin qo‘shni davlat sifatida Afg‘onistonga katta yordam bermoqda. Jumladan, 2010 yilda O‘zbekiston bu mamlakatga yetkazib berayotgan elektr energiyasi miqdori o‘tgan yillarga nisbatan 6 barobarga oshirildi.

Shu kunlarda O‘zbekistonning quruvchi va mutaxassislari tomonidan “Termiz – Hayraton – Mozori Sharif” temir yo‘lini qurish ishlari boshlanmoqda va ishonamanki, u yil oxiriga qadar yakuniga yetkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, parlamentimizning bugungi kunda mintaqamizda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash masalasida mas’uliyati katta. Buni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak.

Aziz do‘sstar!

Yuqorida zikr etilgan masalalarning barchasi parlamentimizdan yuksak tashabbuskorlikni, qonun ijodkorligi faoliyati samaradorligini oshirish yo‘lida muntazam izlanishni, har bir deputat va siyosiy partiyadan esa avvalambor ular saylov davrida o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarishni talab etadi.

Qonunchilik va normativ-huquqiy bazadagi kamchilik va nuqsonlarga imkon qadar tezroq barham berish, huquqni qo‘llash amaliyotida g‘oyat jiddiy o‘zgarishlarni joriy etish, huquqni muhofaza qilish va sud organlarining faoliyatida faqat va faqat qonunga rioya etilishini ta’minalash bilan bog‘liq ishlarni takomillashtirish darkor.

Bu vazifalar biz barpo etayotgan huquqiy davlatni shakllantirishda naqadar muhim ahamiyatga ega ekanı haqida, o‘ylaymanki, ortiqcha gapirib o‘tirishning hojati yo‘q.

Ayni paytda, shuni ham o‘zimizga yaqqol tasavvur qilishimiz kerakki, iqtisodiy o‘sishni ta’minalash, odamlarimizning hayot darajasini yanada yuksaltirish, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalardagi boshqa ko‘plab vazifalarga ijobjiy yechim topish eng muhim bir vazifani muvaffaqiyatlil hal etishni talab qiladi.

Bu vazifa avvalambor demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lidan jadal va samarali ilgarilab borishdan iboratdir.

O‘ylaymanki, Qonunchilik palatasida ham, Senatda ham, oldimizda turgan ishlarning amaliy dasturini tayyorlash jarayonida ana shu vazifalarning barchasi hisobga olinadi va oxirigacha puxta ishlab chiqiladi.

Mening chuqur ishonchim bo‘yicha, eng muhim, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi masalalar doimiy e’tiborimiz markazida turishi darkor.

Birinchi. Mana shu yuksak minbardan turib qat’iy ta’kidlashni istardim: agarki, biz iqtisodiy va sotsial sohani isloh etish jarayonlarini ijtimoiy-siyosiy va sud-huquq tizimini muntazam yangilab borish jarayonlari bilan o‘zaro aniq va chuqur, uzviy bog‘liq holda amalga oshirishni ta’milamas ekanmiz, mamlakatimizni modernizatsiya qilish borasida belgilab olgan yuksak marralarimizga erisha olmaymiz.

Shu borada Konstitutsiyamiz muhrlab qo‘ygan davlat hokimiyati tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga rioya qilgan holda, parlament hokimiyatining amaliy rolini kuchaytirish masalalari e’tiborimiz markazida turishi kerak.

Bu o‘ta muhim vazifalarni amalga oshirishda ko‘ppartiyaviylik tizimining rivojlanishiga, siyosiy partiyalar faolligining keskin oshishiga, ular o‘rtasida raqobat asosidagi kurashning kuchayishiga sharoit tug‘dirib berish alohida o‘rin tutadi.

Biz o‘z oldimizga qo‘yayotgan bu vazifaning tub mohiyati shundaki, u partiyalar o‘rtasidagi saylovoldi kurashi, Oliy Majlisimizning yangi tarkibini shakllantirish paytida bo‘lib o‘tgan g‘oya va dasturlar kurashi parlamentning kundalik faoliyatida ham davom etishini va yanada chuqurlashib borishini nazarda tutadi.

Aynan parlament faoliyatida, ta’bir joiz bo‘lsa, g‘oya va dasturlar bellashuvi doimiy tus olishi, har qaysi partiya o‘z oldiga qo‘ygan maqsad-muddaolariga ana shunday kurash orqali erishishi lozim.

Ishonchim komilki, Qonunchilik palatasidagi turli siyosiy fraksiyalar o‘rtasidagi raqobat qanchalik keskin va kuchli bo‘lsa, jamiyatimizning muayyan siyosiy kuchlari va ijtimoiy qatlamlari manfaatlarini o‘zida ifoda etadigan har qaysi partiyaning g‘oyalari, dasturiy vazifalari hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etilishining kafolati ham shunchalik mustahkam bo‘ladi.

Bularning barchasi, hech shubhasiz, qabul qilinadigan qonunlarning sifatini oshirishga, parlament rolining, uning mamlakatimizda yuz berayotgan jarayonlarga ta’sirining kuchayishiga yordam beradi.

Partiyalar o‘rtasidagi bahs-munozaralar jiddiy, professional va amaliy negizda olib borilishi darkor. Aynan shuning uchun ham siyosiy partiyalar o‘z elektoratini o‘ylantirayotgan sotsial-iqtisodiy muammolarni yanada chuqurroq o‘rganishga va ularni hal etish bo‘yicha zarur choralarini ko‘rishga butun diqqat-e’tiborini qaratishi kerak.

Bu haqda gapirganda, “mamlakat rahbariyatining islohotlarni amalga oshirish borasidagi strategik yo‘lini siyosiy qo‘llab-quvvatlaymiz” degan umumiyligi gaplardan amaliy faoliyatga o‘tish, chuqur o‘ylangan, shu jumladan, muqobil, raqobatdosh loyihibar va har qaysi partiya yoki harakatning aniq maqsadli vazifalarini o‘zida mujassam etadigan dasturlarni taqdim etgan holda, faol ish olib borish davri kelganini ta’kidlash lozim.

Bunda joylarda islohotlarning ijtimoiy samarasini oshirishga xalaqit berayotgan jiddiy kamchilik va nuqsonlarni aniqlash, ularni ochiq, oshkora va amaliy ruhda muhokama qilish, o‘z xizmat joyida zimmasiga yuklangan majburiyatlarni uddalay olmayotgan davlat organlari, xo‘jalik boshqaruvi, nazorat va huquqni muhofaza qilish tizimlarining rahbarlarini asosli tanqid qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, elektorat bilan ish olib borishning zamonaviy usullaridan, umume’tirof etilgan siyosiy texnologiyalardan keng foydalanish, partiyaviy nashrlarni partiyalararo qizg‘in bahs-munozaralar minbariga aylantirish zarurligini hammamiz yaxshi tushunamiz.

Parlamentimiz va mahalliy vakillik organlari – Kengashlar oldida turgan ikkinchi g‘oyat muhim vazifa – bu qabul qilingan qonunlarning ijro etuvchi hokimiyat, ya’ni hukumat tomonidan markazda, hokimliklar tomonidan esa joylarda qanday bajarilayotgani ustidan qat’iy parlament nazoratini, deputatlik nazoratini o‘rnatishdan iboratdir.

Shuni ochiq tan olish kerak, Qonunchilik palatasi va Senatda, afsuski, bu boradagi ishlar o‘ta qoniqarsiz yo‘lga qo‘yilgan. Qonunchilik palatasi va Senatda qonunlar ijrosi, tegishli tarmoqlarda ustuvor davlat dasturlarining bajarilishi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o‘rnbosarlari, vazirlik va qo‘mitalar, ijro etuvchi tashkilotlar rahbarlarining axborot va hisobotlari kamdan-kam eshitiladi va muhokama qilinadi.

O‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, parlamentda bunday hisobotlarni eshitish ko‘proq umumiyligi, ya’ni tanishuv holatiga ega bo‘lib, ko‘rilayotgan masala bo‘yicha muayyan qo‘mita yoki komissiyaning

pozitsiyasi aniq belgilab olinmagan, har tomonlama puxta ishlab chiqilib tavsija etilgan biron-bir dastur va hujjat qabul qilinmagan.

Kelgusida qonun chiqaruvchi hokimiyat nazorat vakolatlarini amalga oshirishning qonunda ko‘zda tutilgan huquqiy norma va mexanizmlaridan markazda va joylarda keng foydalanish uchun barcha zarur choralar ni ko‘rish kerak.

Davlat tuzilmalari rahbarlarining ularga ishonib topshirilgan tarmoqlarda qonun hujjatlarini ijro etish holati bo‘yicha hisobotlarini eshitib borish parlament faoliyatining kundalik ishiga aylanishi darkor.

Shu bilan birga, ijro hokimiyati rahbarlari, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a‘zolarining ular bevosita mas’ul bo‘lgan sohalarda qonunlarning qanday bajarilayotgani bo‘yicha hisobotlarini tinglab borish amaliyotini kengaytirish zarur.

Xususan, parlament nazoratini amalga oshirish jarayonida davlat tuzilmalarining iqtisodiyot sohasiga asossiz aralashuvini kamaytirish choralariga alohida ahamiyat qaratish kerak.

2009-2012 yillarga mo‘ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini, unda ko‘zda tutilgan ijtimoiy-iqtisodiy sohaning izchil rivojlanishini, mamlakatda barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalariga alohida e’tibor berish zarur.

Parlament nazoratining parlament so‘rovi, parlamentda hisobotni eshitish va parlament faoliyatining qonunda ko‘zda tutilgan boshqa shakllaridan keng foydalanish lozim.

Parlament so‘rovida ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha asoslangan izoh va har tomonlama tushuntirish berish davlat hokimiyati va boshqaru idoralari mansabдор shaxslarining bevosita vazifasi hisoblanadi.

Bu vazifaning bajarilishi bo‘yicha javobgarlik barcha bo‘g‘indagi davlat hokimiyati idoralarining rahbarlari va prokuratura zimmasiga yuklatilishi kerak.

Ijro etuvchi hokimiyat ustidan parlament nazoratini kuchaytirish vazifasini muvaffaqiyatli hal etish ko‘p jihatdan ommaviy axborot vositalari, keng jamoatchilikning bu jarayondagi faol ishtirokiga bog‘liqdir.

Bu borada partiyalarning matbuot nashrlari oldida katta va mas’uliyatli vazifalar turibdi. Lekin, afsuski, bunday nashrlar hali-beri zaif bo‘lib, sodda qilib aytganda, “tish-tirnoqsiz” bo‘lib qolayotganini qayd etish lozim.

Parlamentning mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan demokratik yangilanishlar, liberal islohotlar targ‘ibotchisiga aylanishiga erishish eng asosiy vazifa bo‘lmog‘i zarur.

Mazmun-mohiyatiga ko‘ra, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni, biz tanlagan davlat va jamiyat qurilishi modelini tatbiq etish jarayonida fuqarolarning mamlakat boshqaruvidagi rolini oshirib borishni asosiy o‘ringa qo‘yadigan “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha ishlarni yanada faollashtirish masalasini bugun hayotning o‘zi kun tartibiga tobora qat’iy qilib qo‘ymoqda.

Bu amalda fuqarolik jamiyati institutlarining butun tizimini rivojlantirishni, uning mamlakatni, ma’muriy-hududiy tuzilmalarni boshqarish jarayoniga uyg‘un ravishda integratsiyalashuvini anglatadi.

Siyosiy partiyalarning markazda va joylarda ijro etuvchi hokimiyat idoralarini shakllantirish jarayoniga faol ta’sirini ta’minlash uchun barcha tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlardan to‘laqonli foydalanish darkor.

Shu maqsadda Xalq deputatlari mahalliy kengashlaridagi partiylar guruhlari faoliyatini jonlantirish, barcha bo‘g‘indagi ijro etuvchi tuzilmalarning mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga doir amaliy vazifalarni hal etish ishiga partiyalarning ta’sirini oshirish darkor.

Fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada rivojlantirish qonunchilik faoliyatining muhim yo‘nalishi bo‘lishi zarur, deb hisoblayman.

Toki bu institut va tashkilotlar qarorlar qabul qilish, o‘zları mansub bo‘lgan ijtimoiy qatlam va tuzilmalarning manfaatlarini himoya qilish tizimida munosib o‘rin egallay olsin.

Shu munosabat bilan bugungi kunda ekologik yo‘nalishdagi 100 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotni birlashtirgan O‘zbekiston Ekologik harakatidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar oldida katta va mas’uliyatli vazifalar turibdi.

Mazkur harakatdan saylangan deputatlar atrof muhitni muhofaza qilish sohasiga oid qonunchilikni yanada rivojlantirishga, markazda va joylarda davlat hokimiysi idoralari, shuningdek, turli ijtimoiy va boshqa tuzilmalarning bu sohada shu paytga qadar qabul qilingan hujjatlarni so‘zsiz bajarish bo‘yicha mas’uliyatini oshirish yuzasidan tizimli ishlarni tashkil qilishga ko‘maklashishlari lozim.

Barchamiz bir oddiy haqiqatni qat’iy va aniq anglab olishimiz kerak – bundan buyon O‘zbekiston Ekologik harakati yangi sifat bosqichiga ko‘tariladi, yuksak deputatlik minbaridan turib atrof muhitni muhofaza qilish masalalarini o‘rtaga qo‘yish va nazorat qilish, insonni va mamlakat aholisini ekologiyaning xavfli hamda tajovuzkor o‘zgarishlaridan himoya qilish uchun ulkan imkoniyatlarni qo‘lga kiritadi.

Fuqarolik jamiyatni institutlari, jumladan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyat va davlat qurilishi tizimidagi huquq hamda vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish masalasi ustuvor yo‘nalishga aylanishi zarur.

Bugungi kunda joylarda fuqarolarning eng dolzarb muammolarini o‘z vaqtida va muvaffaqiyatli hal etish, ularning manfaatlarini himoya qilishda mahalla tizimining ta’siri va ahamiyati qanchalik ortib borayotganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Mahallaning aholimiz, ayniqsa, yoshlarimizning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarni yechish, ijtimoiy sohaning samarali faoliyat yuritishini ta’minalash, joylarda jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash borasidagi hissasi tobora kuchayib bormoqda.

Shu munosabat bilan mahalla faoliyatining huquqiy bazasini takomillashtirish, uning samarali faoliyat yuritish mexanizmlari va vakolatlarini kengaytirish bundan keyin ham bizning ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi.

Mahallani aholini aniq yo‘naltirilgan asosda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish yo‘lida boshlagan ijobiy ishlarimizni izchil davom ettirishimiz va yangi bosqichga ko‘tarishimiz darkor.

Boshqaruv idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishda mahallaning vazifalarini kengaytirib borish, davlat ijtimoiy dasturlarining hayotga tatbiq etilishi bo‘yicha joylarda amalga oshirilayotgan ishlardan jamoatchilikni keng xabardor qilish maqsadida davlat organlarining fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari bilan mustahkam hamkorligini ta’minalash bundan buyon ham doimiy e’tiborimiz markazida bo‘lishi kerak.

Mahallaning fuqarolarning eng dolzarb muammolarini hal etish, ularning ijtimoiy faolligini ta’minalashdagi o‘rni va ahamiyati ortib borayotganini inobatga olgan holda, oqsoqollar va ularning maslahatchisi etib eng munosib nomzodlar saylanishini ta’minalaydigan fuqarolar yig‘ini

raislari (oqsoqollar) va ularning maslahatchilarini saylash tizimini yanada takomillashtirish talab etilmoqda.

Bugun hayotning o‘zi oldimizga fuqarolik jamiyatni institutlari tizimida ommaviy axborot vositalarining o‘rni va rolini yanada mustahkamlash vazifasini qat’iy qilib qo‘ymoqda. Ommaviy axborot vositalarini yanada erkinlashtirish, nodavlat matbuot nashrlari, radio, televide niye faoliyatini jonlantirish, ularning Internet global tarmog‘iga kirish imkoniyatlarini kengaytirish olib borilayotgan islohotlar siyosatining ochiqligi va oshkoraligini ta’minalashga, kuchli fuqarolik jamiyatining izchil shakllanishiga madad berishi darkor.

Milliy matbuotimizning sifatini, mahorat va ta’sirchanligini oshirish, uni rivojlangan davlatlarning ommaviy axborot vositalari erishgan yuksak talab va mezonlar darajasiga ko‘tarish uchun imkon beradigan shart-sharoitlarni yaratish maqsadida ommaviy axborot vositalari sohasidagi qonunchilikni yanada takomillashtirishni ta’minalash zarur.

Ommaviy axborot vositalariga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ichki va tashqi siyosatni, yurtimizda va xorijda sodir bo‘layotgan voqealarни fikrlar xilma-xilligini hisobga olgan holda yanada faolroq yoritish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar tug‘dirib berish lozim.

Nodavlat ommaviy axborot vositalarining tobora kengayib borayotgan tarmog‘i faoliyatining, mualliflik huquqi va intellektual mult himoyasining, shuningdek, axborot sohasiga bozor mexanizmlarini joriy etishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirishni ta’minalash muhim ahamiyatga ega.

Bu borada ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, soha xodimlarining mehnatini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy mexanizmlarni yaratish masalalari dolzarb o‘rin egallaydi.

Soha xodimlarining mehnatini munosib baholash, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash gazeta va jurnallar tahririylarining mustaqilligi va erkinligini amalda ta’minalash bilan birga, ularning mas’uliyatini ham oshirishni ko‘zda tutadi.

Qadrli vatandoshlar!

Bo‘lib o‘tgan saylovlarda xalqimiz avvalo mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, siyosiy-ijtimoiy hayotimizni modernizatsiya qilish va demokratlashtirish, bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, tinchliksevar tashqi siyosat olib borish uchun ovoz berdi.

Bugungi kunda el-yurtimiz o‘zi saylagan deputatlar va senatorlarga, islohotlar taqdiri uchun mas’ul bo‘lgan barcha-barcha insonlarga katta umid va ishonch bilan qaramoqda. Bunday yuksak ishonchni oqlash barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir.

Hammangizga sihat-salomatlik, deputatlik va senatorlik faoliyatingizda kuch-quvvat va omad, xonadonlaringizga baxtu saodat va farovonlik tilayman.

2010-yil, 27-yanvar

ASOSIY VAZIFAMIZ – VATANIMIZ TARAQQIYOTI VA XALQIMIZ FAROVONLIGINI YANADA YUKSALTIRISHDIR

Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Bizning bugungi asosiy vazifamiz jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi chuqur tus olgan bir sharoitda o'tgan 2009 yil yakunlarini tanqidiy baholash va shu asosda 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishdan iboratdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, avvalo 2009–2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi samaradorligini xolisona baholash muhim prinsipial ahamiyat kasb etadi.

Nega deganda, 2010 yilda va undan keyingi yillarda ushbu dasturni amalga oshirish jarayonida, zarurat tug'ilishiga qarab, unga tegishli o'zgartirishlar kiritishda ana shu tahlil xulosalariga tayanishimiz mumkin bo'ladi.

O'tgan yil yakunlari haqida gapirganda, 2009 yil biz uchun haqiqatan ham g'oyat qiyin bo'lganini aytib o'trishga hojat yo'q, deb o'layman.

2009 yil, mohiyat e'tiboriga ko'ra, avvalo, eski ma'muriy-buyruqbozlik, taqsimlash tizimidan bozor munosabatlariiga asoslangan boshqaruv tizimiga o'tish bo'yicha biz tanlagan, mashhur besh tamoyilni o'z ichiga olgan o'zbek modeli, davlatimiz va iqtisodiyotimizni bosqichma-bosqich, izchil isloh etish va tadrijiy rivojlantirish strategiyasi uchun tom ma'noda sinov yili bo'ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Shuni bugun katta mammuniyat bilan ta'kidlashimiz kerakki, hukumatimiz tomonidan 2009–2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi dasturning inqiroz ta'sirini yumshatish va bartaraf etishda roli va ahamiyati katta bo'ldi.

Dastur o‘ziga qamrab olgan, o‘z vaqtida qabul qilingan hujjatlarda avvalo mamlakatimiz moliyaviy-iqtisodiy, budget, bank-kredit tizimining barqaror hamda uzlusiz ishlashini ta’minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarga yordam ko‘rsatish, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning puxta ishlab chiqilgani o‘zining amaliy samarasini berdi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Amalga oshirgan tadbirlarimiz qatorida moliya-bank tizimini mustahkamlash masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

So‘nggi ikki yilda tijorat banklarining umumiy kapitali 2 barobar ko‘paydi. Birgina o‘tgan yilning o‘zida yetakchi banklarning nizom jamg‘armalarini oshirish uchun qo‘srimcha ravishda 500 milliard so‘mdan ortiq davlat mablag‘lari ajratildi.

Bugungi kunda O‘zbekiston bank tizimi qat’iy xalqaro talablarga javob beradigan eng barqaror tizimlardan biri bo‘lib, ayni paytda u belgilangan qator normativlar bo‘yicha mustahkam pozitsiyalarga ega.

Banklarimiz kapitalining yetarlilik darajasi 23 foizdan oshadi. Bu esa banklar monitoringi bilan shug‘ullanadigan xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlardan qariyb 3 barobar ko‘pdir.

Umumiy aktivlari mamlakatimiz bank tizimining 90 foizdan ortig‘ini tashkil qiladigan 14 ta tijorat banki «Fitch Ratings», «Mudis» va «Standart end Purs» kabi yetakchi xalqaro reyting kompaniyalarining «barqaror» degan yuqori reyting bahosini olishga muvaffaq bo‘ldi.

Hozirgi kunda banklarning umumiy aktivlari aholi va yuridik shaxslar hisobraqamlaridagi mablag‘lar miqdoridan 2 barobardan ham ortiq bo‘lib, bu ularning to‘liq himoyasini va to‘lovlarining o‘z vaqtida amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Bank tizimining umumiy joriy likvidligi banklarning tashqi to‘lovlar bo‘yicha joriy majburiyatlaridan 10 barobar ko‘pdir. Boshqacha aytganda, respublikamiz bank tizimining mustahkam himoyasi yaratilgan.

Faqat o‘tgan yilning o‘zida aholi omonatlari miqdori 1,7 barobar oshdi. So‘nggi o‘n yilda iqtisodiyotning real sektorlarini kreditlashga yo‘naltirilgan ichki manbalar 25 barobardan ziyodroq ko‘paydi.

Natijada banklarning kredit portfeli tarkibi tubdan o‘zgardi. Agar 2000 yilda kredit portfelining qariyb 54 foizi tashqi qarzlar evaziga shakllangan bo‘lsa, 2009 yilda banklarimiz jami kredit portfelining 84 foizi ichki manbalar hisobidan shakllantirildi.

Bugungi sharoitda esa bunday ijobiy o‘zgarish iqtisodiyotimizning istiqboldagi taraqqiyoti uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Aytish kerakki, tashqi qarzlar aksariyat hollarda uzoq muddatga, faqat iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha investitsiya loyihibalarini moliyalash uchun jalg qilinmoqda.

Banklarning investitsiya maqsadlariga yo‘naltirilgan kreditlarining umumiyligi portfelidagi ulushi qariyb 70 foizni tashkil etdi, iqtisodiyotimizning real sektoriga yo‘naltirilgan kreditlarining umumiyligi hajmi esa 2009 yilda 2000 yilga nisbatan 14 barobar oshdi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha birinchi navbatda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag‘batlantirish masalalari alohida o‘rin tutdi.

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida 50 ta korxonaning budjet va budjetdan tashqari jamg‘armalarga to‘lovlar bo‘yicha muddati o‘tgan hamda joriy kreditor qarzdorligi qayta ko‘rib chiqildi. Bu mazkur korxonalar tasarrufida 350 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ni qoldirish, ularning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish imkonini berdi.

Hisobot davrida sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi 18 foizga, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, «O‘zmetkombinat» aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasi, «O‘zeltexsanoat» uyushmasi, «O‘zqurilishmateriallari» kompaniyasi singari va boshqa korxona va tarmoqlarda 20–25 foizga kamaydi.

Ma’lumki, past rentabelli va iqtisodiy nochor korxonalarini tugatish va bu jarayonga tijorat banklarini jalg qilishga qaratilgan ishlar korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mamlakatimiz bo‘yicha, yirik korxonalarini ham qo‘shganda, jami 240 ta korxona bankrot deb e’lon qilindi. Ayni paytda ularning 154 tasi yangi mulkdorlarga sotildi, 86 tasi esa tijorat banklari balansiga o‘tkazildi.

Bugungi kunda tijorat banklari balansiga o‘tkazilgan 70 ta iqtisodiy nochor korxonada ishlab chiqarish to‘liq qayta tiklanib, istiqboldi sarmoyadorlarga sotildi, qolganlarida moliyaviy sog‘lomlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Bu borada ko‘rilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotini ortiqcha yukdan xalos qilish, budget va ish haqi bo‘yicha umumiy miqdori 1 trillion so‘m kreditorlik qarzini uzish, bankrot korxonalar negizida 100 dan ortiq yangi turdagи ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, qo‘srimcha ravishda 17 mingdan ortiq ish o‘rni yaratish imkonini berdi.

Keng ko‘lamli ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi doirasida o‘tgan yili 840 dan ortiq loyiha amalga oshirildi va bu mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmini 2008 yilga nisbatan 2,3 barobar oshirishni ta’minladi.

Neft-gaz uskunalar, kimyo sanoati mahsulotlari, avtomobil sanoati uchun butlovchi qismlar va boshqa 120 dan ortiq yangi turdagи mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilib, 2 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi.

Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan yana bir yo‘nalish – mamlakatimizdagi mahsulot eksport qiladigan korxonalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, eksport salohiyatini mustahkamlash bo‘yicha qabul qilingan amaliy choralar muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bunday korxonalarning barqaror ishlashini ta’minalash, tashqi bozorlarda raqobatdoshligini oshirish uchun ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida qat‘iy choralar ko‘rildi.

Energiya manbalari va kommunal xizmatlar narxlarining asossiz oshishiga yo‘l qo‘ymaslik, korxonalarda texnologik jarayonlarni optimallashtirish hisobidan mahsulot tannarxini pasaytirish, eksport narxlarini shakllantirishga doir yangi mexanizmlarni joriy etish, bank kafolatlari muddatlarini uzaytirish, qo‘srimcha qiymat solig‘ini qaytarish muddatini qisqartirish va boshqa rag‘batlantirish choralar shular jumlasidandir.

Respublikamiz banklari tomonidan ko‘rsatilgan yordam mahsulot eksport qiladigan korxonalarning barqaror ishlashini ta’minalashda muhim rol o‘ynadi.

Birgina o‘tgan yilning o‘zida bu korxonalarga aylanma mablag‘larini ko‘paytirish uchun umumiy miqdori 233 milliard so‘mdan iborat imtiyozli kreditlar berilgani ularga, o‘z mahsulotini eksport qilish bo‘yicha yuzaga kelgan vaqtinchalik qiyinchiliklarga qaramasdan, ishlab chiqarishning pasayishini oldini olish imkonini berdi.

Mahsulot eksport qiladigan korxonalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida ularning barqaror ishlashini ta’minalashga, 2009 yilda eksport hajmini 2,4 foiz oshirishga erishdik.

Bu o‘tgan yili tashqi savdo aylanmasini 2,3 milliard dollardan ko‘proq ijobjiy saldo bilan yakunlash imkonini berdi. Bunday natija, o‘z navbatida, mamlakatimizning to‘lov balansining ishonchhliligi va iqtisodiyotimiz barqarorligini yanada mustahkamlashga imkon berdi.

Dastur doirasida amalga oshirgan yana bir muhim tadbirimiz – soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo‘yicha xo‘jalik tuzilmalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qo‘shimcha choralar ko‘rilganidir.

O‘tgan yili mamlakatimiz xo‘jalik subyektlariga keng ko‘lamli qo‘shimcha soliq va bojxona imtiyozlari berildi.

Yengil va oziq-ovqat sanoatining iste’mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalari, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturida ishtiroy etayotgan korxonalar uchun daromad solig‘i va yagona soliq to‘lovi bo‘yicha imtiyozlar yaratildi.

Uy-joy qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha yangi tashkil qilinayotgan ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlari 5 yil muddatga barcha turdag'i soliqlardan ozod etildi. Korxonalar muassislarining kapitallashuv va investitsiya kiritishga yo‘naltiriladigan dividendlari ham ana shu muddatga soliqqa tortilmaydigan bo‘ldi.

Muxtasar aytganda, Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish doirasida soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish hisobidan 500 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ xo‘jalik subyektlari tasarrufida qoldirildi. Bu mablag‘ ularning aylanma mablag‘larini to‘ldirish, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash, yangi turdag'i mahsulotlarni o‘zlashtirish, ishchilarni moddiy rag‘batlantirish uchun yo‘naltirildi.

Iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o‘rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratildi.

Hozirgi kunda kichik biznes subyektlari yalpi ichki mahsulotning qariyb 50 foizini ishlab chiqarmoqda. Holbuki, 2000 yilda bu ko‘rsatkich 30 foizni tashkil etgan edi. Bunday natija birinchi navbatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan doimiy qo‘llab-quvvatlanayotgani samarasidir.

2009 yilda kichik sanoat korxonalari uchun yagona soliq to‘lovi 8 foizdan 7 foizga pasaytirildi, yakka tartibdagи tadbirkorlar uchun esa qayd etilgan soliq miqdori o‘rtacha 1,3 barobar kamaytirildi.

Tadbirkorlarning o‘z ishini tashkil etish bilan bog‘liq sarf-xarajatlari sezilarli darajada kamaydi. Masalan, arxitektura-rejalashtirish topshiriq to‘plamlarini olish qiymati 4 barobar, loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish 2,5 barobar, kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish qiymati esa 2 barobarga pasaytirildi.

Yil davomida inventarizatsiya natijasida aniqlangan qariyb 2 mingta bo‘sh bino kichik tadbirkorlik subyektlariga ijaraga berildi. Bunda binolarni ijaraga berish tariflari tadbirkorlik subyektlarining qayerda joylashgani va ularning faoliyat turiga qarab 3 barobardan 10 barobarga qadar kamaytirildi. Ushbu sektorga ajratilgan kredit resurslarining umumiy hajmi 1,8 trillion so‘mdan oshdi.

Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalg etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo‘nalishga aylandi.

Investitsiya dasturi va texnik modernizatsiyalash bo‘yicha tarmoq dasturlari doirasida 2009 yil mobaynida 690 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Ularning 303 tasi muvaffaqiyatli yakunlandi.

Respublikamizda jami 22 ta yirik ishlab chiqarish obyekti, jumladan, neft-gaz, kimyo, metallurgiya sanoatida 8 ta, mashinasozlik sanoatida 9 ta va qurilish industriyasida 5 ta obyekt foydalanishga topshirildi.

O‘tgan yili “Farg‘onaazot” va “Maksam-Chirchiq” korxonalarida ammiak agregatlarini rekonstruksiya qilish, Namangan shahrida yengil avtomobillar uchun fara va chiroqlar ishlab chiqaradigan zavod, Buxoro shahrida “DEU tekstil” to‘qimachilik kompleksi qurilishi kabi strategik loyihalar nihoyasiga yetkazildi.

“Gazli” qo‘srimcha kompressor stansiyasi ishga tushirildi, shuningdek, “Qo‘ng‘irot” kompressor stansiyasida kuniga 35 million kub metr gazni quritadigan inshoot barpo etildi.

Turkmanistondan O‘zbekiston hududi orqali Xitoya o‘tadigan gaz quvurini tortish ishlari yakunlandi. Bu, o‘z navbatida, mamlakatimizning tranzit imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Bundan tashqari, hududlarimizda, avvalo, qurilish materiallari sanoati, oziq-ovqat, yengil sanoat va boshqa tarmoqlarda kichik biznes sohasida faoliyat olib boradigan 480 dan ortiq yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bir nechta kichik stansiyani o'z ichiga olgan "Yangi Angren–O'zbekiston" LEP-500 elektr uzatish liniyasi, Qamchiq dovoni orqali o'tadigan 165 kilometrlik "Ohangaron–Pungon" magistral gaz quvuri, "G'uzor–Surxon" yuqori voltli elektr uzatish liniyasini qurish bo'yicha strategik investitsiya loyihamonini amalga oshirish natijasida mamlakatimizda yagona elektr va gaz tarmog'i tizimlarini tashkil etish ishlari asosan yakunlandi.

Bu esa Farg'ona vodiysi va O'zbekiston janubida yashaydigan aholini tabiiy gaz va elektr energiyasi bilan ishonchli ta'minlash, shuningdek, elektr energiya eksport qilishni sezilarli ravishda oshirish imkonini beradi.

Yuqori darajadagi xalqaro standartlarga javob beradigan, mamlakatimizning barcha hududlarini o'zaro ishonchli bog'laydigan va mintaqaviy hamda jahon bozorlariga chiqishni ta'minlaydigan O'zbekiston milliy avtomagistralini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha keng ko'lamli dasturni amalga oshirish ham doimiy e'tiborimiz markazida bo'ldi.

O'tgan yilda 217 kilometrlik avtomobil yo'li foydalanishga topshirildi, 538 kilometr yo'l va 19 ta ko'priq kapital ta'mirlandi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun Respublika yo'l jamg'armasi hisobidan 280 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

Yo'l-qurilish texnikasini sotib olish uchun Osiyo taraqqiyot bankining umumiyligi qiymati 56 million dollarga teng bo'lgan imtiyozli kredit resurslari jalb etildi.

Mamlakatimiz temir yo'l transport tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha ishlar davom ettirildi. "Toshguzar–Boysun–Qumqo'rg'on" yangi temir yo'l liniyasida Yaponiya kapitali ishtirokida 5 ta ko'priq foydalanishga topshirildi.

"Navoiy–Uchquduq–Sulton Uvaystog'–Nukus" temir yo'l liniyasining 6 ta yangi razyezdi ishga tushirildi. Temir yo'llarni elektrlashtirish, temiryo'l lokomotivlari parki va harakatdagi tarkibni yangilash loyihamonini amalga oshirish ishlari boshlandi.

2009 yilda Navoiy viloyatida tashkil etilayotgan erkin industrial-iqtisodiy zonaning asosiy obyektlaridan biri sifatida Navoiy shahri

aeroporti bazasida xalqaro tashishlar bo‘yicha intermodal markaz qurilishi yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi.

O‘tgan yil mobaynida “Korean Eyr” kompaniyasidan milliy aviakompaniyamiz ijara olgan zamonaviy transport samolyotlari bilan ushbu aeroportdan xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha 330 dan ortiq reys amalga oshirildi va qariyb 8,5 ming tonna yuk tashildi. Bu Navoiy shahri aeroportini global logistika tarmog‘iga integratsiyalash imkonini berdi.

Angren shahrida mamlakatimiz hududlari va Farg‘ona vodisi viloyatlari o‘rtasida yil davomida kafolatli transport aloqasini ta’minlaydigan Xalqaro logistika markazi qurilishi yakunlandi va foydalanishga topshirildi.

Kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish haqida gapirganda, yuqori texnologik telekommunikatsiya tarmog‘ini rivojlantirish biz uchun muhim strategik ahamiyatga ega ekanini alohida qayd etish darkor.

Bugungi kunda hayotimizni kompyuter texnikasi, axborot texnologiyalari, Internet, mobil telefon aloqasisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Bu yo‘nalishda 2009 yilda 12 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish boshlandi. Zamonaviy texnologiyalar bazasida “Toshkent–Buxoro” magistral aloqa liniyasi kengaytirildi. Bu liniya kanallarning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini 60 barobarga oshirish va shu tariqa videotelefon, Internet va boshqa keng tarmoqli xizmatlar ko‘rsatish imkonini berdi.

Shu bilan birga, “Andijon–O‘sh”, “Qo‘ng‘irot–Beynov”, “Denov–Tursunzoda” va “Termiz–Hayraton” yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro aloqa liniyalari ishga tushirildi.

Yana bir ustuvor yo‘nalish – yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturini amalga oshirish doirasida 2009 yilda 840 kilometrlik kollektor-drenaj tarmoqlari, 250 ta drenaj quduqlar, 15 ta melioratsiya nasos stansiyalari va inshootlari qurildi hamda rekonstruksiya qilindi. O‘tgan yili yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun 130 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirildi.

Natijada 240 ming gektardan ortiq sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati yaxshilandi va bu qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini, fermer xo‘jaliklarining daromadini oshirish imkonini beradi.

2009 yilda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish va kommunikatsiya obyektlari, qishloq xo‘jaligi hamda

meliоратив qurilishni rivojlantirish bilan bir qatorda ijtimoiy sohani yangi bosqichga ko‘tarish masalalari ham e’tiborimiz markazida bo‘ldi.

Ushbu maqsadlar uchun 2009 yilda jami 2,5 milliard dollar miqdorida kapital mablag‘lar yo‘naltirildi. Bu o‘zlashtirilgan kapital mablag‘lar umumiy hajmining 27,8 foizini tashkil etadi.

Aziz do‘sstar!

O‘tgan yili mamlakatimiz hayotida haqiqatan ham ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan eng muhim ijtimoiy dasturlar – Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining ijrosi amalda nihoyasiga yetkazildi. 9 yillik umumta’lim maktab bosqichini va 3 yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim bosqichini o‘z ichiga olgan uzlusiz yaxlit ta’lim tizimi yaratildi.

Bir so‘z bilan aytganda, farzandlarimizga umumiy ta’lim bilan birga zamonaviy kasb-hunarlarga ega bo‘lish imkonini beradigan 12 yillik ta’lim tizimiga o‘tish yakunlanmoqda.

2009 yilda Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligi haqida gapirganda, ularning avvalo eng muhim masalalarga – yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholimizning turmush darajasini yanada oshirishga yo‘naltirilganini alohida qayd etish zarur.

O‘tgan yili ko‘rilgan amaliy choralar natijasida mamlakatimizda 940 mingdan ziyod yangi ish o‘rinlari yaratildi, ularning 500 mingga yaqini qishloq joylarda tashkil etildi. Kichik biznes sohasida 390 mingdan ziyod, shu jumladan, xizmat ko‘rsatish sohasida 270 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari ochildi.

Sanoat korxonalari bilan kooperatsiya asosidagi kasanachilikni hamda pudrat shartnomasi asosidagi uy mehnatini rag‘batlantirish aholi bandligini ta’minalashning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ana shunday mehnat faoliyatini rivojlantirish natijasida 130 mingga yaqin ish o‘rni yaratilganini alohida qayd etish lozim.

Bandlik darajasini oshirishga qaratilgan bunday chora-tadbirlar inqiroz sharoitida aholini ishonchli himoya qilish, uning daromadi va moddiy farovonligini oshirish imkonini ta’minaldi.

Aholining real daromadlari yil davomida 26,5 foizga ko‘paygani, ish haqi, pensiya va nafaqalarning o‘sishi 2009 yilda o‘rta hisobda 40 foizni tashkil etgani buning tasdig‘idir.

Aziz yurtdoshlar!

Mamlakatimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha tanlagan strategiyamizni va Inqirozga qarshi qabul qilgan dasturimizni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barchamizga katta mammuniyat va iftixor bag'ishlaydi, albatta.

2009 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8,1 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 9,0 foizga ko'paydi, qishloq xo'jaligidagi o'sish 5,7 foizni tashkil etdi, chakana savdo aylanmasi 16,6 foiz, aholiga pullik xizmat ko'rsatish 12,9 foizga oshdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'tgan yili yuzaga kelgan murakkab iqlim sharoitiga qaramay, mamlakatimizda ilk bor 7,3 million tonnadan ortiq don, shu jumladan, 6 million 600 ming tonna bug'doy yetishtirildi, 3,4 million tonna paxta xomashyosi tayyorlandi.

O'tgan yili iqtisodiyotga investitsiyalar kiritish hajmi 8,2 milliard dollarni tashkil etdi, bu esa 2008 yilga nisbatan 24,8 foizdan ko'p demakdir. Jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 68 foizga o'sdi, eng muhimi, ularning asosiy qismi to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan investitsiyalar bo'lib, ularning hajmi 1,8 barobar oshdi.

Mamlakatimizda inflatsiya darajasi 7,4 foizni tashkil etib, 2009 yil uchun belgilangan prognoz ko'rsatkichlaridan oshmadidi. Shuni aytish kerakki, davlatimiz budgeti o'tgan yili yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz miqdorda profitsit bilan bajarildi.

O'zbekistonning Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish borasida erishgan yutuqlari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari va iqtisodiy institutlar, jumladan, Xalqaro valuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va dunyoning boshqa bir qator yetakchi moliyaviy institutlari tomonidan e'tirof etildi.

2009 yilning oktabrida yurtimizga tashrif buyurgan Xalqaro valuta jamg'armasi ijrochi direktori missiyasining bayonotida, jumladan, shunday deyiladi: «O'zbekiston hukumati jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan ko'plab resurslarni jamlagan holda, jahon moliya bozorlarida oqilona siyosat olib bordi. Bunday puxta o'ylangan siyosat mamlakatning global iqtisodiy inqiroz ta'siriga samarali qarshi tura olishida muhim omil bo'ldi».

Qadrli do'stlar!

Mamlakatimizni 2010 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga o‘tishdan oldin nufuzli xalqaro ekspertlar va iqtisodechilarining ayrim umumiy xulosalari, ularning 2010 yilda jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari bo‘yicha prognozlari xususida qisqacha to‘xtalish joiz, deb hisoblayman.

Avvalo, shuni aytish kerakki, ularning tahlil va xulosalariga ko‘ra, jahon moliyaviy inqirozining dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga og‘ir ta’siri tobora pasayib boradi va 2010 yilda jahon iqtisodiyotining astasekin o‘sishi kutiladi.

2009 yilda global iqtisodiyotning o‘sishi taxminan 1 foizga qisqargan bo‘lsa, joriy yilda dunyoda iqtisodiy rivojlanish 3 foiz atrofida oshishi mumkin, bu esa inqirozgacha bo‘lgan davrdagi ko‘rsatkichlardan ancha pastdir.

Tahlilchilarning qayd etishicha, ishsizlik darajasining o‘sishi kutilmoqda va bu aholining turmush darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi tabiiydir.

Ikkinchidan. Xalqaro bozorning rivojlanishidagi beqarorlik, ko‘plab mamlakatlarda tovarlarga ichki talabning pasayishi davom etayotgani iqtisodiyotning real sektori sur’atlarining izchil o‘sishi uchun mustahkam asos yaratish imkonini bermayotganini ta’kidlash lozim.

Inqiroz avjga chiqqan davrda davlatlarning iqtisodiyotga keng miqqosda aralashuvi birinchi navbatda bank-moliya tizimi likvidligini qo‘llab-quvvatlashga, ipoteka kreditlari sohasidagi o‘pirilishlarni bartaraf etishga qaratilib, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlariga, ishlab chiqarishga, kichik biznes va tadbirkorlik sohalariga kam e’tibor berilgani vaziyatga salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Shu munosabat bilan korxonalar va kompaniyalarning moliyaviy ahvoli zaifligi, ularning qarzlar va bank kreditlarini qaytarishga layoqatsizligi bilan bog‘liq muammolar joriy yilda iqtisodiyotning real sektoriga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

2010 yilda va keyingi yillarda bank tizimida ipoteka va iste’mol kreditlari bo‘yicha qaytarilmagan kreditlar hajmining o‘sishi oqibatida bankrotlikning yangi to‘lqini xavfi vujudga kelishi mumkin.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish hajmining pasayishi va qisqarishi, ishsizlik darajasining o‘sishi va aholi real daromadlarining cheklanishi soliq tushumlarining jiddiy kamayishiga, davlat budgeti taqchilligining

oshishiga olib kelishi va bu jarayon ayrim mamlakatlarda surunkali tus olishi mumkin.

Uchinchidan. Bozorda iste'mol talabining pasayishi davom etayotgani narx-navo oshishini chegaralab turganligiga, qayerdadir deflyatsiya mavjudligiga qaramay, avvalo pul mablag'larining ulkan emissiyasi hisobidan banklar likvidligini saqlab turish maqsadida banklar va moliyaviy sektorlarning juda katta miqdorda pul kreditlari bilan to'ldirilishi bir qator mamlakatlarda inflatsiya jarayonlarining keskin kuchayib ketish xavfini yuzaga keltiradi.

Bunday sharoitda kuchayib borayotgan inflatsiya darajasini jilovlab turish nihoyatda mushkul vazifaga aylanishini tushunish qiyin emas.

To'rtinchidan. Fond, xomashyo va moliya bozorlarida katta spekulyativ o'yinlar davom etayotgani, real qiymatga ega bo'limgan pul hajmining ko'payishi, boshqacha aytganda, yangi moliyaviy «ko'piklar» xavfining avj olayotgani yana moliyaviy kasodlarga olib kelish xavfini tug'dirishi mumkin.

Beshinchidan. Iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi yo'lidagi eng katta muammolar, avvalo, rivojlanayotgan mamlakatlarda, jahon amaliyotida davom etayotgan proteksionizm siyosati oqibatida vujudga kelmoqda.

“Katta yigirmalik” deb nom olgan davlatlar guruhining yig'ilishlarida bunday noma'qul ishlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi haqida ko'plab bayonotlar berilayotganiga qaramay, erkin iqtisodiyotga yaqqol to'sqinlik qilib turgan proteksionizmdan yaqin orada qutulish qiyin, degan taassurot paydo bo'ladi.

Oltinchidan. Xalqaro valuta jamg'armasi ekspertlarining fikricha, davlatning iqtisodiyotga haddan tashqari aralashuvini kamaytirishga tayyorgarlik ko'rish 2010 yilda va undan keyingi yillardagi ustuvor vazifa bo'lib qolishi zarur.

Moliyaviy-iqtisodiy sohadagi qo'llab-quvvatlash choralarining haddan ziyyod uzoq davom etishi iqtisodiyotni mutanosib rivojlantirishda muvozanatning buzilishi va erkin tadbirdorlikni rivojlantirish yo'lidagi jiddiy cheklashlar kabi xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, moliyaviy inqiroz sharoitida jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga oid bunday baholar va prognozlardan kelib chiqadigan xulosa shundan dalolat beradiki, inqirozning eng og'ir bosqichi ortda

qolganiga qaramay, hali-beri davom etadigan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning butun bir davrini boshdan kechirishga to‘g‘ri keladi.

Inqirozdan chiqish va inqirozdan keyin iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish jarayoni uzoq davomli va o‘ta murakkab bo‘lishi mumkin.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

2010 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim maqsadi va asosiy ustuvor vazifasi – bu islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, 2009-2012 yillarga mo‘ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini so‘zsiz bajarish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur’atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta’minalashdan iboratdir.

Yurtimiz salohiyatining tobora yuksalib borayotgani, so‘nggi yillarda ishga tushirilgan yangi zamонавиу quvvatlar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivoji, tizimli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlar va iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, mamlakatimizda yaratilgan nihoyatda qulay investitsiya muhiti bizga 2010 yilda quyidagi rejalar ni belgilashga asos beradi.

Yalpi ichki mahsulot va sanoat mahsulotlarini 108,3 foizga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini 105 foizga oshirish, iqtisodiyotga investitsiya kiritish hajmini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 30 foizga yetkazish ko‘zda tutilmoqda.

Mahsulot eksportini 8,5 foizga oshirishni ta’minalash, yuqori qo‘srimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulot ulushini oshirish hisobidan uning tarkibini sifat jihatidan o‘zgartirish vazifasi qo‘yilmoqda.

2009 yilga nisbatan budget-moliya va pul-kredit siyosatini, birinchi navbatda, resurslar va energiyani tejaydigan zamонавиу texnologiyalarni joriy etish hisobidan tejamkorlik rejimini yanada qat’ylashtirish mo‘ljallanmoqda. Inflatsiya darajasi 7-9 foiz atrofida bo‘lishi kutilmoqda.

Oldimizga qo‘yilgan bunday maqsadlarga erishish, avvalo, o‘z imkoniyat va resurslarimizni qay darajada safarbar etishimizga, hamon katta xavfi saqlanib qolayotgan inqiroz oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha 2009-2012 yillarga mo‘ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarni so‘zsiz bajarishni nechog‘lik ta’minalay olishimizga bog‘liq.

Bu esa Vazirlar Mahkamasidan har bir alohida yo‘nalish uchun mas‘ul bo‘lgan ijrochilar tomonidan o‘ziga yuklatilgan vazifalarni tarmoq

komplekslari va hududlar bo‘yicha amalga oshirilishini qat’iy va tizimli ravishda nazorat qilishni taqozo etadi.

Davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini va uning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta’sirini e’tiborga olgan holda, bank-moliya tizimining barqarorligini ta’minlash muhim ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bu o‘rinda gap banklarning kapitallashuvi va investitsiyaviy faolligini yanada oshirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarning ustuvor yo‘nalishlarini qayta tiklash va kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan kreditlash hajmini oshirish haqida bormoqda.

Barchamiz oddiy bir haqiqatni yaxshi anglab olishimiz darkor – investitsiyalsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham bo‘lmaydi.

Bu o‘rinda biz nafaqat korxonalar tomonidan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirishni, balki bundan tijorat banklari qanchalar manfaatdor ekani va ular bu loyihalarda o‘z kredit resurslari bilan nechog‘lik faol ishtirok etayotganini ham ko‘zda tutamiz.

Buning uchun tijorat banklari yetarli kapitalga ega, moliyaviy barqaror bo‘lishi lozim, bir so‘z bilan aytganda, ular yirik investitsiya institutlariga aylanishi darkor.

Tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlari ulushini oshirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar tufayli 3 yildan ortiq muddatga berilgan kreditlarning banklar kredit portfelining umumiy hajmidagi ulushi hozirgi paytda 69 foizga yetdi va so‘nggi o‘n yilda 28 barobar ko‘paydi.

Markaziy bank va Moliya vazirligi tijorat banklari bilan birgalikda banklarning jami kapitalini 2010 yilda kamida 20 foizga oshirishi, yaqin ikki yilda esa uning yalpi ichki mahsulotga nisbatan hajmini 10 foizga yetkazishi lozim.

Bu borada bank xizmatining yangi turlarini joriy etish, aholi va xo‘jalik subyektlarining bo‘sh mablag‘larini banklarning uzoq muddatli depozitlariga jalb etishni kamida 30 foizga ko‘paytirish, mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan uzoq muddatli kredit qo‘yilmalari ulushini ichki manbalar hisobidan oshirish uchun mustahkam asos yaratish masalalarini qo‘sishma ravishda ishlab chiqish talab etiladi.

Tijorat banklari faoliyatini baholash mezonlarini o‘zgartirish zarur – bugungi kunda ularning ishini uzoq muddatli kredit qo‘yilmalari

ulushining o'sishi va buning uchun ichki manbalarni jalb etish nuqtai nazaridan baholash kerak.

Shu o'rinda o'z kredit portfelida 85 foizdan ziyod uzoq muddatli kreditga ega bo'lgan Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va 71 foiz ana shunday kreditga ega bo'lgan «O'zsanoatqurilishbank» faoliyatini alohida qayd etishni istardim. Bunday faoliyat boshqa banklar uchun o'rnak bo'lishi lozim.

Tijorat banklarini zarar ko'rib ishlayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarini sog'lomlashtirish jarayoniga jalb qilish tajribasi amalda o'zini to'la oqladi.

Hali ham eski texnika va texnologiyalar asosida ishlayotgan, hech qanday iqtisodiy istiqboli bo'lмаган korxonalarini tugatish va ularning negizida yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish darkor.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermerlikni rivojlantirishni moliyalashda tijorat banklarining rolini kuchaytirish bo'yicha ishlarni davom ettirish zarur.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalariga 2010 yilda kredit resurslari ajratish miqdorini 1,4 barobar ko'paytirish, mikrokreditlar hajmini 1,3 barobar oshirish vazifasi qo'yilmoqda.

Mamlakatimizning raqobatdoshligini oshirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish jarayonlarini chuqurlashtirish siyosatini davom ettirish 2010 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturni amalga oshirishning muhim ustuvor yo'nalishiga aylanishi lozim.

Shuni xolisona tan olish kerakki, bu yo'nalishda ko'p ishlar qilindi va salmoqli natijalar qo'lga kiritildi.

Izchil dasturni amalga oshirish natijasida 2009 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoat ishlab chiqarishi ulushi 2000 yilga nisbatan 14 foizdan 24 foizga, transport va aloqa sohalari ulushi 7,7 foizdan 12 foizga oshdi, ayni paytda qishloq xo'jaligining ulushi esa 30 foizdan 18 foizga kamaydi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotimiz yaqin yillar ichida yanada barqaror, o'ziga baquvvat, jahon va mintaqaviy bozorlarda raqobatdosh bo'lмog'i uchun iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish bo'yicha hali ko'p ish qilish lozimligini ham biz o'zimizga yaxshi tasavvur etamiz.

Bu o‘rinda, mamlakatimiz va mintaqamizdagi mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda, gazni qayta ishslash, neft-kimyo, kimyo sanoati, energetika, avtomobilsozlik, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik, farmatsevtika kabi zamonaviy sohalar va ishlab chiqarish tarmoqlarini va albatta, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya tizimlarini jadal rivojlantirishga alohida ahamiyat berish, yaqin kelajakda raqamli va keng formatli televideeniyeга o‘tish haqida so‘z bormoqda.

Shular qatorida birinchi navbatda yengil, to‘qimachilik va oziq-ovqat sanoatida paxta tolasi, boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishslash bo‘yicha ishlab chiqarishni, qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish, sifatli va barqaror talabga ega bo‘lgan tayyor mahsulotlar tayyorlaydigan korxonalar tashkil etishga alohida e‘tibor qaratish darkor.

Vazirlar Mahkamasi qabul qilingan tarmoq dasturlarini yana bir bor tanqidiy qayta ko‘rib chiqishi, ularga tuzatishlar kiritish va jadal amalga oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar ko‘rishi lozim.

Bu borada quyidagilarni e‘tiborga olish darkor:

Birinchidan: korxonalar o‘rtasida barqaror kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish va ularni kengaytirish bo‘yicha boshlangan ishlarni davom ettirish, bu jarayonga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini faol jalb qilish zarur.

Respublika sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi ishini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish lozim.

Shuni nazarda tutish kerakki, kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish hozirgi sharoitda korxonalar va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyati barqarorligining kuchli omili, mahsulotlarning yangi turlarini o‘zlashtirish va eng asosiysi – yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi bandligi va daromadlarini ko‘paytirishning eng muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

O‘tgan yili ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha hukumat qarorlari qabul qilindi, yaxlit tizim yaratildi, mahalliylashtirish dasturlarini ishlab chiqishga mas’ul bo‘lgan idoralar – Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining faoliyat yo‘nalishi va vakolatlari doirasasi aniq belgilab qo‘yildi.

Bu ishni mantiqiy yakuniga yetkazish, shakllangan yondashuv va mezonlarni hisobga olgan holda amaldagi mahalliylashtirish dasturiga

kiritilgan loyihalarni tanqidiy ko‘rib chiqish va bir oy muddatda 2010 yilga mo‘ljallangan mahalliylashtirish dasturini tayyorlash zarur.

2010 yilda mahalliylashtirish asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi o‘tgan yilga nisbatan 40 foizga o‘sishi, shu borada eksport qilinadigan mahsulotlarning ulushi esa kamida 12 foizni tashkil qilishi lozim.

Ikkinchidan: so‘nggi yillarda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini oshirish, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkalarini kamaytirish, inflatsiya darajasini pasaytirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida aholining yalpi va real daromadlari sezilarli ravishda oshdi, uning xarid qobiliyati barqaror sur’atda o‘sib bormoqda. Jumladan, o‘tgan yili 2000 yilga nisbatan o‘rtacha ish haqi 28,5 barobar, pensiyalarning o‘rtacha miqdori qariyb 18 barobar, aholi jon boshiga nisbatan pul daromadlari esa 12 barobar oshdi.

Joriy yilda ham ish haqini kamida 30 foizga, real daromadlarni esa 23 foizga oshirish mo‘ljallanmoqda. Aholining oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga kirmaydigan, uzoq foydalanishga mo‘ljallangan sanoat tovarlarini xarid qilish bo‘yicha xarajatlari sezilarli darajada o‘sdi.

Bunday sharoitda aholining o‘sib borayotgan to‘lov qibiliyati bilan mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan iste’mol tovarlari hajmi o‘rtasida ichki bozorda mutanosiblikni ta’minlash, bunday mahsulotlar turini kengaytirish, bozorlarimizni ular bilan ishonchli tarzda to‘ldirib borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Vazirlar Mahkamasi shu masalaga bag‘ishlangan o‘z majlisida qabul qilingan dasturlar ijrosini tanqidiy baholashi, ularni jadal amalga oshirish va ichki bozorni mamlakatimizda ishlab chiqarilgan, import tovarlaridan sifati yuqori, narxi esa arzon bo‘lgan mahsulotlar bilan to‘ldirish, yurtdoshlarimizning o‘sib borayotgan talab va ehtiyojlarini yanada to‘laroq qondirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar ko‘rishi lozim.

Uchinchidan: aholiga xizmat ko‘rsatish sohasini yanada kengaytirish g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Bunday tarmoqlar tashqi konyunkturaga ham, ob-havo sharoitiga ham bog‘liq emas, ya’ni, tashqi omillarning o‘zgarishi ularga ta’sir ko‘rsata olmaydi.

Ayni paytda bu xizmatlar o‘zimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ko‘plab turlariga ichki talabni oshiradi, shuningdek, iste’mol bozorida mutanosiblikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Bularning barchasini nazarda tutgan holda, xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2009 yildagi 47 foizdan 2010 yilda 49 foizga yetkazish zarur.

To'rtinchidan: nisbatan barqaror va bozor konyunkturasi o'zgarishlariga tez moslashuvchan, yangi ish o'rnlari yaratish imkonini beradigan kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasini hal etish bizning sharoitimizda hamon muhim ahamiyatga molik masala bo'lib qolmoqda.

Aynan shuning uchun ham biz 2010 yilda barcha kichik biznes korxonalari uchun yagona soliq to'lovi stavkasini 7 foizga tushirish to'g'risida qaror qabul qildik.

Hukumat, joylardagi davlat hokimiyati organlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini ularga kredit ajratishni sezilarli darajada kengaytirish, ularning faoliyatiga davlat organlari tomonidan noqonuniy aralashuv va turli to'siqlar qo'yish holatlariga yo'l qo'yilmaslik hisobidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirishi shart.

Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini o'tgan yildagi 50 foizdan 2010 yilda 52,5 foizga yetkazish vazifasi qo'yilmoqda.

Beshinchidan: eksport qilinadigan mahsulotlarimiz tarkibini va umuman, tashqi savdo aylanmasini yanada diversifikatsiya qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Keyingi vaqtida jahon bozorida narxi keskin tushib ketgan xomashyo resurslarini eksport qilish amaliyotidan imkon qadar tezroq qutulib, tayyor raqobatdosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar yetkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirishimiz kerak.

Bu borada yangi bozorlar, yangi transport yo'laklarini topish, bir so'z bilan aytganda, faol marketingga asoslangan tashqi iqtisodiy siyosat yuritish zarur.

Biz 2010 yilda eksport qilinadigan yuklarni tashish tizimini takomillashtirish masalalari bilan jiddiy shug'ullanishimiz kerak. Shu munosabat bilan Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Iqtisodiy vazirligi va Moliya vazirligiga tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan har bir tarmoq bo'yicha 2010-2012 yillarga mo'ljallangan tayyor mahsulotni yangi tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

Bu dasturlarda barcha zarur choralarini, jumladan, marketing, moliya va tashkiliy-huquqiy qo'llab-quvvatlash masalalarini nazarda tutish darkor.

Aziz do'stlar!

Uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimizning salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan navbatdagi muhim ustuvor yo'naliш – bu asosiy yetakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarini amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iborat.

2010 yilda Investitsiya dasturiga muvofiq kapital qo'yilmalar o'tgan yilga nisbatan 22,1 foizga ortib, yalpi ichki mahsulotning 30 foizini tashkil qiladi. Bunda birgina ishlab chiqarish sohasiga mo'ljallangan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun barcha kapital qo'yilmalarning 75 foizdan ziyodi yo'naltiriladi.

2010 yilda mamlakatimizda muhim strategik loyihalarini amalga oshirish uchun 3 milliard AQSH dollaridan ziyod yoki o'tgan yilga nisbatan 30 foiz ko'p xorijiy investitsiyalar jalb qilinishini e'tiborga oladigan bo'lsak, o'yaymanki, amalga oshiriladigan loyihalarning ko'lami va salmog'i o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 46 foizga oshadi.

Bunday yirik loyihalarini, birinchi navbatda, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun ichki resurslarni jalb qilishda mamlakatimizda 2007 yili tashkil etilgan Tiklanish va taraqqiyot fondi juda katta hissa qo'shdi. Bugungi kunda bu fondning jamg'armasi 3,7 milliard dollarni tashkil etmoqda.

Dunyodagi mashhur va nufuzli kompaniyalar, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Janubiy Koreya, Yaponiya taraqqiyot banklari singari moliya institutlari, qator arab davlatlarining investitsiya fondlari va boshqa xorijiy tashkilotlar yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, yuksak texnologiyalarga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishda bizning yirik hamkorlarimiz bo'immoqda.

Bu haqda gapirganda, iqtisodiyotimizning yetakchi o'rirlarga chiqishi uchun Toshkent, Navoiy va Tollimarjon issiqlik elektr stansiyalarida bug'-gaz moslamalarini qurish, Surgil koni bazasida polietilen va propilen ishlab chiqaradigan Ustyurt gaz-kimyo majmuasini barpo etish, polivinilxlorid va

kaustik soda ishlab chiqaradigan yangi kompleks tashkil etishga qaratilgan yirik loyihamalga oshirilishini aytib o'tish lozim, deb bilaman.

Shu bilan birga, Muborak gazni qayta ishlash zavodi va Sho'rtanneftgaz majmuasida suyultirilgan gaz ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun propan-butan aralashmasi moslamalarini qurish, Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi energiya bloklarini ko'mir yoqilg'isi bilan ishlash tizimiga o'tkazish, avtomobil kuchlanish agregatlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va boshqa bir qator muhim strategik loyihalarni amalga oshirish alohida istiqbolli ahamiyatga ega ekanini ta'kidlash zarur.

Bu loyihalarning barchasi o'tgan yili, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qaramasdan, qabul qilingan 2009-2014 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha muhim loyihalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar dasturiga kiritilgan.

Ushbu dasturga umumiy qiymati 42,5 milliard dollardan ziyod 327 ta loyiha kiritilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi bo'yicha moliyalash manbalari aniq belgilangan va investorlar konsorsiumlari shakllantirilgan.

Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda Investitsiya dasturi ro'yxatiga kiritilgan strategik ahamiyatga molik investitsiya loyihalarini, shuningdek, strategik tarmoqlar va yirik korxonalarining uzoq muddatli texnika siyosati nuqtai nazaridan ishlab chiqilayotgan yangi loyihalarni amalga oshirishning muddatlari va shartlarini muvofiqlashtirish borasidagi ishlarni faollashtirishi darkor.

2010 yilda avtomobil yo'llarini rivojlantirish uchun Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobidan 540 milliard so'm, ya'ni, o'tgan yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko'p mablag' ajratish ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston milliy avtomagistrali uchastkalarini qurish bo'yicha Osiyo taraqqiyot banki hamkorligida yangi yirik loyiha ishlab chiqilmoqda.

Ushbu dasturlarni amalga oshirishdan ko'zlangan pirovard maqsad – Yevropa va Osiyo o'rtasidagi savdo oqimining ma'lum qismini mamlakatimizdagi tranzit yo'nalishlariga burish va shu asosda yurtimizda transport va tranzit xizmati hajmini oshirish, mavjud infratuzilma negizida logistika markazlarini tashkil etish, minglab odamlarni ish bilan ta'minlashdan iborat.

Vazirlar Mahkamasi 2010-2015 yillarda O‘zbekiston milliy avtomagistrali yo‘nalishi bo‘ylab infratuzilma va servis tarmoqlarini rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan dasturning amalga oshirilishini qat’iy nazoratga olishi darkor.

Hozirgi vaqtida temir yo‘l kommunikatsiyalarini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratish zarur. 2010 yilda ularni modernizatsiya qilish uchun 105 million dollardan ko‘proq mablag‘ yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

“Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on” temir yo‘l liniyasi va shu yo‘nalishdagi infratuzilma obyektlarida qurilish ishlarini yakuniga yetkazish, Yangiyer – Jizzax va Yangiyer – Farhod elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyalari qurilishini davom ettirish lozim.

Shu bilan birga, yo‘lovchi tashish lokomotivlari parkini yangilash, yuk tashish lokomotivlari va vagonlarini modernizatsiya qilish va qayta tiklash bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish darkor.

Joriy yilda Ispaniyadan ikkita tezyurar poyezd sotib olish va Toshkent – Samarqand yo‘nalishi bo‘yicha ularning qatnovini yo‘lga qo‘yish loyihasini, barcha rasmiylashtirish jarayonlari bilan birga, amalga oshirishni boshlash kerak.

“Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasiga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmini yanada oshirish investitsiya sohasidagi dolzarb yo‘nalish hisoblanadi.

Avvalo, bu yerda boshlangan 17 ta loyihani amalga oshirish, ayni paytda Koreya Respublikasi, Yaponiya, Germaniya, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va boshqa texnologik jihatdan yuksak rivojlangan mamlakatlardan investitsiyalar jalb qilishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Qadrli do‘stlar!

Qishloqda uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirish dasturining 2010 yilning muhim ustuvor yo‘nalishlari qatoriga kiritilishiga to‘liq asos bor.

Yurtimizda 2009 yilning Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili deb e’lon qilinishi, shu munosabat bilan qabul qilingan Davlat dasturining amalga oshirilishi qishloqlarimiz qiyofasini zamонави arxitektura va sanoat asosida tubdan o‘zgartirish va yangilash, uy-joy, ijtimoiy va kommunal obyektlar, kommunikatsiyalarini barpo etish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan aniq maqsadli ishlarimizning boshlanishi bo‘ldi.

Bularning barchasi qishloq aholisi turmush darajasini tubdan oshirish va shahar sharoitiga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqsadlarga moliyalashning barcha manbalari hisobidan 2009 yilning o‘zida 2 trillion 600 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ yo‘naltirildi.

Eng muhim, o‘tgan yili qishloq joylarda qurilish olib borish uchun uzoq istiqbolga mo‘ljallangan, loyihalashtirish, sanoat-qurilish, muhandislik-texnik jihatdan kuchli zamonaviy salohiyatga ega bo‘lgan baza yaratishga erishdik.

Bu borada moliyalash manbalari va mablag‘ ajratish mexanizmi belgilab olindi. “Qishloq qurilish bank” va “Qishloq qurilish loyiha” loyihalash instituti kabi ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tashkil etildi.

Uy-joy obyektlari qurilishi bo‘yicha 22 ta namunaviy loyiha, ijtimoiy obyektlar qurilishi bo‘yicha 16 ta loyiha, kompleks qurilishlar bo‘yicha namunaviy rejalar ishlab chiqildi va bu loyihalar respublika va mintaqaviy ko‘rgazmalarda keng muhokama etilganidan keyin tasdiqlandi.

Shu borada ixtisoslashtirilgan “Qishloq qurilish invest” buyurtmachi kompaniyasi tashkil etilib, mamlakatimiz bo‘yicha 42 ta massivda yangi uy-joylar qurilishi boshlab yuborildi.

Alovida e‘tiborga molik tomoni shundaki, mazmun-mohiyatiga ko‘ra noyob bo‘lgan bu kompleks loyihalar yurtimizning barcha hududlarida qishloq ahli va butun jamoatchiligidan tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanmoqda.

2010 yilgi Investitsiya dasturi doirasida faqat uy-joy qurilishi uchun “Qishloq qurilish bank” orqali aholiga 250 milliard so‘mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratish ko‘zda tutilgan. Bu 2009 yilda ushbu maqsadlar uchun yo‘naltirilgan mablag‘ miqdoridan 4 marta ko‘p demakdir. Ayni vaqtida yakka tartibda uy quruvchilarining o‘zlari ham 70 milliard so‘mga yaqin mablag‘ sarf etishi kutilmoqda.

2010 yilda mamlakatimizdagi barcha 159 ta qishloq tumanida umumiyligi 470 milliard so‘mdan ortiq bo‘lgan 7 ming 630 ta uy-joy qurilishi rejalashtirilgan.

Bunda nafaqat zamonaviy va qulay kottejlar qurish, ayni vaqtida bolalar bog‘chalari, umumta’lim maktablari, musiqa va san’at maktablari, sport inshootlari, tibbiyot muassasalari, xizmat ko‘rsatish obyektlari, keng va ravon yo‘llar, bir so‘z bilan aytganda, qishloq aholisining qulay va munosib hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan barcha sharoitlarni o‘z

ichiga olgan zamonaviy va obod qishloqlarni barpo etish ko‘zda tutilmoxda.

Aytish joizki, mamlakatimizda barcha zarur ijtimoiy va kommunikatsiya infratuzilmasiga ega bo‘lgan, izchil rivojlanib borayotgan o‘ta yirik uy-joy bozori shakllanmoqda.

Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi qurilish rejalariga, sanitariya talablari va qurilish normalariga rioya qilinishi ustidan qat’iy tizimli nazorat o‘rnatishi zarur.

Hududlarda aholini joylashtirish, hududlarni rejashtirish sxemalari va bosh rejalar bilan bog‘liq hujjatlarni ishlab chiqish tizimini tezlashtirish kerak.

Qishloq joylarning tabiiy-iqlim sharoiti va relyefini, yurtimiz hududlarining ijtimoiy-demografik xususiyatlarini hisobga olgan, zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalarini qo‘llagan holda, yakka tartibda quriladigan uylar, ijtimoiy-madaniy va sanitariya-maishiy obyektlar loyihalarini takomillashtirish ishlarini davom ettirish lozim.

Qishloqda uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirish dasturi zamirida juda ulkan hajmdagi ishlar mujassam ekanini, u o‘n minglab yangi ish o‘rinlarini yaratish, ana shu keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlarida mamlakatimiz aholisining faol ishtirokini ta’minalash imkonini berishini unutmasligimiz kerak.

Biz mazkur dasturni amalga oshirish vazifasini o‘z oldimizga qo‘yar ekanmiz, bu bilan mamlakatimiz uchun dolzarb bo‘lgan aholi bandligini ta’minalash, shu tariqa odamlarning daromadini yanada oshirish va hayot sifatini yuksaltirish masalalarini hal etishni ko‘zda tutamiz.

2010 yilda mamlakatimizda jami 950 mingdan ortiq yangi ish o‘rni tashkil etish mo‘ljallanmoqda. Ularning qariyb yarmi kichik korxonalar, mikrofirmalar tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, pudrat asosidagi qurilish, shu jumladan, uy-joylarni ta’mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari ko‘lamini kengaytirish hisobidan yaratiladi.

2010 yilda ham aholini turli shakldagi kasanachilik ishlariga jalb etish, xalq hunarmandchiligini rivojlantirish, oilaviy tadbirkorlikni rag‘batlantirish – bularning barchasi bandlikni ta’minalashning amalda o‘zini oqlagan muhim yo‘nalishlari bo‘lib qoladi.

Shu asosda 208 ming nafardan ortiq kishini, avvalo, ko‘p bolali ayollar, nogironlar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa toifalarini ish bilan ta’minlash ko‘zda tutilmoqda.

Yuqorida zikr etilgan barcha chora-tadbirlarni o‘zida mujassamlashtirgan Dastur vazirliklar, idoralar, xo‘jalik birlashmalari va korxonalar ishtirokida tayyorlangan va Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Davlat statistika qo‘mitasi har bir tuman va shaharda yaratilgan ish o‘rinlarini aniq hisobga olish tizimini tashkil etish va dastur ijrosini monitoring qilish, unda ko‘zda tutilgan prognoz ko‘rsatkichlarini bajarishda sustkashlikka yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishi va mazkur masalalar bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga aniq takliflar kiritishi lozim.

Hurmatlari majlis qatnashchilar!

Yurtimizda 2010 yilni “Barkamol avlod yili” deb e’lon qilganimizdan yaxshi xabardorsiz.

Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yanmiz.

Shu kunlarda hukumatimiz tomonidan ushbu masala yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturi ana shu ezgu maqsadga erishish yo‘lida, jami davlat va nodavlat manbalarini hisobga olgan holda, mavjud barcha resurs va imkoniyatlarimizni safarbar etishni ko‘zda tutadi.

Dasturda belgilangan kompleks chora-tadbirlarni bajarish uchun 2010 yilda barcha moliyalash manbalari hisobidan 8 trillion so‘m atrofidagi mablag‘, jumladan, 1,8 trillion so‘m davlat mablag‘lari, tijorat banklarining 3,3 trillion so‘mlik kreditlari va mas‘ul ijrochilarning 2,7 trillion so‘mdan ortiq mablag‘larini yo‘naltirish mo‘ljallangan.

Ana shunday buyuk vazifalar va ularni amalga oshirish uchun ajratilayotgan mablag‘lar haqida gapirar ekanmiz, ertangi kunimiz uchun, bolalarimiz, farzandlarimizning baxti uchun mehnat qilish, fidoiylik ko‘rsatish – bu barchamizning muqaddas burchimizdir, desam, o‘ylaymanki, shu zalda o‘tirgan insonlar, kerak bo‘lsa, butun xalqimizning fikrini ifoda qilgan bo‘laman.

Aziz yurtdoshlarim!

2010 yilda o‘z oldimizga qo‘yayotgan yuksak maqsad, vazifa va rejalar, qanday og‘ir bo‘lmasin, bularning barchasi avvalo mamlakatimizning taraqqiy topgan davlatlar qatoriga chiqishi yo‘lidagi yangi qadamdir.

Bu buyuk vazifalarni amalga oshirish uchun xalqimizning fidokorona mehnati bilan to‘plangan salohiyatimiz va imkoniyatimiz bor, kuch-qudratimiz yetarli. Eng muhimi, ertangi kunga bo‘lgan qat’iy ishonchimiz bizga mustahkam poydevor bo‘lajak.

Barchangizga, aziz do‘sstlarim, shu yo‘lda kuch-quvvat, yangi-yangi muvaffaqiyat va omadlar tilayman.

2010-yil, 29-yanvar

O'ZBEKISTON XOTIN-QIZLARIGA BAYRAM TABRIGI

Munis va muhtarama onaxonlar!

Qadrli opa-singillar, dilbar qizlarim!

Barchamiz hamisha sog'inib, orziqib kutadigan mana shu ilk bahor kunlarida, tabiat ochilib, ko'ngillar shodlik va quvonchga to'lib borayotgan shu fusunkor ayyomda siz, azizlarimni, sizlar orqali butun O'zbekiston xotin-qizlarini qutlug' sana – 8 mart bayrami bilan samimiyl muborakbod etishdan baxtiyorman.

Sizlarga qalbimiz to'rida bo'lган eng ezgu tilaklarimiz, chuqur hurmat va ehtiromimizni izhor etish uchun barchamizga, avvalo, erkak zotiga yana bir imkon beradigan, bamisoliko'klam elchisi yanglig' kirib keladigan bu bayram bahorning o'zi kabi qadrli va sevimplidir.

Bahor timsolida tabiat go'zalligi, uning bor sehri va jozibasi qanchalik yaqqol namoyon bo'lsa, ayol timsolida eng yuksak insoniy fazilatlar shu qadar yorqin namoyon bo'ladi.

Biz odatda tabiat, yer, til va vatan kabi mo'tabar tushunchalarni "ona tabiat", "ona yer", "ona tili" va "ona Vatan" deb ulug'laymiz, ularni aziz va mehribon onalarimizga qiyos etamiz. Va bu qiyoslashning juda chuqur ichki ma'no-mazmuni borligini anglash, tushunish qiyin emas, deb o'layman.

Ayol zoti o'zining nafosati va latofati, muhabbatni va sadoqati, onalik mehri bilan tom ma'noda Yaratganning tengsiz mo'jizasidir.

Ko'nglimiz farishtasi, xonadonimiz chiro g'i, oila tayanchi bo'lmish ayol siyomosi xalqimiz tasavvurida azal-azaldan ezgulik va fidoyilik timsoli bo'lib keladi. Buning tasdig'ini el-yurtimizning milliy tarixi, hayot va tafakkur tarzida, ayol sha'nini ulug'lab, go'zal qasidalar yaratgan mumtoz adabiyotimiz sahifalarida yaqqol ko'rish mumkin.

Bizning ayollarga munosabatimiz, hech shubhasiz, ana shunday yuksak mezonlar negizida kamol topgan bo'lib, ayol zotiga beqiyos hurmat va ehtirom namunasini boshqalar balki bizdan o'rganishi kerakdir.

Oradan yillar, asrlar o'tadi, lekin onani, ayolni doimo e'zozlab, ardoqlab yashashga intilish tuyg'usini bolalarimiz va nabiralarimizga,

kelgusi avlodimizga bezavol yetkazish biz uchun eng olijanob, eng buyuk vazifa bo‘lib qolishi zarur, desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman.

Aziz opa-singillar!

Biz o‘z mustaqilligimizning birinchi kunlaridan boshlab yurtimizda demokratik davlat, hech kimdan kam bo‘lmaydigan erkin va farovon hayot qurish yo‘lida xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini yuksaltirish, ularning haq-huquqlari, qonuniy manfaatlarini ta’minlash, qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, bir so‘z bilan aytganda, ayollarimizni jamiyatimizning teng huquqli, faol va bunyodkor a‘zosiga aylantirish borasida qanday ulkan ishlarni amalga oshirib kelayotganimiz haqida, o‘laymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo‘q.

Bunday siyosatning amaliy samarasini bugungi kunda oliy qonunchilik idoralari, joylardagi vakillik organlari va ijro hokimiyatidan tortib sudhuquq sohasida, mahalliy va o‘zini o‘zi boshqarish tizimlari, nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy tuzilmalar faoliyatida, muxtasar aytganda, hayotimizning barcha bosqichlarida ko‘rish, kuzatish mumkin.

Shunisi e’tiborga sazovorki, xotin-qizlar yurtimizdagи o‘zgarishlar jarayonida faol ishtirok etish bilan birga, o‘zining bilimi, professional malakasi va mahorati hisobidan ko‘pgina jabhalarda yetakchi mavqelarni egallab kelmoqda. Bugungi kunda hayotimizda tobora katta o‘rin olayotgan fermerlik harakati, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, ilmu fan, tibbiyot, ta’lim-tarbiya, madaniyat va san’at kabi o‘nlab muhim soha va tarmoqlar rivojini ayollarning ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Biz mamlakatimizning yorug‘ kelajagini ko‘zda tutgan holda 2010 yilni yurtimizda “Barkamol avlod yili” deb e’lon qildik. Bu qarorimizning ma’no-mohiyatini lo‘nda qilib ifoda etadigan bo‘lsak, ko‘p marta takrorlangan bir haqiqatni yana bir bor ta’kidlashga to‘g‘ri keladi.

Bugun hech kimga sir emaski, biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki, qaysi jamiyat bu haqiqatni o‘z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish uning kundalik hayot mazmuniga aylanmasa, bunday jamiyat jahon taraqqiyoti yo‘lidan chetda qolib ketishi muqarrar.

Biz o‘z oldimizga ana shunday o‘ta murakkab maqsadni qo‘yar ekanmiz, bunday ulug‘ vazifani ado etish, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashda ayollarimizning o‘rni va ta’siri, buyuk hissasini hech narsa bilan o‘lchab, qiyoslab bo‘lmaydi. Ya’ni, ertangi kunimizning mustahkam va ishonchli poydevorini bunyod etishda aynan ayol zoti hal

qiluvchi kuch, chinakam tayanchimiz va suyanchimiz bo‘lib maydonga chiqishini barchamiz hech qachon unutmasligimizni istardim.

Faqat sog‘lom onadan sog‘lom farzand tug‘iladi. Faqat aql-zakovatli, ma’rifatli onalargina komil insonlarni tarbiyalashga qodir bo‘ladi.

Ana shu haqiqatni chuqur anglagan holda, mamlakatimizda ayollarning salomatligini mustahkamlash, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, jismoniy, intellektual va ma’naviy jihatdan yetuk yosh avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan, uzoqni o‘ylab, puxta ishlab chiqilgan va hayotga izchil joriy etilayotgan dastur va tadbirlarimiz bugungi kunda o‘zining dastlabki samarasini berayotgani barchamizni quvontiradi.

Bu haqda uzoq gapirish, ko‘p misollarni olib kelish mumkin, lekin men faqat uchta muhim yo‘nalish bo‘yicha ba’zi raqamlarga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Keyingi uch yil mobaynida mamlakatimizdagi umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtlari talabalari jahon miqyosida o‘tkazilgan nufuzli fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lib, jami 41 ta medalni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, ularning 8 tasi qizlarimiz hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yoki san’at va musiqa sohasida dunyoning Parij, Rim, Berlin, Tokio, Moskva, Praga, Qohira, Seul, Dehli kabi yirik madaniyat markazlarida bo‘lib o‘tgan xalqaro ko‘rik-tanlovlarda 273 nafar o‘quvchi va talabamiz g‘oliblikka erishgani va ularning 153 nafari qiz bolalar ekanini katta mammuniyat bilan ta’kidlash o‘rinlidir.

Ana shu oxirgi uch yil mobaynida 1 ming 464 nafar iste’dodli sportchi yoshlarimiz xalqaro musobaqalarda zafar qozongan bo‘lsa, ularning 448 nafari aynan qizlarimiz ekani albatta barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Aytinglar, azizlar, bundan o‘n besh-yigirma yil oldin o‘zgalar havas qiladigan bunday ulkan ufq va marralarga yetishni tasavvur qilish mumkinmidi? Ochiq aytish kerakki, bularni faqat shirin tushlarimizda ko‘rishimiz mumkin edi, xolos.

Shu borada bugun yana bir haqiqatni chuqur anglab olishimiz kerak. Biz bolalarimizning sog‘lom va barkamol bo‘lib o‘sishiga qancha e’tibor, kuch va mablag‘ safarbar etsak, yurtimizdagi yosh talantlarning noyob iste’dodi ochilishiga qancha ko‘p imkoniyat tug‘dirib bersak, hech shubhasiz, farzandlarimizning ilmu fan, san’at, sport va boshqa sohalar

bo‘yicha jahon shohsupalariga ko‘tarilishi uchun shunchalik mustahkam zamin yaratiladi, inshoollo. Men bunga qat’iy ishonaman.

Bunday yuksak va ezgu marralarga erishishda avvalambor jamiyatimizda tinchlik va barqarorlik, ahillik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, iqtisodiyotimizni jadal sur’atlar bilan rivojlantirish, yurtimizni yanada obod va farovon etish masalasi biz uchun doimiy ustuvor vazifa bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

Albatta, bunday siyosatni yanada kuchaytirish, uning samarasini oshirishda xotin-qizlarning mavqeini, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini ham huquqiy, ham amaliy nuqtai nazardan yuksaltirish ana shunday muhim vazifalarimiz qatoriga kiradi.

Fursatdan foydalanib, men yurtimizning barcha mard o‘g‘lonlarini ayollarga faqat bayram kunlarida emas, balki hamisha hurmat va e’tibor ko‘rsatib yashashga, aynan shunday yondashuvni o‘z burchimiz deb bilishga va uni hayotimiz mezoniga aylantirishga da’vat etmoqchiman.

Toki ayollarimiz bizdan rozi va mammun bo‘lib, baxtli hayot kechirsin. Zero, onalarning, ayollarning baxti – oilaning, xalqimizning, butun O‘zbekistonimizning baxtidir.

Qadrli opa-singillar!

Bugungi bayram shodiyonasida siz, muhtarama ayollarimizning fidoyi qalbingiz, beminnat mehru muhabbatingiz uchun sizlarga har qancha tashakkur aytsak, ta’zim qilsak arziyi.

Yana bir karra samimi tabrigimni qabul etgaysiz.

Iqbolingiz baland, umringiz uzoq, rizqu nasibangiz ziyoda bo‘lsin!
Baxtimizga hamisha omon bo‘ling, azizlarim, mehrbonlarim!

*Islom Karimov,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
2010-yil, 6-mart*

NAVRO‘Z BAYRAMIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI SO‘Z

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Aziz do‘srlar, muhtaram mehmonlar!

Biz orziqib kutadigan, bahor, yasharish va yangilanish ramzi – Navro‘zi olam qutlug‘ qadami bilan o‘lkamizga kirib kelmoqda.

Mana shu ulug‘ ayyom bilan siz azizlarni, butun xalqimizni chin qalbimdan tabriklab, barchangizga o‘zimning yuksak hurmat-ehtiromim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Hurmatli yurtdoshlar!

Navro‘z barchamiz uchun azal-azaldan avvalo tabiat uyg‘onishi, sharqona yangi yil debochasi, ma’naviyatimizning uзвиy qismiga aylanib ketgan eng qadimiyl, asl milliy bayram sifatida aziz va mo‘tabardir.

Haqiqatan ham, bu dilbar faslda ostob charaqlab, yeru ko‘kni qizdirishi bilan biz ham o‘zimizni xuddiki yangitdan tug‘ilgandek his qilamiz, qalblarimiz, yuraklarimiz pok niyatlarga to‘lib, butun vujudimizda yangi kuch-g‘ayrat jo‘sh urgandek bo‘ladi.

Ayni shu munavvar kunlarda inson tabiatdan bahra olib, sumalak va halim, go‘ja va ko‘ksomsa kabi bahoriy ne’matlar tortilgan dasturxonlar atrofida Navro‘z quvonchini o‘z yaqinlari, do‘stu birodarlari bilan baham ko‘rishga intiladi.

Ayni shu go‘zal pallada betakror Vatanimizning barcha go‘shalarida – Farg‘ona vodiysidan Surxon tog‘larigacha, Qoraqalpoq diyoridan Samarqand bog‘larigacha, Toshkent vohasining yam-yashil qir-adirlarigacha – xalqimiz, keksayu yosh yurtdoshlarimiz tabiat bilan uyg‘un bo‘lib, sayil-tomoshalar o‘tkazib, Navro‘zni katta xursandchilik bilan kutib olmoqda.

Saxovatli zaminimizda yashaydigan barcha-barcha insonlar, qaysi millat, qaysi elat vakili bo‘lishidan qat‘i nazar, bu ajoyib bayramni yagona oila bo‘lib, shodu xurramlik bilan nishonlamoqda.

Ayni shu damlarda xalqimizga mansub bo‘lgan bag‘rikenglik va mehribonlik, keksalarining duosini olish, yetim-yesirlarning boshini silash,

muhtoj va ko‘ngli yarim odamlarga beminnat yordam berish kabi yuksak fazilatlar yana va yana bir bor o‘zining tasdig‘ini topmoqda.

Bu buyuk va betakror ayyomning yana bir noyob xislati shundaki, bahor kelishi, gul-chechaklar ochilishi bilan har qaysi inson o‘z oila a’zolari, qadrdonlarini bag‘riga bosib, nafaqat tanish, balki notanish odamlarni ham qutlab, sog‘lik-omonlik, baxt va omad tilaydi, yurtimizdag‘i tinchlik-osoyishtalik, ahillik tobora mustahkamlanib borishini, osmonimiz hamisha musaffo bo‘lishini istaydi.

Necha ming yillik tarixdan ma’lumki, Navro‘z faslida turli nizo va adovatlar unutiladi, odamlar o‘rtasida mehr-oqibat, shafqat va muruvvat, hamjihatlik kabi insoniy tuyg‘ular yanada kuchayadi.

Navro‘zi olamning umuminsoniy sivilizatsiya rivojiga qo‘shegan buyuk hissasini inobatga olib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti shu yildan boshlab bu ayyomni Xalqaro Navro‘z kuni deb tan olgani albatta bejiz emas va bu barchamizga katta g‘urur va iftixon bag‘ishlaydi.

Qadrli do‘stlar!

Bag‘rikeng va mehmondo‘st xalqimiz o‘ziga ravo ko‘rgan yaxshilik va ezgu tilaklarni doimo o‘zgalarga ham ravo ko‘radi.

Fursatdan foydalanib, bugungi tantanamizda ishtirok etayotgan, bizga yaxshi niyat va xayriyohlik bilan qaraydigan, mamlakatimiz taraqqiyoti uchun katta ko‘mak berayotgan xorijiy davlatlarning muhtaram elchilariga, chet el vakolatxonalarini vakillariga, uzoq-yaqindagi do‘stu hamkorlarimizga samimi minnatdorchilik bildirib, ularni chin dildan qutlashga ruxsat etgaysiz.

Aziz va qadrli vatandoshlarim!

Ko‘klamning beg‘ubor nafasi ufurib turgan, dehqonlarimiz yangi orzu-umidlar bilan yerga urug‘ qadayotgan shu qutlug‘ pallada barchangizni bag‘rimga bosib, Navro‘z bayrami bilan yana bir bor muborakbod etaman.

Shu go‘zal maydonga fayz berib o‘tirgan muhtaram faxriyalarimizga, munis opa-singillarimizga, chehrasida xush kayfiyat, kuch-g‘ayrat porlab turgan yoshlarimizga, mening aziz farzandlarimga o‘zimning chuqur hurmatim va samimiyl tilaklarimni bildirishdan baxtiyormen.

Ilohim, mana shunday xursandchilik bilan boshlanayotgan Yangi yilimiz Vatanimizga tinchlik, baxtu saodat, obodlik va farovonlik olib kelsin.

Dehqonlarimizning omadini bersin!

Hosilimiz mo‘l, xirmonlarimiz baland bo‘lsin!

Xonadonlarimizdan fayzu baraka arimasin!
Navro‘zi olam barchamizga muborak bo‘lsin!

2010-yil, 23-mart

“INQIROZGA QARSHI CHORALAR DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA INQIROZDAN KEYINGI RIVOJLANISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI (O‘ZBEKISTON MISOLIDA)” MAVZUIDAGI XALQARO ILMIY- AMALIY KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli konferensiya qatnashchilar!

Siz, muhtaram mehmonlarni, nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillarini, olimlar, tahlilchi va ekspertlarni O‘zbekiston zaminida samimiy qutlash va ushbu xalqaro konferensiyadagi ishtirokingiz uchun chuqr minnatdorlik izhor etishga ijozat bergaysiz.

“Inqirozga qarshi choralar dasturlarining samaradorligi va inqirozdan keyingi rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi mavzui – fikrlar va taklif etilayotgan yondashuvlar hamda ushbu muammolarni milliy, mintaqaviy va global miqyosda hal etish yo‘llari bugun dunyoda keng muhokama etilayotgan masalalar ekanini inobatga oladigan bo‘lsak – avvalambor, o‘zining dolzarbligi bilan katta qiziqish uyg‘otadi, desam, o‘ylaymanki, aslo xato bo‘lmaydi.

Shu ma’noda Inqirozga qarshi choralar dasturlarining milliy darajada o‘z vaqtida qabul qilingani, inqiroz sharoiti talablariga javob berishi, aniq maqsadlarga yo‘naltirilgani va samaradorligini O‘zbekiston misolida tahlil qilish, mamlakat iqtisodiyotini inqirozdan keyingi rivojlantirish bo‘yicha fikr almashish, bu boradagi yondashuvlarimiz, rejalarimiz va ustuvor vazifalarimizni tanqidiy baholash anjumanning barcha ishtirokchilar uchun shubhasiz, g‘oyat foydali bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlashni istardimki, iqtisodiyotni isloh qilish va yangilashga doir biz ishlab chiqqan besh tamoyilga asoslangan, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng amalgaga oshirib kelinayotgan iqtisodiy rivojlanishning «o‘zbek modeli», shuningdek, chuqr va puxta o‘ylangan iqtisodiy siyosat makroiqtisodiy barqarorlik, moliya-bank sohasining barqaror faoliyat yuritishi va valuta zaxiralari ko‘payishini ta’minlagan holda, O‘zbekiston iqtisodiyotini spekulativ kapital, jahon moliya va fond bozorlaridagi boshqarib bo‘lmaydigan

stixiya ta'siridan himoyalash uchun ishonchli to'siq va mustahkam zaxira bo'lib xizmat qilmoqda.

Biz iqtisodiyotimizni, moliya va bank tizimini ortiqcha likvidlik bilan puflab shishirmadik, balki, birinchi navbatda, real iqtisodiyot, kichik biznes va tadbirkorlik sohasining moliyaviy barqarorligini qo'llab-quvvatlashga, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, diversifikatsiya qilish, xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini ta'minlash choralariga e'tibor qaratdik.

Keng ko'lami Investitsiya dasturini amalga oshirish, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish, ijtimoiy va infratuzilma loyihalari ko'lami va hajmini sezilarli darajada kengaytirish, shular hisobidan aholi bandligini ta'minlash, soliq yukini izchil pasaytirib borish, eksportga yo'naltirilgan yetakchi tarmoqlar uchun zarur preferensiyalar yaratish kabi chora-tadbirlar Inqirozga qarshi choralar dasturida belgilangan maqsadlarga erishishda muhim omil bo'ldi.

Inqirozga qarshi kurashish va uning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha qabul qilingan strategiya mamlakatimizga, dunyoning sanoqli davlatlari qatori, o'tgan davrda iqtisodiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash imkonini berdi. 2009 yilda yalpi ichki mahsulot o'sishi 8,1 foizni tashkil etdi, jumladan, sanoat ishlab chiqarishida 9 foiz, qishloq xo'jaligida 5,7 foiz o'sdi, iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 25 foiz, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 1,8 baravar oshdi.

O'tgan yili eksport hajmi 2,4 foiz ko'paydi, bu tashqi savdoning ijobiy saldosi sezilarli darajada oshishi va oltin-valuta zaxirasining barqaror o'sishini ta'mnladi. Inqiroz va jahon iqtisodiyotining tanazzuliga qaramay, mamlakatimizda 940 mingdan ziyod yangi ish o'rni tashkil etildi, ularning yarmidan ortig'i qishloq joylarda yaratildi. Davlat budgetining barqaror profitsiti ta'minlanmoqda. Tashqi qarz 2010 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10 foizdan oshmadidi.

Nufuzli xalqaro ekspertlar tomonidan tasdiqlangan prognozlarga qaraganda, O'zbekiston Respublikasida eksport hajmining o'sishi va sanoatni yanada rivojlantirishga qaratilgan faol siyosatning amalga oshirilishi natijasida 2010 va 2011 yillarda mos ravishda 8,5 va 9 foiz iqtisodiy o'sishga erishiladi.

Shu bilan birga, nufuzli xalqaro tahlilchi va ekspertlar ta'kidlayotganidek, dunyoning ko'plab mamlakatlarini qamrab olgan

moliyaviy-iqtisodiy inqirozning eng og‘ir davri ortda qolganiga qaramay, jahon iqtisodiyoti hali uzoq muddatli va murakkab tiklanish jarayonini boshidan kechirishini teran anglaymiz.

Aksariyat mamlakatlarda keskin tebranishlar, ko‘pgina hollarda jahon bozorida talabning pasayishi, ishsizlikning o‘sishi davom etayotgani va aholi tur mush darajasining yomonlashishi oqibatida iqtisodiyot retsessiyasining takrorlanish xavfi hali-hamon saqlanib qolmoqda.

Ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, ishsizlikning o‘sishi va aholi real daromadlarining kamayishi davlat budgeti taqchilligiga olib keladi. Bu xavfli miqyos kasb etib, davlat moliyaviy resurslari barqarorligiga tahdid soladi va ijtimoiy keskinlik xavfini keltirib chiqaradi.

Ayrim mamlakatlarda davlat qarzi miqdorining ortib borayotgani ham ana shu muammolar bilan bevosita bog‘liqdir.

Iqtisodiy o‘sishning qoniqarsizligi va ishlab chiqarishning pasayishi kuzatilayotgan bir sharoitda fond va xomashyo bozorlarida indekslarning haddan tashqari oshirilishi va shishirilishi e’tiborni tortadi. Bu esa vaqt kelib yoriladigan hamda moliya va valuta bozorlarida yangi o‘pirilishlarga olib keladigan «pufaklar» ko‘payib borayotganidan dalolat beradi.

Pul emissiyasining ortib borayotgani va shu tariqa moliya-bank sektorining to‘ldirilayotganini ham e’tibordan soqit qilib bo‘lmaydi. Bu inflatsiya jarayonlarining izdan chiqish xavfini yuzaga keltiradi va iqtisodiyotda jiddiy nomutanosibliklarga olib keladi.

Ko‘plab tahlilchilarning fikricha, bank sektoridagi ortiqcha likvidlik oqibatida qator mamlakatlarda iqtisodiyotning real sektori, o‘rtta va kichik biznes, tadbirdorlik sohasini moliyalashtirishda jiddiy muammolar paydo bo‘lmoqda.

Bu holat iqtisodiyotning real sektorida moliyaviy ahvolning keskin yomonlashishi va kreditlar qaytarilishi bilan bog‘liq jiddiy muammolar yuzaga kelayotgani bilan izohlanmoqda.

Jahon bozoridagi proteksionizm siyosati ayniqlsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun inqirozdan chiqishdagi jiddiy g‘ov bo‘lib qolmoqda. Dunyoning yetakchi 20 davlati ishtirokida bo‘lib o‘tgan sammitlardagi deklarativ bayonotlarga qaramay, bunday siyosat tobora keng qo‘llanilmoqda.

Bank tizimida tavakkalchiliklar mezonlari va bu tavakkalchiliklarni boshqarish mexanizmlarini aniqlash, iqtisodiyotni boshqarishning bozor prinsiplariga davlat aralashuvining darjasini va me’yori bilan bog‘liq

muhim masalalar yuzasidan muhokama va munozaralar hamon davom etayotganini ham ta'kidlashni istardim.

Saqlanib qolayotgan va o'z yechimini topmayotgan bunday muammolar aksariyat ekspertlarning jahon iqtisodiyotining inqirozdan chiqish va inqirozdan keyingi rivojlanish jarayoni uzoq va g'oyat murakkab kechishi mumkinligi haqidagi qat'iy fikrini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, moliya bozorida yangi o'pirilishlar ro'y berishi ham ehtimoldan xoli emas.

Yuqorida bayon etilganlarni hisobga olib, inqirozdan keyingi iqtisodiy rivojlanishning eng muhim vazifasi mamlakatimizni isloh qilishning milliy modelidan bevosita kelib chiqadigan asosiy ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishdan iborat, deb bilamiz. Bunda iqtisodiyotning xomashyoga yo'naltirilganidan butunlay voz kechgan holda tarkibiy o'zgarishlar va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish dasturlarini amalga oshirish, eksport tarkibida yuqori texnologik va raqobatbardosh mahsulotlar salmog'ini keskin ko'paytirish nazarda tutilmoqda.

Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarining qudratli zamonaviy tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan muhim strategik ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish bo'yicha faol investitsion siyosat yuritish vazifalari doimiy e'tiborimizda bo'ladi.

Fikrimni tasdiqlash uchun ayrim misollarni e'tiboringizga havola qilmoqchiman.

2010 yilda muhim strategik loyihalarni amalga oshirishni davom ettirish va yangilarini boshlash uchun umumiy hajmi 3 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya jalb qilish yoki uning hajmini o'tgan yildagiga nisbatan 30 foiz, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni 46 foiz oshirish ko'zda tutilmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ular uchun mamlakatimizda eng qulay shart-sharoit yaratish bilan bir qatorda ichki resurslarni ishga solishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

2009 yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit resurslarining umumiy hajmi 2000 yildagiga nisbatan 14 barobar o'sdi, bunda investitsiya maqsadlariga ajratilgan kreditlar ulushi umumiy kredit portfelining qariyb 70 foizini tashkil etdi.

2007 yilda, birinchi navbatda, infratuzilmani shakllantirish, ishlab chiqarishni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bilan bog'liq ishlarni

bajarish maqsadida Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tashkil etildi. Bugungi kunda Jamg‘armada 4,7 milliard dollardan ziyod valuta mablag‘lari to‘plangan.

O‘tgan yili mamlakatimiz hukumati tomonidan 2009-2014 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish dasturi tasdiqlandi. Bu dasturga umumiyligi qiymati 42,5 milliard dollardan ortiq 300 dan ziyod loyiha kiritilgan.

Bu loyihalarning aksariyati bo‘yicha mablag‘larning aniq manbalari, investorlar konsorsiumlari va ijro muddatlari belgilangan.

Bank tuzilmalari, xo‘jalik subyektlari va aholini investitsiya jarayonlariga keng jalb etish va ularning ishtirokini yanada rag‘batlantirish hisobidan ichki talabni kuchaytirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Qishloqda uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish dasturi bunday loyihalar ijrosiga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu dastur qishloqlarni zamonaviy arxitektura va sanoat asosida tubdan qayta qurish, qiyofasini yangilash, qishloq aholisi turmush darajasini yuksaltirish va uni shahar sharoitiga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Uzoq istiqbolga mo‘ljallangan ushbu yirik loyihani amalga oshirish uchun kuchli loyihaviy, sanoat-qurilish, muhandislik-texnik salohiyat va zarur tashkiliy tuzilmalar yaratildi, rag‘batlantirish choralarini va preferensiyalari ishlab chiqildi.

Maxsus tashkil etilgan bank va uning joylardagi filiallari orqali 2010 yilda ushbu maqsadlar uchun 390 million dollar ekvivalentida mablag‘ ajratish ko‘zda tutilmoqda, bu 2009 yildagi ko‘rsatkichdan 4 barobar ko‘pdir. Bunda joriy yilning 1 aprel holatiga ko‘ra, uy-joy quruvchilarining mablag‘lari 60 million dollardan oshdi. Barcha qishloq tumanlarida umumiyligi qiymati qariyb 400 million dollarga teng bo‘lgan 7600 dan ortiq uy-joy qurish mo‘ljallanmoqda.

Shuni ta‘kidlash joizki, mazkur dasturning amalga oshirilishi qurilish bilan bog‘liq barcha sohalar va ishlab chiqarish tarmoqlariga talabni oshiradi, o‘n minglab, yuz minglab yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi.

Hurmatali konferensiya ishtirokchilari!

Ishonchim komilki, forum davomida ishlab chiqiladigan xulosa va tavsiyalar, shubhasiz, amaliyotda o‘z aksini topadi va inqirozga qarshi

choralar dasturlari samaradorligini oshirishga ko‘maklashadi, jahon iqtisodiyotini inqirozdan keyingi tiklash jarayonida o‘zaro ishonchni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Konferensiya ishtirokchilarining barchasiga samarali faoliyatida muvaffaqiyat tilayman!

*Islom Karimov,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
2010-yil, 12-aprel*

RIVOJLANISH YO'LIDAGI HAMKORLIK

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashi 43-yillik majlisining ochilish marosimidagi nutqi

Muhtaram prezident Kuroda!

Muhtaram boshqaruvchilar!

Hurmatli xorijiy davlatlar vakillari va mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 43-yillik majlisi ishtirokchilarini, nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillarini va Toshkentga tashrif buyurgan barcha mehmonlarni chin dildan qutlashga ijozat bergaysiz.

Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari orasida birinchi bo'lib ushbu muhim voqeani o'tkazishga O'zbekiston poytaxti tanlangani biz uchun katta sharaf va mazkur qarorni qabul qilgan Osiyo taraqqiyot bankiga a'zo mamlakatlar hukumatlarigasamimiyl minnatdorlik izhor etamiz.

Men o'z nutqimda bugungi anjumanda muhokama etilayotgan mavzuga bevosita taalluqli bo'lgan ayrim masalalar xususida qisqacha to'xtalmoqchiman.

O'tgan 2009 yil jahon iqtisodiyoti uchun haqiqatan ham og'ir sinov yili bo'ldi, global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlari deyarli hech bir mamlakatni chetlab o'tmadni.

Nufuzli xalqaro tahlilchi va ekspertlarning fikriga ko'ra, inqirozning eng og'ir va keskin bosqichi ortda qolganiga qaramay, hali iqtisodiyotni tiklash bo'yicha o'ta murakkab, mashaqqatli va uzoq muddatli jarayon oldindaturibdi.

Jahon iqtisodiyotining inqirozdan chiqishi yo'lida paydo bo'layotgan muammolarni tahlil qilganda, birinchi navbatda, o'sish sur'atlarining beqaror va past darajada ekani, ishsizlikning yuqori darajada saqlanib qolayotgani, iqtisodiyot real sektori moliyaviy ahvolining sezilarli ravishda yomonlashayotgani va aholi real daromadlarining pasayishi haqida gapirishga to'g'ri keladi.

Ba'zi mamlakatlarda davlat byudjeti taqchilligi, jumladan, davlat qarzi hajmi oshib borayotgani xavfli miqyos kasb etmoqda. Bu esa ushbu qarzlarni to'lashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi va hattoki, defolt holatlariga olib kelishi mumkin.

Ichki talabning past darajadaligi, ayrim hollarda esa uning kamayishi kuzatilmogda. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarish sur'atlarining barqaror va izchil o'sishini ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda.

Bizningcha, dunyodagi ko'plab yetakchi ekspertlarning bank-moliya sektoridagi ortiqcha likvidlik va bank-moliya sektorini bundan keyin hampul resurslari bilanto'ldirish spekulyativ kapitalning avj olishi, fond va xomashyo bozorlarida sun'iy "pufak"larning paydo bo'lishi uchun sharoit yaratishi, bu esa kelajakda moliya hamda valyuta bozorlarida yangi o'pirilishlar bilan bog'liq salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqidagi fikrlariga qo'shilish mumkin.

Pul emissiyasi va hajmining oshishi inflyatsiya jarayonlarining xavfli holatlarini keltirib chiqarishi haqida gapirib o'tirishga hojat yo'q, deb o'layman.

Takror va takror aytishga to'g'ri keladi: ko'plab mamlakatlarda, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda proteksionistik chora-tadbirlarning keng tus olayotgani, birinchi navbatda, rivojlanayotgan davlatlar va umuman, jahon iqtisodiyotini tiklash hamda rivojlantirish borasida katta muammolar tug'dirmoqda.

Bank va moliya sohalarining davlat tomonidan tartibga solinishi, bank kapitalini tizimli nazorat qilishni ta'minlash mexanizmlari va vositalari, shuningdek, bu borada xalqaro moliya institutlarining roli haqidagi masala ekspertlar hamda rasmiy doiralarning mintaqaviy va global darajadagi asosiy muhokama mavzusiga aylanmoqda, desam, o'laymanki, aslo xato bo'lmaydi.

Bu mavzudagi babs-munozaralarda bildirilayotgan ayrim takliflar, xususan, moliya va bank sektori faoliyatini global miqyosda nazorat qila oladigan xalqaro moliya institutini shakllantirish taklifi e'tiborga molikdir. Mazkur institut zimmasiga jahon bozorida spekulyativ bank faoliyatini, jumladan, xalqaro savdoni va xalqaro moliya bozorini umuman muvozanatdan chiqarishi mumkin bo'lgan derivativ va boshqa "quruq" qimmatli qog'ozlar sohasini nazorat qilish vazifasini yuklash taklif etilmoqda.

Bu haqda gap ketganda, bizning nazarimizda, AQSh Prezidenti B.Obama tomonidan ilgari surilayotgan AQSh moliya institutlarining operatsiyalarini nazorat qilish hamda soliq to'lovchilar mablag'lari hisobidan derivativlar bilan amalga oshiriladigan, faqat tavakkalchilikka asoslangan kelishuvlarni cheklash bo'yicha maxsus agentlik tashkil etish to'g'risidagi taklif e'tibor va qo'llab-quvvatlashga sazovordir.

O'ylaymanki, bu masalada uzoq vaqtadan buyon davom etayotgan bahs va munozaralar natijasida barcha tomonlar uchun maqbul bo'lgan oqilonan yechim topilsa, shubhasiz, bu – inqiroz bilan bog'liq muammolarni hal etish borasidagi eng katta yutuqlardan biri bo'ladi.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

Jahon inqirozining har bir mamlakatga qay darajada ta'sir ko'rsatgani, avvalo, o'sha mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar modeliga, moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining naqadar barqaror hamda mustahkamligiga, ularda himoya mexanizmlarining nechog'li kuchli ekaniga bog'liqligini isbotlashga hojat yo'q, deb o'ylayman.

Shu munosabat bilan biz istiqlolimizning dastlabki yillarida, ya'ni 1992 yilda qabul qilgan va besh tamoyilga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish hamda isloh qilishning "o'zbek modeli" haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman. Ushbu tamoyillarning mazmun-mohiyati quyidagilardan iborat:

Birinchisi – davlat tizimining mafkuradan xoli bo'lishi va iqtisodiyotning siyosatdan ustunligini ta'minlash.

Ikkinchisi – rejali-taqsimlash tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning bosh islohotchi vazifasini o'z zimmasiga olishi.

Uchinchisi – qonun ustuvorligini ta'minlash, ya'ni qonun barcha uchun barobar ekan.

To'rtinchisi – islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish. Xalqimiz ta'biri bilan aytganda yangi uyni qurmey turib, eskisini buzmang, degan hikmatga amal qilish.

Beshinchisi – bir tuzumdan boshqa tuzumga o'tish davrida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish.

Bugungi kunda ushbu model o'tgan davr mobaynida, shu jumladan, inqiroz jarayonlarining ekstremal ta'siri davrida o'zini to'liq oqladi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

O'tgan davrda bank-moliya tizimida yetarli resurs bazasi va ishonchli zaxira yaratilgani, har tomonlama puxta o'ylangan, vazmin iqtisodiy

siyosatning amalga oshirilishi, iqtisodiyotni spekulyativ kapital, jahon moliya va fond bozorlaridagi boshqarib bo'lmaydigan stixiyali jarayonlar va nazoratsizlik ta'siridan himoyalash bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rildi, shuningdek, iqtisodiyotning makroiqtisodiy muvozanatliligi qat'iy nazorat qilinishi inqirozning halokatli ta'sirini yumshatishda katta ahamiyat kasb etdi.

Mamlakatimizda 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturining o'z vaqtida qabul qilingani, uning mavjud shart-sharoitga muvofiqligi va aniq maqsadga yo'naltirilgani inqirozga qarshi turishda va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etishda muhim rol o'ynadi.

Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda bank sektoriga zarur yordam ko'rsatish bilan bir qatorda, birinchi navbatda, real iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini qo'llab-quvvatlash, soliq yukini kamaytirish, iqtisodiyotning real sektoriga, ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan korxonalarga tegishli imtiyoz va preferensiyalar berish, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, diversifikatsiya qilish hisobidan xarajatlarni kamaytirish va daromadni ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar muhim ustuvor yo'nalishlarni tashkil etdi.

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilayotgan alohida e'tibor inqirozga qarshi turish va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishni ta'minlashdahal qiluvchi omil bo'ldi.

Ijtimoiy sohada, infratuzilma va transport-kommunikatsiya tarmoqlarida keng ko'lamli loyihalarning amalga oshirilishi natijasida yangi ish o'rinalarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishga doir vazifalarning hal etilishi Inqirozga qarshi choralar dasturida belgilangan maqsadlarga erishishda muhim o'rinni tutdi.

Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida qabul qilinayotgan choratadbirlar inqirozga qarshi kurashish va uning oqibatlarini bartaraf etish vazifalari bilangina cheklanib qolmasdan, uzoq istiqbolga mo'ljallangan dasturi maqsadlarni ham qamrab olganini ta'kidlashni istardim.

Biz shuni yaxshi anglaymizki, inqirozdan keyingi davrda hozirdanoq tub tarkibiy o'zgarishlar va ishlab chiqarishni diversifikasiya qilishga yo'naltirilgan uzoq muddatli innovatsion loyihalarni ishlab chiqayotgan va amalga oshirayotgan mamlakatlar birinchi navbatda muvaffaqiyat qozonadi.

O'tgan yili O'zbekistonda 2009-2014 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo'yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari Dasturi qabul qilindi. Ushbu dasturga yetakchi tarmoqlarni yangilash, yirik transport va kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirish, yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish va tejamkor texnologiyalarni joriy qilishga qaratilgan umumiy qiymati 42,5 milliard dollardan ziyod 300 dan ortiq o'ta muhim investitsiya loyihalari kiritilgan.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilmasdan, buning uchun zarur sharoit vapreferensiyalarni ta'minlamasdan turib oldimizga qo'yilgan vazifalarni hal etish qiyin bo'lishini barchamiz yaxshi tushunamiz, albatta.

Shu bilan birga, investitsiya loyihalarini moliyalashda ichki resurslarni safarbar etishga alohida ahamiyat bermoqdamiz. 2009 yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan kapital qo'yilmalarning umumiy hajmida ichki manbalar ulushi 68 foizni tashkil etdi, 2010 yilda esa bu ko'rsatkich 70 foizdan kam bo'lmaydi.

Biz uzoq muddatli va keng ko'lamli loyihalarini amalga oshirishda 2007 yilda tashkil qilingan, kapital mablag'i bugungi kunda qariyb 5 milliard dollardan iborat O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining salohiyati va imkoniyatlarini yanada mustahkamlashga katta ahamiyat bermoqdamiz. Jamg'armaning asosiy vazifasi, birinchi navbatda, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, shuningdek, xorijiy sheriklar bilan birga iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari ob'ektlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish bo'yicha istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda ishtiroy etishdan iborat.

Masalan, 2009 yilda ushbu jamg'arma mablag'lari hisobidan Navoiy shahridagi Issiqlik elektr stansiyasida qiymati 470 million dollarlik zamonaviy bug'-gaz qurilmasini barpo etish ishlari boshlandi. Bu yerda bugungi kunda Navoiy aeroporti bazasida erkin industrial-iqtisodiy zona va xalqaro multimodal logistika markazi tashkil etilmoqda.

O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish va malakali kadrlar tayyorlashga katta ahamiyat berilayotgani haqida ham qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Mamlakatimizda 1997 yildan buyon eski ta'lim tizimidan to'liq voz kechib, 9 yillik umumta'lim maktablari va uch yillik kasb-hunar kollejlari hamda litseylarni qamrab olgan 12 yillik bepul ta'limni ko'zda tutadigan Davlat dasturi izchil amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda yangi barpo etilgan 1,5 mingdan ortiq kollej va litseylarda 1 million 500 ming nafardan ziyod yigit-qiz o'rta texnik va gumanitar ta'lif oldi, 2-3 mutaxassislikka ega bo'ldi, xorijiy tillarni, asosan ingliz tilini o'rgandi.

Bularning barchasi, keyingi yillarda ta'lif uchun sarflangan xarajatlar mamlakatimiz Davlat byudjetining 37 foizidan oshganini, sog'liqni saqlash tizimiga yo'naltirilgan xarajatlar bilan birga hisoblaganda, 50 foizdan ortiqni tashkil etganini inobatga oladigan bo'lsak, O'zbekiston naqadar yuksak malakali kadrlar va inson kapitali salohiyatiga ega ekani yaqqol namoyon bo'ladi.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qiladigan bo'lsak, shuni mammuniyat bilan ta'kidlash joizki, qabul qilingan rivojlanish strategiyasi va Inqirozga qarshi choralar dasturining amalga oshirilishi O'zbekistonda, dunyoning sanoqli davlatlari qatori, 2009 yilda yalpi ichki mahsulot hajmining 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarishining 9 foiz o'sishini ta'minlash imkonini berdi. Iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 26 foiz, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 1,8 baravar oshdi.

Mamlakatimizda o'tgan yili 940 mingdan ortiq ish o'rni tashkil qilindi.

Mahsulotlar eksporti 2,4 foiz ko'paydi, bu tashqi savdoning ijobili saldosi sezilarli darajada oshishi va mamlakatimiz oltin-valyuta zaxirasining barqaror o'sishini ta'minladi.

Davlat byudjetining barqaror profitsiti ta'minlandi, tashqi qarz 2010 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 10 foizdan oshmadi.

Nufuzli reyting kompaniyalari va xalqaro institatlarning prognози bo'yicha O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish 2010 yilda 8,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Qadrli do'stlar!

Hurmatli mehmonlar!

O'zbekiston Osiyo taraqqiyot banki bilan kengayib borayotgan hamkorlikni yuksak qadrlaydi, so'nggi yillarda biz uchun ham kredit portfeli hajmi bo'yicha, ham Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik doirasida yetakchi xalqaro moliya institutiga aylangan mazkur bankni muhim strategik sherik deb biladi.

O'tgan davr mobaynida, ya'ni 1996 yildan buyon ajratilgan 1 milliard 200 million dollar kredit resurslari hisobidan qiymati 520 million dollardan ortiq 11 ta loyiha amalga oshirildi, umumiy miqdori 650 million dollardan ziyod 15 ta loyihani o'zlashtirish davom etmoqda.

Mazkur bank bilan bizning hamkorligimiz bugun sezilarli ravishda kengayib borayotgani va yangi bosqichga ko'tarilayotganini katta mammuniyat bilan qayd etamiz. Yillik majlis doirasida umumiy qiymati 1 milliard 150 million dollardan ortiq yana to'rtta kredit shartnomasi imzolandi, boshqacha aytganda, Osiyo taraqqiyot banki mamlakatimizda o'z kredit portfelini ikki baravar oshirdi.

Mamlakatimiz bilan Osiyo taraqqiyot banki o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarining asosini tashkil etuvchi o'zaro ishonch va olingen majburiyatlarga qat'iy amal qilish tamoyillari hamda ajratilayotgan mablag'larning O'zbekiston tomonidan maqsadli o'zlashtirilishi bundan buyon ham ta'minlanadi, deyish uchun bugun barcha asoslarga egamiz.

Endi Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorligimizning bizning nazarimizdagustuvor yo'naliishlari haqida qisqacha to'xtalib o'tishga ijozat bergaysiz.

Birinchidan, Osiyo taraqqiyot banki O'zbekiston uchun o'ta muhim bo'lgan iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish dasturlarini amalga oshirishda bizning asosiy hamkorimiz bo'lshi mumkin, deb hisoblaymiz. Bu dasturlar eksport tarkibida yuqori texnologik, yuksak sifatlari, raqobatbardosh mahsulotlar ulushini oshirishni hisobga olgan holda boy tabiiy resurslarni, mineral, uglevodorod va qishloq xo'jalik xomashyolarini chuqur qayta ishslashga yo'naltirilgan.

Bu o'rinda gap O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari, jumladan, tog'-kon, neft-gaz, kimyo va to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash loyihalarini amalga oshirish haqida bormoqda.

Zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimini yaratish, shuningdek, O'zbekiston milliy avtomagistralini bunyod etish, Navoiy aeroporti bazasida intermodal logistika markazini rivojlantirish, temir yo'l tarmoqlarini kengaytirish va uning harakat tarkibini tubdan yangilash kabi loyihalarni amalga oshirish mamlakatimizni modernizatsiya qilish strategiyasining eng muhim ustuvor yo'naliishlarini tashkil etadi.

Osiyo taraqqiyot banki mazkur yillik majlis doirasida O'zbekiston milliy avtomagistralini qurish va modernizatsiya qilish uchun 600 million dollar miqdorida kredit ajratish to'g'risidagi bitimni imzolaganini yuksak qadrlaymiz.

Ikkinchidan, xususiy biznes va iqtisodiyotning nodavlat sektorini qo'llab-quvvatlash hamda yanada rivojlantirish.

Agar 1991 yilda iqtisodiyotimizda nodavlat sektor ulushi 3 foizga ham yetmaganbo'lsa, bugungi kunda yalpi ichki mahsulotda ushbu sektorning hissasi 80 foizdan ortiqni, iqtisodiyotning qator yetakchi tarmoqlari – qishloq xo'jaligi, qurilish, telekommunikatsiya, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida esa xususiy multk shakli qariyb 100 foizni tashkil etmoqda.

Shu bilan birga, biz elektroenergetika, kimyo, yengil sanoat, oziq-ovqat, elektrotexnika va mashinasozlik sanoati, bank-moliya xizmatlari sohasi va iqtisodiyotning boshqa yetakchi tarmoqlarida xususiy sektor mavqeini yanada oshirish hamda mustahkamlash katta istiqbolga ega, deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligi va unga xizmat ko'rsatuvchi sohalarning moddiy bazasini yanada isloh qilish va mustahkamlash borasidagi hamkorlikni rivojlantirish.

Shuni nazarda tutish kerakki, O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jalik mahsulotlarining 95 foizdan ortig'i sug'oriladigan maydonlarda yetishtiriladi. Shu sababli mintaqada suv resurslari taqchilligi ortib borayotgan hozirgi sharoitda sohaga suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bunday sharoitda biz sho'rangan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash bilan bog'liq katta hajmdagi ishlarni bajarishimiz zarur va bu jarayonda Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlik istiqbolli yo'naliishlarga ega, deb bilamiz.

To'rtinchidan, ijtimoiy sohani rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, ta'lif va sog'liqni saqlash tizimlarining bazasini zamonaviy talablar asosida mustahkamlash.

Mamlakatimizda yaratilgan maktab, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lif tizimi salohiyatini, aholi salomatligi, onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasini qo'llab-quvvatlash, ularni eng zamonaviy uskunalar, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnikasi, texnologiyalari bilan jihozlash, sog'liqni saqlashda tashxis qo'yish hamda davolashning mukammal va ilg'or usullarini joriy etish – bular, shubhasiz, hamkorlikning biz ehtiyojsezayotgan muhim yo'naliishlaridan hisoblanadi.

Beshinchidan, Osiyo taraqqiyot bankining mamlakatimiz bank-moliya tizimini rivojlantirishda, jumladan, davlat moliya institutlarini rivojlantirish loyihibarini moliyalashtirish, tijorat banklari va bankdan tashqari kredit institutlari uchun kredit liniyalarini taqdim etish hamda O'zbekistonning

jadal rivojlanib borayotgan xususiy banklari kapitalini oshirishda faol ishtirok etayotganini qadrlaymiz.

Hamkorlikning ushbu sohasi ham yaxshi istiqbolga ega ekaniga ishonchimiz komil.

O'zbekiston Osiyo taraqqiyot bankining Afg'onistonni iqtisodiy tiklashga yo'naltirilgan loyihibarini har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Misol uchun, Surxon-Noibobod-Kobul yo'naliishi bo'yicha elektr uzatish liniyasining barpo etilishi 2009 yilda O'zbekistondan elektr energiyasini yetkazib berish hajmini 6 baravar oshirish va Kobul shahriga sutka davomida uzlusiz elektr energiyasi uzatishni ta'minlash imkonini berdi. 2010 yilda Afg'onistonning boshqa hududlariga ham elektr energiyasi yetkazib berish hajmi yana ikki baravar ortadi.

Biz Hayraton-Mozori Sharif temir yo'lini qurish loyihasini amalga oshirishda Osiyo taraqqiyot bankini qo'llab-quvvatladik va Afg'onistonda temir yo'l qatnovini yanada rivojlantirish zarur, deb hisoblaymiz. Bu «transafg'on yo'lagi»ni qurish loyihasini amalga oshirish, Markaziy Osiyodan Hind okeanining yaqin portlariga yuklarni eng qisqa temir yo'l orqali tranzit qilishni ta'minlaydi va Afg'onistonni iqtisodiy rivojlantirishga ko'maklashadi.

Muhtaram yillik majlis ishtirokchilar va mehmonlari!

Osiyo taraqqiyot banki, uning Boshqaruvchilar kengashi va janob prezident Kuroda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining murakkab davrida yuzaga kelgan tahdidlarga o'z vaqtida javob qaytarishni ta'minlagan samarali va izchil faoliyatni namoyon etdi, inqiroz oqibatlarini yumshatish uchun yangi vositalar hamda nostandard yondashuvlarni ishlab chiqdi va amalga oshirdi.

Inqirozning halokatli ta'siriga boshqa davlatlarga nisbatan yaxshiroq bardosh bergen, dunyoning eng jadal rivojlanayotgan mintaqasi bo'lgan Osiyo mamlakatlari bugun iqtisodiy rivojlanish, muvozanatlashgan iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida ham, mintaqaviy barqarorlik vaxavfsizlik sohasida ham yangi tahdidlar oldida turibdi. Ushbu masalalarni hal etish xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari va hukumatlardan o'zaro hamkorlikda ish olib borishni taqozo etadi.

Osiyo taraqqiyot banki va uning prezidenti Xaruxiko Kurodagamazkur bank zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda qo'llab-quvvatlashimizni yana bir bor izhor etishga hamda yillik majlis ishtirokchilariga muvaffaqiyat va omad tilashga ijozat bergaysiz.

Qadrli do'stlar!

Sizlarning O'zbekistonga tashrifingiz, siz, anjuman ishtirokchilarida o'chmas taassurotlar qoldiradi va sizlarda mehmono'st va go'zal diyorimizni yana bir kelib ko'rish ishtiyoyqini uyg'otadi, deb ishonamiz.

E'tiboringiz uchun tashakkur.

2010-yil, 3-may

INSON QADRI – ULUG‘, XOTIRASI – MUQADDAS

Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug‘. O‘tganlarni, ularning xayrli ishlarini, jasoratini yodga olmoq, e’zozlamoq xalqimizga xos ezgu fazilatlardandir. Ikkinci jahon urushida halok bo‘lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini yod etish, olovli janggohlardan omon qaytgan bobolarimizga, og‘ir kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan, mashaqqatli daqiqalarda ham o‘zligini yo‘qotmagan, imoni butun yurtdoshlarimizga hurmat-ehtirom ko‘rsatish tom ma’noda milliy qadriyatga aylandi.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yil 24 martda qabul qilingan «Ikkinci jahon urushidagi G‘alabaning 65 yilligi nishonlanishi munosabati bilan 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilar va nogironlarini mukofotlash to‘g‘risida»gi farmoni Ikkinci jahon urushi qatnashchilariga ko‘rsatilayotgan ehtiromning yana bir yorqin ifodasıdır. Mazkur farmonga muvofiq barcha shahar va tumanlarda, qishloq va mahallalarda urush qatnashchilar va nogironlariga yubiley medali va pul mukofotlari tantanali ravishda topshirildi.

9 may. Poytaxtimizdagi Xotira maydoni har qachongidan gavjum. Bu yerga urush va mehnat faxriylari, hukumat a’zolari, deputatlar va senatorlar, harbiylar, jamoatchilik vakillari tashrif buyurdi.

Maydon uzra mahzun musiqa taraladi.

Soat 8.30. Maydonga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov kirib keldi.

Davlatimiz rahbari harbiy orkestr sadolari ostida Motamsaro ona haykali poyiga gulchambar qo‘ydi.

Prezidentimiz Ikkinci jahon urushida jon fido qilgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

– Yurtimizda muqaddas Xotira va qadrlash kuni deb nom olgan bu qutlug‘ bayram bilan avvalo bugun safimizda cog‘-salomat hayot kechirayotgan urush qatnashchilarini, nuroni otaxonlarimizni, barcha-barcha yurtdoshlarimizni bag‘rimga bosib, chin qalbimdan samimiyy tabriklayman, – dedi Islom Karimov.

Biz 9 may – G‘alaba kuniga Xotira va qadrlash kuni deb nom bergenimizga, mana, 12 yil to‘lmoqda. Bugungi kunda hech ikkilanmasdan aytish mumkin: bunday nom olgan bu sana yurtimizda umumxalq bayramiga, haqiqiy an'anaga aylanib qoldi. Nega deganda, xotira va qadrlash tushunchalari asl milliy qadriyatlarimizga javob berib, otabobolarimizdan qolgan ham diniy, ham insoniy urf-odatimizdir.

O‘tganlarning nomlarini yod etish, xotirasini hurmat bilan eslash, ularning arvoхlarini shod qilish muqaddas odat sifatida qon-qonimizga singib ketgan, dedi davlatimiz rahbari.

Shu ma’noda, biz avvalo urush maydonlaridan qaytmaganlarning xotirasi oldida, beshafqat janglarda halok bo‘lganlar va shu urushda qatnashgan barcha insonlarning jasorati va matonati oldida bosh egamiz. Bu ayovsiz urush yurtimizda qancha-qancha beva-bechora va yetim-yesirlarni qoldirib, qanday og‘ir azob-uqubatlar olib kelganini yana va yana bir bor eslaymiz.

Shular haqida gapirganda, yana bir muhim vazifamiz bo‘lmish – bugun safimizda omon bo‘lib, hayotimizga fayz bag‘ishlab kelayotgan urush qatnashchilari, muhtaram faxriylarimizga munosabat haqida alohida so‘z yuritishni istardim.

Ularning umri g‘animat ekanini unutmaslik, ayni hayot bo‘lgan paytida ularga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, og‘irini yengil qilish, qadrlash va e’zozlash barchamiz uchun, avvalo, hukumat va hokimiyat rahbarlari uchun ham qarz, ham farz, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi. Lo‘nda qilib aytganda, ertaga pushaymon bo‘lmaslik uchun bugun burchimizni ado etsak, ayni muddao bo‘lar edi.

Xalqimizning sobiq Ittifoq xalqlari qatorida Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaga qo‘sghan hissasi haqida gapirganda, ba’zi raqamlarni keltirishni o‘rinli deb bilaman, dedi Yurtboshimiz. Urush arafasida mamlakatimizda 6,5 millionga yaqin aholi yashagan bo‘lsa, shundan 1,5 millioni urushda bevosita ishtirot etgan.

Ya’ni, yosh go‘dak va bolalarni, qariyalar va ayollarni hisobga olmaganda, xalqimizning 40 foizdan ko‘prog‘i qo‘liga qurol olib, jang maydonlarida qatnashgan. Va bu dahshatli urushda qariyb 500 ming yurtdoshimiz, ya’ni urushda qatnashganlarning 30 foizi halok bo‘lgan, nobud bo‘lgan.

Albatta, hammamiz yaxshi tushunamiz, shuncha qurbon va yo'qotishlarni xalqimiz Vatanini fashizm balosidan, fashizm qulligidan saqlab qolish uchun bergen.

Shu bilan birga, bir fikrni takror va takror aytishga to'g'ri keladi, dedi Prezidentimiz.

Ishonchim komil, bizning ota-bobolarimiz suronli urush maydonlarida qandaydir noma'lum tepalikni egallash, unga qizil bayroq o'rnatish uchun emas, xayolida avvalambor o'z ota-onasi, bolalari, sevimli yori uchun, ularning kelajagi va tinch hayoti uchun jon fido qilgan.

O'yaymanki, mana shunday fikr-o'ylar odamning ko'nglidan o'tar ekan, beomon janglarda qon to'kkani, halok bo'lgnarning bizlarga – bugungi musaffo osmon ostida osuda va to'q yashayotganlarga qaratilgan umidlari bamisoli qandaydir sado-da'vat bo'lib, qulog'imizda yangrab turgan bo'lsa, bu ham haqiqatdan uzoq emas.

Ya'ni, ularning "Bolalarimiz, yurtimiz omon bo'lsin, xalqimiz hech qachon hech kimdan kam bo'lmasan va hech kimdan kam bo'lmasin", degan niyatları bugun barchamiz uchun aynan bizlarga qaratilgan da'vat sifatida tuyulib tursa, buni ham tabiiy hol deb qabul qilishimiz kerak.

Odam shular haqida o'ylar ekan, bunday ezgu niyatlarni, yurtimizning, xalqimizning buniyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish, go'zal va betakror Vatanimizning yanada taraqqiy topishiga hissa qo'shish barchamiz uchun, bugun yashayotgan avlod uchun ham fuqarolik, ham insoniy burch desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Hech kimga sir emas, bugungi dunyoda o'zining qadr-qimmatini, g'urur va nomusini anglab yashaydigan, o'z kuchi va qudratiga inongan, o'z mehnati va aql-zakovati bilan kelajagini qurishga va o'z yurtini himoyalashga qurbi yetadigan davlat va xalqni jahon ahli tan oladi va hurmat qiladi.

Bundan qanday xulosa chiqarish mumkin?

Avvalo, biz bugun yashayotgan notinch va tahlikali sharoit Vatanimiz mustaqilligi, chegaralarimiz daxlsizligini, aholimizning tinch hayotini himoya qilishga qodir bo'lgan Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini oshirish, uning imkoniyatlarini mustahkamlash vazifasi doimo e'tibor markazida turishini talab qiladi.

Yurtimizda hukm surayotgan, eng katta boyligimiz bo'lmish tinchlik va osoyishtalik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, millatlararo totuvlikni ko'z qorachig'idek asrash, uzoq va yaqin qo'shnilar bilan til topib, do'stlik va

hamkorlik aloqalarini kuchaytirish vazifasi bu borada o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi dolzarb vazifalarimizdan yana biri, deya ta’kidladi Islom Karimov, O‘zbekistonni taraqqiy topgan davlatlar qatoriga ko‘tarish, erkin va demokratik jamiyat qurish va buning uchun yurtimizdagi mavjud barcha imkoniyatlarni ishga solishdan iboratdir.

Aynan shu maqsadga erishish yo‘lida Vatanimizning ertangi kuni, kelajagi bo‘lmish, bizning tayanchimiz va suyanchimiz bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash, farzandlarimizga zamonaviy bilim berish va ularni haqiqatan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish eng ustuvor vazifamiz ekanini hech qachon unutmasligimiz darkor.

Bugun nishonlayotgan bayramimiz shunday bir kunki, u shu yurtda yashayotgan har qaysi oila, har qaysi xonodon uchun bevosita daxldor bo‘lgan, ularning hayotida qandaydir chuqur iz qoldirgan tarixiy sanadir.

Ayni shu kunda men el-yurtimiz bilan birga bo‘lib, shu kunning ham xursandchiligini, ham iztirobini urush qatnashchilar, muhtaram faxriyalarimiz bilan baham ko‘rib, g‘oyibona bo‘lsa ham ularning barchasini bag‘pimra bosib, yana va yana bir bor butun xalqimizni ana shu tarixiy sana bilan tabriklashni o‘zimning muqaddas burchim deb bilaman.

Fursatdan foydalaniб, barcha vatandoshlarimizga tinchlik-omonlik, baxt va omad tilayman, dedi Islom Karimov.

2010-yil, 9-may

“UNIVERSIADA-2010” SPORT O‘YINLARI ISHTIROKCHILARIGA

Qadrli farzandlarim!

Muhtaram ustozi va murabbiylar!

Avvalambor, siz azizlarni go‘zal va betakror Andijon zaminida boshlanayotgan “Universiada – 2010” sport o‘yinlarining tantanali ochilishi bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Hech kimga sir emas, bugungi kunda o‘zining qadr-qimmati, g‘urur va iftixorini saqlab, o‘z kuchi va qudratiga ishongan, o‘z mehnati va aql-zakovati bilan o‘z kelajagini qurish, o‘z yurtini himoya qilishga qodir bo‘lgan davlat va jamiyatnigina dunyo ahli tan oladi va hurmat qiladi.

Biz o‘z oldimizga qo‘ygan ana shunday yuksak maqsadni amalga oshirishda avvalo jismoniy barkamol, zamonaviy bilim va taraqqiyot yutuqlarini chuqur egallagan, irodasi baquvvat, ma’naviy yetuk avlodni hal qiluvchi kuch sifatida ko‘ramiz.

Yoshlarimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmadan voyaga yetishi, ularning qobiliyat va iste’dodini ro‘yobga chiqarish, o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan marralarga ko‘tarilishi, bir so‘z bilan aytganda, farzandlarimizga maydonni keng ochib berish maqsadida qabul qilingan umummilliy dasturlarimiz, rejalarimiz va sa’y-harakatlarimiz bugungi kunda samarali natijalarni bera boshlayotgani barchamizni quvontiradi, albatta.

Mamlakatimizda barpo etilayotgan, o‘g‘il-qizlarimiz uchun bag‘rini ochayotgan ming-minglab zamonaviy maktablar, litsey va kollejlar, oliy o‘quv yurtlari, san‘at, madaniyat va sport maskanlari ana shu ezgu, haqiqatdan ham, tarixiy ishlarimizning amaliy natijasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ayniqsa, insoniy kamolotning eng muhim sharti bo‘lgan jismoniy tarbiya va sportning har qaysi shahar va qishloq, har bir xonadonga kirib borishiga erishish, bu sohadagi barcha yutuqlarning poydevori bo‘lmish bolalar sportini har tomonlama rivojlantirish, sport orqali yosh avlod qalbida iroda, mardlik va matonat fazilatlarini tarbiyalash, hayotimizda

sog‘lom muhitni yanada mustahkamlash yo‘lidagi ulkan ishlarimiz haqida, o‘laymanki, bugun ortiqcha gapirishga zarurat yo‘q.

Birgina Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan keyingi yillarda qariyb 160 milliard so‘m mablag‘ sarflanib, 1 ming 130 ta bolalar sporti obyekti buniyod etilgani va jihozlangani ham buning yaqqol tasdig‘idir.

Bu haqda gapirganda, yurtimizda shakllangan, “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va Universiada sport o‘yinlarini o‘z ichiga olgan uch bosqichli noyob tizimning bamisoli qudratli to‘lqinga aylanib, million-million bolalarimizni o‘z safiga qamrab olayotgani, ularning ham jismoniy, ham ma’naviy sog‘lom bo‘lib ulg‘ayishi uchun xizmat qilayotganini mammuniyat bilan ta’kidlash lozim. Ayniqsa, bu tizimning yuqori bosqichi bo‘lgan Universiada musobaqalari yoshlarimiz uchun tom ma’noda chiniqish va kamolot matabiga aylangani e’tiborlidir.

Mamlakatimizda beshinchı bor o‘tkazilayotgan Universiada o‘yinlari, mana, o‘n yildirki, nafaqat uning ishtirokchilari, balki barcha o‘g‘il-qizlarimiz, butun xalqimiz hayotidan mustahkam o‘rin egallab, O‘zbekiston talaba-yoshlarining nufuzli sport anjumaniga, ta’bir joiz bo‘lsa, kichik olimpiadaga aylandi, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zining birinchi umidbaxsh yutuqlarini aynan Universiada musobaqalarida qo‘lga kiritgan 40 nafardan ziyod sportchi yoshlarimiz Olimpiada o‘yinlari, jahon va Osiyo bellashuvlarida, ko‘plab nufuzli xalqaro turnirlarda yuksak shohsupalarga ko‘tarilgani ham shundan dalolat beradi.

Universiada harakatining ana shunday ezgu an'analarini boshlab bergen Abbas Atoyev, Abdulla Tangriyev, Rustam Saidov, Rishod Sobirov, Oqgul Omonmurodova, Svetlana Radzivil, Sevara Qodirova, Saida Iskandarova, Vadim Menkov, Dilshod Mansurov, Elmurod Xoliqov kabi iste’dodli sportchilarimiz bugungi kunda O‘zbekiston shuhratini butun dunyoga tarannum etib kelayotgani bilan har qancha faxrlansak arziyi.

Mana shu hayajonli daqiqalarda siz aziz farzandlarimizning ochiq chehrangizga boqib, biz – ota-onalar, ustoz-murabbiylar sizlarning timsolingizda vujudidan kuch-g‘ayrat yog‘ilib turgan, o‘z oldiga yuksak maqsadlar qo‘yib yangi dunyoqarash, yangi tafakkur bilan hayotga kirib kelayotgan, biz boshlagan ishlarning davomchisi bo‘lgan navqiron avlodni ko‘ramiz va bundan barchamizning yuragimiz quvonch va g‘ururga to‘ladi.

Universiada musobaqalarining navbatdagি bellashuvlari aynan Barkamol avlod yilda bo‘lib o‘tayotgani o‘ziga xos ramziy ma’noga ega ekanini, u har bir ishtirokchidan katta mahorat va mas’uliyat talab qilishini tushunish, anglash qiyin emas.

Bugun ana shunday ko‘tarinki ruh, baland kayfiyat bilan belni qattiq bog‘lab maydonga chiqayotgan ekansiz, hech qachon unutmangki, sizlarning ortingizda barchamiz uchun yagona va muqaddas Vatanimiz, har biringizga g‘alaba yor bo‘lishini tilab turgan bag‘rikeng va fidoyi xalqimiz bor.

Toki qalbingiz, yuragingizda shunday ishonch, shunday ezgu tuyg‘u jo‘sh urar ekan, aminmanki, sizlar har qanday yuksak marrani zabit etishda bo‘sh kelmaysiz.

Fursatdan foydalanib, ushbu Universiada o‘yinlarini yuqori darajada o‘tkazish uchun zamonaviy sport majmularini barpo etgan quruvchilarga, me’mor va muhandislar, pudratchi va homiy tashkilotlarga, butun Andijon ahliga samimiy minnatdorchiligidagi izhor etaman.

Sizlarni bugungi yoshlik va go‘zallik bayrami bilan yana bir bor tabriklab, musobaqalarda barchangizga baxt va omad, kelgusi hayotingizda yangi-yangi yutuqlar tilayman.

*Islom Karimov,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
2010-yil, 28-may*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ISLOM KARIMOVNING SHHT DAVLAT RAHBARLARI KENGASHINING KENGAYTIRILGAN TARKIBDAGI MAJLISIDA SO'ZLAGAN NUTQI

Muhtaram davlat rahbarlari!

Hurmatli Sammit qatnashchilari!

2001 yilda tuzilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti tarixan qisqa vaqtida zamonaviy geosiyosatning nufuzli xalqaro tuzilmasiga aylandi, deyish uchun bugun barcha asoslarimiz bor.

SHHTni rivojlantirishda Tashkilot doirasida kuzatuvchilar hamda muloqot bo'yicha sheriklar instituti joriy qilingani prinsipial muhim ahamiyatga ega bo'ldi. ASEAN, MDH bilan o'zaro anglashuv memorandumlari qabul qilingani, shuningdek, 2010 yil aprel oyida BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning Toshkentga tashrifi asnosida SHHT va BMT kotibiyatlari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi Qo'shma deklaratsiya imzolangan SHHTni rivojlantirishning muhim bosqichi bo'ldi.

Ishonchim komilki, ushbu hujjatning qabul qilinishi SHHT oldida turgan vazifalarni bajarish va BMT doirasida SHHTga a'zo davlatlar manfaatlarini birgalikda ilgari surish uchun BMT minbaridan yanada faol foydalanish imkonini beradi.

Bugungi Sammit chog'ida Yangi a'zolarni qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlashimiz kerak. Shu tariqa SHHT o'z taraqqiyoti yo'lida navbatdagi muhim qadamni tashlaydi – teng huquqli yangi a'zolar hisobiga Tashkilotni kengaytirishga, jahon miqyosidagi globallashuv sharoitida SHHTning manfaatlarini yanada samarali himoya qilishga yo'l ochiladi.

Nizomning tasdiqlanishi SHHTga a'zo davlatlar tarkibi o'z-o'zidan unda kuzatuvchi maqomiga ega bo'lgan davlatlar hisobidan kengayadi, degani emas, albatta.

Nizomning qabul qilinishi bilan SHHTga a'zo davlatlar qatoriga kirish uchun faqat huquqiy asos yaratiladi.

Ishonchim komilki, SHHTni yanada izchil rivojlantirishni, uning faoliyatini huquqiy asoslarini takomillashtirishni ta'minlashda bugungi Sammit chog'ida Tashkilotimizning protsedura qoidalarini tasdiqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjat SHHT va uning organlari tizimli faoliyat yuritishini, SHHTda qabul qilinadigan hujjatlar va qarorlar sifat jihatdan yuksak darajada tayyorlanishi va ijro etilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman aytganda, SHHTni rivojlantirish borasidagi ishlarning izchilligi tanqidiy baholanadigan bo'lsa, to'la asos bilan aytish mumkinki, SHHTni rivojlantirish va xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish bo'yicha, Tashkilotning bosh maqsadlari – tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga, SHHT davlatlarining barqaror iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga, gumanitar va ijtimoiy sohalardagi hamkorligini kengaytirishga erishish yo'lida Tashkilotning roli va imkoniyatlarini oshirish borasida chuqur o'ylangan, qat'iy va aniq maqsadlarga yo'naltirilgan jarayon davom etmoqda.

Hurmatlari Sammit ishtirokchilari!

E'tiboringizni yana bir masala – Afg'oniston muammosiga qaratmoqchiman. Afg'oniston muammosi SHHTning deyarli barcha majlislarida muhokama etib kelinayotgan muhim masalalardan biri bo'lib, bugun ham bu mavzu diqqat-e'tiborimizda turibdi.

30 yildan buyon urush davom etayotgan Afg'onistondagi muammolarni hal qilmay turib, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlik haqida gapirish mumkin emas, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

O'ylaymanki, bu zalda hozir bo'lganlarga O'zbekistonning Afg'oniston muammosini hal qilish bo'yicha – "6+3" tinchlikparvar guruhini shakllantirish tashabbusi deb nom olgan – takliflarining mazmuni yaxshi ma'lum. Ushbu takliflarning mohiyati quyidagilardan iborat.

Birinchidan. Afg'oniston muammosini harbiy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi. Biz bu masalani NATO/SEAPning 2008 yil aprel oyida Buxarest shahrida bo'lgan sammitida va boshqa xalqaro forumlarda ko'targan bo'lsak, bugun afg'on muammosini yechishga daxldor deyarli barcha mamlakatlar rahbarlari bu haqda gapirmoqda.

Ikkinchidan. Afg'oniston muammolarini hal etishda va u yerda barqarorlikni ta'minlashda birinchi navbatda jafokash afg'on xalqiga maqsadli iqtisodiy yordam ko'rsatishga, mamlakatning transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasini barpo etish va

shakllantirishga, aholi bandligini ta'minlashga, qashshoqlikka qarshi kurashish bilan bog'liq o'tkir muammolarni yechishga ustuvor ahamiyat berilishi kerak.

Uchinchidan. Afg'onistonning tarixiy, etnik va demografik xususiyatlarini, ushbu mamlakatning ko'p millatli va ko'p konfessiyali xalqi amal qiladigan qadimiy urf-odatlarni, islom dinining an'anaviy qadriyatlarini inobatga olish va hurmat qilish zarur.

To'rtinchidan. Murosa jarayoniga Afg'oniston aholisi va istisnosiz barcha qarama-qarshi kuchlar, etnik va diniy guruhlar jalb qilinmasa, ular o'rtasida konsensusga erishilmasa, Afg'onistonda urush hali uzoq davom etishi mumkin.

Beshinchidan. Bu jarayonda uch yetakchi subyekt – AQSH, Rossiya va NATOning faol ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. Qo'shni mamlakatlarga, ta'kidlab aytaman, Afg'onistonga bevosita chegaradosh bo'lgan mamlakatlarga tayanish bu borada hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Afg'onistondagi etnik guruhlarga ta'sir ko'rsata oladigan ana shu mamlakatlarni jalb etish bilangina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Eng muhimi, bu vazifalarning barchasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining yetakchiligi va shafe'ligida amalga oshirilishi zarur.

Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash muammolari haqida gapirganda, Qирг'изистондаги ҳозирги вазият xususida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman. O'zbekistonning ushbu respublikadagi voqealarga munosabati O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligining 2010 yil 9 apreldagi maxsus Bayonotida aniq aks ettirilgan. Biz bu voqealar Qирг'изистоннинг ichki ishi, deb hisoblaymiz va bunga ortiqcha izohning hojati yo'q.

Qирг'изистон jamoatchiligi va xalqining bugungi kunda ushbu mamlakatda yuzaga kelgan murakkab vaziyatda to'g'ri yo'l topish uchun hayotiy tajribasi va aql-idroki yetarli ekaniga ishonchim komil.

Biz bugun imzolaydigan SHHT Toshkent Sammitining Deklaratsiyasida a'zo davlatlarning bu masala bo'yicha umumiyoq pozitsiyasi ifoda etilgan. Uning asosiy mohiyati quyidagilardan iborat – biz Qирг'изистон xalqi bilan hamjihatmiz, ushbu mamlakatdagi murakkab vaziyatdan barchamiz tashvishdamiz, vaziyatni tezda o'nglash va hokimiyatni qonuniylashtirish, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni yaxshilash maqsadida Qирг'изистон Respublikasiga zarur yordam ko'rsatishga tayyormiz.

Men qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchi bo‘lgan navbatdagi masala – bu dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarni tashvishga solayotgan inqirozdan keyingi davrda iqtisodiyotni tiklash muammolaridir.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining eng avj olgan davri asosan ortda qolganiga qaramay, inqirozdan chiqish va iqtisodiyotni rivojlantirishning murakkab, og‘ir va ancha uzoq kechadigan bosqichi hali oldinda ekan haqidagi ko‘plab nufuzli ekspert va tahlilchilarining fikrlari to‘g‘ri ekanligi tobora ayon bo‘lib bormoqda. Ayni paytda ayrim mamlakatlarda ishlab chiqarishning pasayishi, yuqori darajadagi ishsizlikning saqlanishi, aholining real daromadlari kamayishi, moliya va bank bozorlarida jiddiy keskinliklar yuzaga kelishi kabi holatlar takrorlanishi ehtimoli ham yo‘q emas.

Muammoli va qaytarilmaydigan kreditlar hajmi keskin oshayotgan sharoitda bozorni katta miqdordagi pul bilan shishirish davom etayotgani, shuningdek, bank-moliya sektori faoliyati yetarli darajada nazorat qilinmayotgani spekulyativ kapitalning ko‘payishi, fond va xomashyo bozorlarida “pufaklar” paydo bo‘lishi uchun sharoit yaratmoqdaki, bu moliya va valuta bozorlarida salbiy oqibatlarga olib keladigan yangi o‘pirilishlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Pul va to‘lov vositalari emissiyasining o‘sib borayotgani, birinchidan, ularning qadrsizlanishiga va avvalo, konvertatsiya qilinadigan valutalarga bo‘lgan ishonchning pasayishiga olib kelishi, ikkinchidan, inflatsiyaning o‘sib ketishi bilan bog‘liq xavfli vaziyatni keltirib chiqarishi haqida gapirmasa ham bo‘ladi.

Davlat budgeti taqchilligi va davlat qarzining miqdori jiddiy muammoga aylanib, ayrim mamlakatlarda esa xavfli tus olib, moliya sektorida katta keskinlikni keltirib chiqarmoqda, xarajatlarning cheklanishi hamda ichki va tashqi bozorlarda talab qisqarishiga olib kelmoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Osiyo mintaqasining aksariyat davlatlariga nisbatan kuchli ta’sir ko‘rsatmagani va ushbu mamlakatlarning ko‘pchiligi uning oqibatlarini muvaffaqiyatli, ishonchli bartaraf etayotgani barchamizga katta mammuniyat bag‘ishlaydi.

Biroq jahon iqtisodiyoti rivojlanish jarayonlarining o‘zaro uzviy bog‘liqligini hisobga oladigan bo‘lsak, inqirozdan chiqish, iqtisodiy va moliyaviy sog‘lomlashtirish bo‘yicha yuzaga kelayotgan va keskin tus olayotgan muammolar, qayerda paydo bo‘lishidan qat’i nazar, barcha

mamlakatlar hamda mintaqalarga g‘oyat katta ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini unutmasligimiz darkor.

Markaziy Osiyo mintaqasida inqirozga qarshi va inqirozdan keyingi rivojlanish dasturlarini amalga oshirishga doir vaziyat haqida gap borar ekan, bu borada hamon saqlanib qolayotgan muammolarni hal etish uchun bizningcha, ko‘p jihatdan nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala – kommunikatsiyalarini rivojlantirish haqida alohida to‘xtalib o‘tmochiman.

Bu yerda gap ham transchegaraviy, ham ichki davlat ahamiyatiga molik avtomobil, temir yo‘l, havo transporti kommunikatsiyalarini barpo etish va rekonstruksiya qilishga, axborot-kommunikatsiya aloqasiga oid loyihalar haqida bormoqda.

Uzoq o‘tmishda Sharq bilan G‘arbni bog‘lagan va Markaziy Osiyo mintaqasining jo‘g‘rofiy va geosiyosiy joylashuvi nechog‘li muhim ekanini isbotlagan Buyuk ipak yo‘li insoniyat tarixida qanday chuqur iz goldirganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Biz yashayotgan XXI globallashuv va buyuk o‘zgarishlar asri kun tartibiga birinchi navbatda zamonaviy kommunikatsiyalarini, logistika markazlari va turli xablarni rivojlantirish masalasini qat’iy qo‘ymoqda. Binobarin, bular mintaqaviy va jahon miqyosidagi integratsiya va kooperatsiya jarayonlarining muhim tarkibiy bo‘g‘inlaridir.

Ayniqsa, bizning ulkan mintaqamiz hududida bunday kommunikatsiya markazlarini qurish va shakkantirish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bunday markazlardan ham Sharq, ham G‘arbdagi yetkazib beruvchi va xaridor mamlakatlar kompaniyalari birday manfaatdordir.

Avtomobil va temir yo‘llarni, ular bilan bog‘liq yuklarni ortish-tushirish stansiyalari va markazlarini qurish, bularning barchasi ko‘p mehnat talab qilishini hisobga olganda, mahalliy aholi bandligi va daromadlarining katta manbaiga aylanishi, shu tariqa mintaqada eng muhim va hal qiluvchi masalalardan biri bo‘lgan barqarorlikni ta’minalashda ulkan ahamiyat kasb etishi mumkin. Ushbu masalalarning kompleks tarzda hal etilishi mintaqqa taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishining asosiy vositalaridan biriga aylanishi mumkinligi haqida gapirib o‘tirishga hojat yo‘q, deb o‘ylayman.

Biroq bu vazifalarni faqat xalqaro moliya institutlari va homiy davlatlarning jiddiy moliyaviy qo‘llab-quvvatlashi bilan amalga oshirish

mumkin, ayni paytda ushbu masalalar jahon hamjamiyatining diqqat markazida bo‘lishi lozim.

E’tiboringiz uchun tashakkur.

*Toshkent shahri,
2010 yil 11 iyun*

BIZ HAR TOMONLAMA BAG'RIKENG, KO'PNI KO'RGAN, HAMDARD XALQMZ

*(Buxoro viloyati Vobkent tumani qishloq
mehnatkashlari bilan muloqot paytida
bildirilgan fikrlar)*

Bizga qo'shni davlat – Qirg'iziston janubida sodir bo'lgan voqealar haqida sizlar albatta xabardorsiz. Shuning uchun bu haqda ko'p gapirish ortiqcha deb o'�layman.

Bunday qonli fojia haqida eshitish, kuzatishning o'zi bir azob. Qon to'kish, begunoh odamlarni, murg'ak go'daklarni, homilador ayollarni o'ldirish, yarador qilish – bu vahshiylikdan boshqa narsa emas. O'zini inson deb hisoblaydigan, insonning hayvonidan farqini tushunadigan odam bunday qabih ishlarga hech qachon, hech qayerda qo'l urmaydi.

Men yaqin kunlarda bu qonli jinoyatlarning tagiga yetib borib, ularga qonuniy baho berilishiga ishonaman. Bu xunrezlikni amalga oshirganlar – bular tashkilotchilar bo'ladimi, ijrochilar bo'ladimi – barcha jinoyatchilarga jazo muqarrar.

Bizning xalqimizni qiynaydigan savol shuki, nima uchun, qanday qilib chegaralarimiz yaqinida – Qirg'izistonning O'sh shahri va Jalolobod viloyatida bunday hech aqlga sig'maydigan qonli fojia sodir bo'ldi?

Buning sabablari ko‘p va bu haqda uzoq gapirish mumkin.

Eng yomoni, bunday fitnani, qon to‘kishni davom ettirishni xohlaydiganlar ham atrofda «parvona» bo‘lib yurganini, ularning soni ko‘pligini biz hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak.

Shuning uchun bugungi kunda kim bizga do‘sit, kim bizga dushman ekanini o‘zimizga aniq tasavvur qilib olishimiz lozim.

Men ilgari ham aytgan edim – biz o‘z maqsadimizga erishishda faqat o‘z kuchimizga ishonishimiz zarur. Agarki, o‘zimiz harakat qilmasak, hech kim chetdan kelib bizga yordam bermaydi. Qaysi millat, qaysi davlatni butun dunyo tan oladi? O‘zining qadr-qimmati, g‘urur va iftixorini saqlab, o‘z kuchi va qudratiga ishongan, o‘z mehnati va aql-zakovati bilan o‘z kelajagini qurish, o‘z yurtini himoya qilishga, kerak bo‘lsa, boshqalarga yordam berish, o‘rnak bo‘lishga qodir bo‘lgan bunyodkor va salohiyatli davlatni, xalq va millatni dunyo ahli tan oladi, hurmat qiladi.

Yana bir haqiqat shundan iboratki, o‘z kuchi va kelajagiga ishongan xalqning bag‘ri keng bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘zbek xalqining ildizlari baquvvat, tarixi buyuk, kelajagi mustahkamdir. Bizning boshqa xalqlardan farqimiz shuki, bir tomonidan xalqimiz juda sodda, bag‘rikeng – bir og‘iz yaxshi gapga jonimizni berishga tayyormiz. Biz har

tomonlama bag'rikeng xalqmiz, hamdard xalqmiz, hamdardlikka tayyor xalqmiz.

Qirg'izistondagi fojia sabablari haqida gapirganda, aynan ana shunday xususiyat va fazilatlarimizga tayanib, bu voqealarga og'ir-vazminlik bilan baho berishimiz kerak. Agarda kimdir qonga – qon deb, qasos deb qadam qo'yadigan bo'lsa, shunga da'vat qiladigan bo'lsa, men bunga mutlaqo qo'shilmayman. Nafaqat qo'shilmayman, balki ularni xalqimizning dushmani deb bilishga tayyorman. Nega deganda, bunday harakat va da'vatlar yana qon to'klishiga, odamlarimizning, bolalarimizning, farzandlarimizning nobud bo'lishiga olib keladi. Har bir ishning oxirini o'ylash kerak.

Mana, atrofga bir qarang, aziz do'stlar, birodarlar, biz qanday ajoyib bir sharoitda yashayapmiz. Men dunyoning juda ko'p joylarida bo'lganman, lekin O'zbekistondagidek go'zal tabiatni hech qayerda ko'rmaganman.

O'zingiz ayting, mana shunday ajoyib sharoitni, mana shunday ajoyib iqlimni, shunday betakror yurtni nimaga almashtirish mumkin? Va nima uchun biz, kimlarningdir gapiga kirib, harakatiga qo'shilib, mana shunday tinchlik va omonlikni xavf ostiga qo'yishimiz kerak?

Men o'ylaymanki, biz o'z fidokorona mehnatimiz, bunyodkorligimizning qadriga yetishimiz kerak. Bilib qo'yinglar, bitta joyda bir o'q otilsa, bitta bomba yoki

snaryad tushsa, tinchlik buzilsa, keyin uni to'xtatish qiyin bo'ladi.

Ikkinchidan, mana shunday go'zal yurtdagi osoyishta hayot bir lahzada izdan chiqib ketishi mumkin.

Shunday ekan, bunday tahlikali paytda nima kerak? Yetti marta o'lchab, bir marta kesish kerak. Men Prezident sifatida butun xalqimizni shunga da'vat etaman. Nega deganda, mamlakat hayotiga daxldor qarorni Prezident qabul qiladi. Lekin bunday o'ta nozik va murakkab masalada men xalqimiz, jamoatchiligidan fikriga suyanib, qaror qabul qilishim kerak.

Ayni paytda mening shaxsiy fikrim shuki, biz hech qachon qasos olish, kimningdir chegarasini buzish, kimningdir uyini vayron qilishga yoki kim bilandir olishib, urush chiqarishga bormasligimiz kerak. Va men Prezident ekanman, bunday noma'qul siyosatga yo'l qo'yayman.

Lekin, afsuski, Qirg'iziston janubida sodir bo'lgan fojiali voqealar munosabati bilan nufuzli xalqaro tashkilotlar, qudratli davlatlar tomonidan bu qirg'inni to'xtatishga qaratilgan qaror hali-beri chiqqani yo'q.

Xorijdagi ayrim chiqishlarda bu voqealarning tub sababini qidirmaslik kerak, degan fikrlar ham bildirilmoqda. Bu masala bo'yicha kim aybdor, nima uchun bu voqealarning fikrlari bo'ldi, degan savol kamdan kam berilmoqda. Ularning fikricha, bu fojia o'zbek va qirg'iz etnik guruhlari o'rtaqidagi qarama-qarshilikdan iborat emish.

Men, bu ikki millat, ikki etnik guruh o‘rtasidagi qandaydir qarama-qarshilik, degan fikrga mutlaqo qarshiman. Yana bir bor ta’kidlab aytmoqchiman: bu fojiaga qirg‘iz xalqi ham, u yerda yashayotgan o‘zbek millati ham sababchi emas. Bu – chetdan turib puxta uyuşhtirilgan va boshqarilgan aksiya, ochiq qilib aytganda, qo‘poruvchilik harakati. Bunday qo‘poruvchilikni uyuşhtirgan, undan manfaatdor bo‘lgan kuchlar borligi ham bizga ma’lum.

Buni uyuşhtirgan kuchlarning pinhona harakati chetdan turib ikki xalqni bir-biriga qarama-qarshi qilish, qon to‘kishga olib kelish, eng yomoni, bu to‘qnashuvga O‘zbekistonni ham qo‘sib qo‘yishdan iborat bo‘lgan. Asosiy maqsad-muddao – qanday qilib bo‘lsa-da, O‘zbekistonda yashayotgan o‘zbeklarning jahlini chiqarib, shu mudhish qirg‘inga tortishga qaratilgan. O‘zbeklarning qiziqqonligidan foydalanib, ularning g‘urur va hamiyatiga tegib, keskinlikni avj oldirish ko‘zda tutilgan.

Shuni inobatga olib, men barcha-barcha insonlarni yana bir marta og‘ir-vazmin bo‘lishga chaqiraman. Qiziqqonlik bu masalada hech qachon, hech qayerda foyda bermagan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ta’kidlab aytmoqchiman: O‘zbekiston hech qachon bunday mojaroga qo‘silmaydi, Qirg‘iziston xalqi bilan qonli urushga yo‘l qo‘ymaydi.

Biz buyuk xalqmiz. Bunday o‘yinlarga, qo‘poruvchilik harakatlariiga javobimiz bitta – biz o‘zimiz

qirg'izlar bilan til topamiz, bu mojarolarni yechishga o'zimizning qurbimiz, aqlimiz va tajribamiz yetadi.

Biz barchamiz «Bizlarga tinchlik kerak» degan iboraga o'rganib qolganmiz. Bunga ko'pda e'tibor ham bermaymiz.

To'y-hasham yoki ma'raka-marosimlarda bo'ladimi, oila davrasida bo'ladimi, keksalarimiz fotihaga qo'l ochib, avvalo, tinchlik-osoyishtalik, xotirjamlik, omonlik bo'lsin, barakamizni, kelajagimizni bersin, osmonimiz musaffo bo'lsin, deb niyat qiladi.

Men ham, fursatdan foydalanib, xalqimizni, butun jamoatchiligidan shunga chaqiraman.

Biz har doim vazmin, oriyatli, or-nomusli xalq bo'lib kelganmiz. Har doim o'z salohiyatimizga, o'z kuchimizga suyanib yashaganmiz. Shu bilan birga, doimo yetti marta o'lchab, bir marta kesganmiz. Men shu yo'ldan hech qachon qaytmaslikka da'vat etib, xalqimizga faqat omonlik, tinchlik tilayman, osmonimiz musaffo bo'lsin, deb Ollohdari so'rayman.

«Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'», degan gap bejiz aytilmagan. Qanday og'ir bo'lmasin, hayot davom etadi, inson doim yaxshi kunlarga umid qilib, ertangi kunga ishonib yashaydi.

Men ishonaman – bu musibatli kunlar orqada qoladi, barchamizning orzu-niyatimiz bo'lgan tinchlik-osoyishtalik albatta qaror topadi.

2010-vil 18-ivun

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

Qadrli do'stlar!

Avvalambor, siz, hurmatli jurnalistlarni, nashriyot va matbaa, radio va televideeniye sohasi fidoyilarini, muhtaram faxriyalarimiz, yurtimizdag'i barcha mushtariylarni bugungi qutlug' ayyom – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan chin qalbimdan samimiyy muborakbod etaman.

Jurnalist ahlining mashaqqatli va sharaflı mehnatidan, ta'sirchan so'zi va ijodiy mahoratidan har kuni bahramand bo'ladigan millionlab odamlar sizlarning timsolingizda el-yurt manfaatini o'ylab yashaydigan fidoyi insonlarni, olijanob kasb egalarini ko'radi.

Bundan bir asr muqaddam o'zbek milliy jurnalistikasining tamal toshini qo'ygan ma'rifatparvar bobolarimiz matbuotning asl mohiyatini ana shunday chuqur anglab, mas'uliyat bilan ish yuritganlari, o'laymanki, sizlarga yaxshi ma'lum.

Bu fikrni birgina misol – 1914 yili "Sadoi Farg'ona" gazetasining ilk sonida chop etilgan "Matbuot butun dunyodagi madaniy millatlarning hayot yo'llari, olamdag'i darajalari va insoniyat taraqqiyotining cho'qqisi uchun lozim bo'lgan say"-harakatlar to'g'risida maslahatlashmoq va kengashmoq uchun zarur bir vositadir" degan so'zlar ham yaqqol isbotlaydi.

Mustaqillik yillarda milliy matbuotimiz ana shunday tamoyillar va zamonaviy talablar asosida tubdan yangilanib va rivojlanib borayotgani ayniqsa e'tiborlidir.

Shu bilan birga, barchamiz yaxshi tushunamizki, bugun biz yashayotgan shiddatli XXI asr, hayotimizga keskin sur'atlar bilan kirib kelayotgan globallashuv jarayonlari ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarimiz oldiga yanada muhim va dolzarb vazifalarni qo'ymoqda.

Bu o'rinda gap jurnalistning nafaqat iste'dodi va mahorati haqida, ayni paytda o'z umrini shu zahmatli kasbga bag'ishlagan har qaysi insonning fuqarolik mas'uliyati, hamisha davr bilan hamnafas bo'lib, jamiyatdag'i

o'tkir muammolarni dadil ko'tarib chiqishi, ularga jamoatchilik va keng ommaning e'tiborini qaratishi, qisqa qilib aytganda, el-yurt dardi va istiqboli uchun, hayotimizda inson huquq va erkinliklari, adolat va haqiqat qaror topishi uchun kuyib-yonib yashashi haqida bormoqda.

Shu ma'noda, o'zini yurtparvar deb his qiladigan har bir jurnalistning Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning xalqaro maydonda munosib obro'-e'tibor qozonishi, bugungi notinch zamonda, ayniqsa yon-atrofimizdag'i vaziyat keskinlashib borayotgan bir paytda ona yurtimizni asrash-avaylash, do'stni dushmanidan, oqni qoradan ajratishga, aholimizni doimo sezgir va ogoh bo'lib yashashga da'vat etishda o'z hissasini qo'shishi alohida ahamiyatga ega.

Bu esa matbuot ahlining tez o'zgarib borayotgan hayot bilan hamqadam bo'lib yashashini, taraqqiyot sirlarini egallash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, avvalo Internet imkoniyatlaridan to'la foydalanishga erishishni, o'z ustida doimiy ishlashini taqozo etadi, albatta.

Qattiq iroda va tinimsiz mehnatni talab qiladigan bunday vazifalar haqida gapirganda, barchamiz yaxshi anglaymizki, avvalo mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarining faoliyatini zamon darajasiga ko'tarish uchun huquqiy kafolat va sharoitlarni, jurnalist va texnik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning mehnatini munosib rag'batlantirish masalalari demokratik davlat barpo etish vazifasining uzviy bir qismi bo'lishini ta'minlash maqsadida hali yana ulkan ishlarni amalga oshirishimiz zarur.

Bu xususda so'z borganda, keyingi yillarda markazda va joylarda ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanayotgani, ayniqsa nodavlat nashrlar va teleradiokanallar faoliyati kengayishi axborot maydonida o'zaro raqobat muhitining, eng muhimmi, jamiyatimizda fikrlar va qarashlar rang-barangligining kuchayishi, aholimizning dunyoqarashi va ma'naviy olamini yanada yuksaltirishga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Shunday ijobjiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash, ularga yangi amaliy turki berish maqsadida matbuot bayramiga bag'ishlab joylarda bo'lib o'tadigan turli tadbir va uchrashuvlarda jurnalistlarning hayotimizdag'i o'rni va vazifasi xususida hokimiyat va jamoatchilik vakillari ishtirokida keng va atroficha fikrlashib olish ayni muddao bo'lur edi.

Shu borada chuqur bir haqiqatni anglab olishimizni istardim: ommaviy axborot vositalarining bugungi faoliyati, ularning savyysi, o'tkirligi va ta'siri, bir so'z bilan aytganda, bu sohani amalda "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarish uchun yana qanday chora-tadbirlar ko'rish, qanday vazifalarni amalga oshirish kerakligini belgilab olishda, ilg'or dunyo tajribasini joriy qilishda bizga o'zimizdan boshqa hech kim ko'mak berolmaydi.

O'zimiz belimizni qattiq bog'lab, qo'l-oyog'imizda bamisoli zanjir bo'lib turgan eskicha qarash va qoliplardan ozod bo'lib, qonun oldida barchaning teng ekanı amalda o'z tasdig'ini topishi uchun charchamasdan doimo kurashish – bugungi davr talabi ekanini unutmasligimiz lozim.

Bugun yurtimizda matbuot bayramini nishonlar ekanmiz, qaysi soha bo'lmasin – bu gazeta-jurnal yoki radio-televide niye bo'ladimi, nashriyot va matbaa sohasi bo'ladimi – journalistikamiz rivojiga katta hissa qo'shayotgan barcha ijodiy va texnik xodimlarni, muhtaram faxriyalarimizni ushbu qutlug' sana bilan yana bir bor tabriklab, sizlarning sharaflı mehnatingizni xalqimiz, Vatanimiz hamisha yuksak qadrlaydi, deb qalbimdagı ezgu tilaklarimni bildirishdan baxtiyorman.

Hurmatli va aziz do'stlar!

Barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, mas'uliyatli faoliyattingizda yangi-yangi muvaffaqiyatlar tilayman.

Mehnat va ijod zavqi sizlarni hech qachon tark etmasin.

*Islom Karimov,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

O'ZBEKISTON G'ALLAKORLARIGA

Qadrli do'stlar!

Avvalambor, siz, aziz dehqon va fermerlarimizni, barcha dala mehnatkashlarini 7 million tonnaga yaqin yuksak g'alla xirmoni bunyod etib, O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarixida hech shubhasiz navbatdagi yangi sahifa ochishga erishganingiz – mana shunday ulkan g'alabangiz bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Azaldan nondek aziz va tabarruk ne'matning qadriga yetadigan, uni ko'ziga to'tiyo qilib yashaydigan xalqimiz bu beqiyos yutuq qanday og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga qo'lga kiritilganini chuqur anglaydi va rizq-ro'zimiz bo'lmish bunday bebaho boylikni bizga nasib etgani, el-yurtimizning yo'lini oolib bergani, o'zi madadkor bo'lgani uchun Yaratganimizga shukronalar bildirib, zahmatkash, fidoyi dehqonlarimizga tasannolar aytadi.

Bir vaqtlar o'lkamiz o'z ehtiyojini qondirish maqsadida kimgadir muhtoj bo'lib, kimgadir yalinib, katta mablag'lar to'lash hisobidan donni chetdan olib kelganini inobatga oladigan bo'lsak, bugungi kunda Vatanimiz g'alla mustaqilligiga erishib, har tomonlama to'qchilikni qo'lga kiritganimiz, kerak bo'lsa, g'allani eksport qilish imkoniyatiga ega bo'lganimiz, shu kunlarga yetganimiz uchun barchamiz chin qalbdan minnatdor bo'lishimiz tabiiy, albatta.

Azizlarim, barchangiz yaxshi bilasiz, bunday marralarga yetish oson bo'lgani yo'q.

Buning negizida avvalo uzoqni ko'zlab, izchillik bilan amalga oshirilayotgan davlat siyosati, chuqur o'yangan islohotlar, shu yo'lida eng muhim o'rinni va ahamiyat kasb etgan fermerlik harakatiga o'tganimiz, unga keng yo'l va imtiyozlar oolib berganimiz, hozirgi vaqtida yurtimizda fermerlik haqiqatan ham tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgani, ayni paytda sohaga ilmiy asoslangan, O'zbekistonning iqlimi va sharoitiga moslashtirilgan zamонави agrotexnologiyalarni joriy qilish, bir so'z bilan aytganda, qishloq aholisining mehnatini qadrlash va rag'batlantirish masalalari mujassam bo'lganini takror-takror aytish o'rinali deb bilaman.

Shu borada yerni haqiqiy egasiga topshirganimiz, mulkdorlik va o'z mehnatidan manfaatdorlik hissiyoti dalada ishlaydigan har bir odamning qalbidan chuqr joy olgani, shu asnoda mehnatchilarimizning dunyoqarashi o'zgarib, ongu tafakkuri yuksalib, kelajakka ishonch tuyg'usi yanada mustahkam bo'lib borayotganining o'zi bugun qishloqlarimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlarning yaqqol namunasi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Keyingi yillarda mintaqamizda ob-havo va iqlimning o'zgarib borayotgani, xususan, o'tgan yili kuzning noqulay kelgani, bahorda do'l, sel va yog'ingarchilik me'yordan ko'p bo'lgani, qolaversa, turli zararkunandalar va kasalliklar boshqoli ekinlar rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Hatto g'alla o'rimga kelgan paytda kuchli shamol va jala tufayli ayrim dalalarda bo'liq maysalarning yotib qolishi qo'shimcha tashvish tug'dirdi. Muxtaras aytganda, mana shunday murakkab holatlar g'allakorlarimizning irodasini yana bir marta jiddiy imtihondan o'tkazdi.

Shuni g'urur va iftixor bilan ta'kidlash lozimki, hayot sinovlarida toblangan, azmu shijoatli dehqonlarimiz bu imtihondan yorug' yuz bilan o'tib, barcha qiyinchiliklarni yengib, mo'l hosil yetishtirishga erishdilar. Mamlakat bo'yicha o'tgan yilga nisbatan 286 ming tonna ko'p don yetishtirilgani, sug'oriladigan yerlardan hosildorlik gektariga o'rtacha 51 sentnerni tashkil etgani, lalmi yerlardan ham barakali hosil olingani buning amaliy tasdig'idir.

Ayniqsa, Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand va Toshkent viloyatlarida hosildorlik darajasi o'rtacha 53-58 sentnerni tashkil etgani, Paxtaobod, Baliqchi, Ishtixon, Yakkabog', Kasbi, Uchqo'rg'on, G'ijduvon, Peshku, Quyi Chirchiq, Do'stlik tumanlarida bu ko'rsatkich 55-67 sentnerdan yuqori bo'lgani fidoyi o'zbek dehqonining qanday buyuk ishlarga qodir ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Eng muhimi, shartnoma majburiyatlariga amal qilgan holda, yetishtirilgan hosilning 4 million 90 ming tonnasi, ya'ni qariyb 60 foizi fermer xo'jaliklari va aholi ixtiyorida qoldirilgani dehqonlarimizning ombori g'allaga, ro'zg'ori qut-barakaga to'lib, ularning o'z mehnatidan katta manfaat topayotganining yorqin ifodasidir.

Bularning barchasi, o'z navbatida mamlakatimiz taraqqiyoti, Vatanimizning yorug' istiqboli uchun, xalqimizning turmush darajasini yuksaltirish, barkamol avlodni tarbiyalashdek olijanob ishlarimizni yanada keng ko'lamba davom ettirish, yurtimizda erkin va obod, farovon hayot

barpo etish yo'lida belgilab olgan dastur va rejalarimizni amalga oshirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi muqarrar.

Albatta, hali dalalarimizda qiladigan ishlarimiz ko'p. Eng avvalo, yetishtirilgan g'alla hosilini to'la yig'ib-terib olish, yerni shudgorlash ishlarini sifatli bajarib, kelgusi yil hosiliga puxta zamin yaratishimiz kerak.

Ishonchim komilki, yurtimiz dehqonlari qishloq xo'jaligi ishlarini samarali davom ettirib, paxta, sabzavot, poliz va boshqa ekinlardan ham mo'l hosil yetishtirishga va bu yilgi mavsumni barcha sohalar bo'yicha yorug' yuz bilan yakunlashga erishadilar.

Mana shunday xursandchilik kunda siz mirishkor fermerlarimizga, o'rim-yig'imda jonbozlik ko'rsatib mehnat qilgan mexanizatorlarga, mutaxassis va mutasaddilarga, bugungi ulkan yutuqqa munosib hissa qo'shgan barcha-barcha insonlarga yana bir bor chin qalbimdan samimiy minnatdorlik izhor etaman. Lafzi halol, mard va tanti bobodehqonlarimizga butun xalqimiz nomidan ta'zim qilaman.

Xonardonlarimizdan, el-yurtimizdan tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka arimasin!

Mehnatingizning rohatini ko'ring, hech qachon kam bo'lmanq, azizlarim!

*Islom Karimov,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

MUNDARIJA

**“SHARQ TARONALARI” YETTINCHI XALQARO MUSIQA
FESTIVALINING OCHILISHIGA BAG‘ISHLANGAN
MAROSIMDAGI TABRIK SO‘ZI. 2009-yil, 26-avgust**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 18
YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI
TABRIK SO‘ZI. 2009-yil, 31-avgust**

**TARIXI BOY, BUGUNI GO’ZAL, KELAJAGI BUYUK SHAHAR.
Prezident Islom Karimovning Toshkent shahrining 2200 yilligiga
bag‘ishlangan tantanali majlisdagi nutqi, 2009-yil, 1-sentabr**

**O‘ZBEKISTON O‘QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA, 2009-yil,
30-sentabr**

**HAMDO‘STLIKKA A’ZO DAVLATLAR TEMIR YO‘L
TRANSPORTI BO‘YICHA KENGASHINING 51-MAJLISI
ISHTIROKCHILARIGA. 2009-yil, 27-oktabr**

**O‘ZBEKISTON PAXTAKORLARI VA BARCHA
MEHNATKASHLARIGA. 2009-yil, 31-oktabr**

**O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI – BIZ UCHUN
DEMOKRATIK TARAQQIYOT YO‘LIDA VA FUQAROLIK
JAMIYATINI BARPO ETISHDA MUSTAHKAM POYDEVORDIR.
Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
qabul qilinganining 17 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdag
ma’ruzasi. 2009-yil, 5-dekabr**

**O‘ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI. 2009-yil, 31-
dekabr**

**VATANGA QASAMYOD, MARDLIK VA JASORAT
MADHIYASI. Prezident Islom Karimovning Toshkent shahrida barpo
etilgan “Vatanga qasamyod” haykalining ochilishiga bag‘ishlangan
tantanali marosimdag so‘zi. 2010-yil, 12-yanvar**

VATAN HIMYOYACHILARIGA BAYRAM TABRIGI. 2010-yil, 14-yanvar

MAMLAKATIMIZNI MODERNIZATSIIYA QILISH VA KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATI BARPO ETISH – USTUVOR MAQSADIMIZDIR. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. 2010-yil, 27-yanvar

ASOSIY VAZIFAMIZ – VATANIMIZ TARAQQIYOTI VA XALQIMIZ FAROVONLIGINI YANADA YUKSALTIRISHDIR. Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanadirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. 2010-yil, 29-yanvar

O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARIGA BAYRAM TABRIGI. 2010-yil, 6-mart

NAVRO‘Z BAYRAMIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI SO‘Z. 2010-yil, 23-mart

“INQIROZGA QARSHI CHORALAR DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA INQIROZDAN KEYINGI RIVOJLANISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI (O‘ZBEKISTON MISOLIDA)” MAVZUIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA. 2010-yil, 12-aprel

RIVOJLANISH YO‘LIDAGI HAMKORLIK. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashi 43-yillik majlisining ochilish marosimidagi nutqi. 2010-yil, 3-may

INSON QADRI – ULUG‘, XOTIRASI – MUQADDAS. 2010-yil, 9-may

“UNIVERSIADA-2010” SPORT O‘YINLARI ISHTIROKCHILARIGA. 2010-yil, 28-may

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ISLOM KARIMOVNING SHHT DAVLAT RAHBARLARI KENGASHINING KENGAYTIRILGAN TARKIBDAGI MAJLISIDA SO‘ZLAGAN

NUTQI. 2010 yil 11 iyun

BIZ HAR TOMONLAMA BAG'RIKENG, KO'PNI KO'RGAN,
HAMDARD XALQMIZ, 2010-yil, 18-iyun

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI
XODIMLARIGA. 2010-yil, 25-iyun

O'ZBEKİSTON G'ALLAKORLARIGA. 2010-yil, 21-iyul